

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-34
ТОМ-3
12/2024**



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-34 ТОМ-3

Декабрь - 2024 год





TIL O'RGANISHDA DIQQAT VA XOTIRANING AHAMIYATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

*Ilmiy rahbar: Soliyeva Z.Z.
SamDCHTI Ingliz tili fakulteti talabasi
Turdiboyeva Sevinch*

Annotatsiya: Bilamizki, odamzod xotirasi bilan yashaydi, undan faqat xotira qoladi. Xotirasiz insonlar hayvonga o'xshab qolishadi. Inson esda saqlab qolishi uchun avvalo u diqqat- e'tiborli bo'lishi zarur. Agarda shaxsda diqqat bo'lmasa unda xotira ham bo'lmaydi. Shu bilan birga bilim olish jarayonida ham diqqat va xotira asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim olish jarayonida inson qanchalik diqqat e'tiborli bo'lsa, shuncha yaxshi esda saqlab qoladi. Xotirasiz ma'lumotlarni eslab qolgan insonning esa yangi bilimlarni o'zlashtirishi boshqalarninkiga qaraganda tez, oson va sifatli kechadi. Mazkur maqolada diqqat va xotiraning o'rni va uni rivojlantirishning o'ziga xos usullari tadbiq etiladi.

Kalit so'zlar: Xotira, diqqat, neyrobika, ofitsiant, shezofrineya, skleroz, markaziy nerv hujayrasi, dominanta, optimal qo'zg'alish, mentalitet, kognitiv jarayon.

Har bir shaxsning rivojlanishi, taraqqiyoti bevosita uning xotirasi bilan bog'liq. Sechenovning Xotirasiz inson "abadiy go'daklik holatida" qolgan bo'lar edi degan fikrlari, shuningdek, S.L. Rubinshteyn ta'kidlaganidek: " Xotirasiz daqiqa mavjudotlari bo'lar edik. O'tmishimiz kelajak uchun o'lik bo'lar edi. Hozirgi zamon kechmishiga ko'ra o'tmishda badar yo'qolar edi" degan fikrlari xotiraning inson hayotida nechog'lik muhim manbaa ekanligidan dalolat beradi.

Xotira bu – inson ko'rgan, eshitgan yoki o'qigan ma'lumot va voqealarni o'zi xohlagan paytda yodga olishidir. Xotira jarayoniga esda saqlash, esga tushirish va unutish kiradi.

Esda saqlash – olingan informatsiya va axborotlarni saqlash jarayoni hisoblanadi. Bunda ong harakatga keladi va qabul qilingan ma'lumotlarning ma'lum qismi esda qoladi va yana bir ma'lum qismi unutiladi.

Esga tushirish - esda olib qolingga ma'lumotni aktuallashtirish bo'lib, kishi undan xohlagan vaqtida foydalanish imkoniyatidir.

Esdan chiqarish – qayta yodga olishdagi qiyinchiliklar hisoblanib, bu jarayon to'la, qisman, qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi.



Har bitta o‘rganilgan bilim va malakalar xotirada saqlanib qolinishi uchun ularni vaqtiga vaqtiga bilan takrorlab turish lozim. Biror bir material o‘zlashtirilgandan so‘ng oz vaqtdan keyin emas balki, uzoq vaqtdan keyin esga tushishi bu – materialning miya po‘stlog‘ida mustahkamlanishi. Shuni aytish joizki, odamlar orasida “unitish yomon” degan fikr mavjud. Aksincha, unutish xotiradagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi va u bizga qimmatli bo‘lgan narsalarni bilish, esda saqlab qolish imkoniyatini yaratib beradi. Aks holda inson xotirasi keraksiz informatsiyalar bilan to‘lib ketadi va yangi narsalar bilan muloqot qilishi qiyinlashadi.

Xotira turlari

Xotira faolligiga ko‘ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘ladi. Biror bir material yoki ko‘nikmalarni esda saqlash muddatiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi.

1. Uzoq muddatli xotira
2. Qisqa muddatli xotira.[6]

Uzoq muddatli xotira bu – inson o‘zlashtirgan informatsiya va axborotlarni oradan ancha vaqt o‘tsa ham yodga olishi bo‘lib, bu materiallar inson xotirasida bir necha yillar balki butun umr eslay olishidir. Asosan, uzoq muddatli xotira oraliqli takrorlash yoki shaxsning his-tuyg‘ulariga qattiq ta’sir qilgan voqeа-xodisalar orqali yuzaga keladi. Bundan tashqari hozirgi kunda ko‘plab ma’lumotlarni eslab qolish usullari mavjud va ular ham bunga misol bo‘la oladi. Masalan, bobo- buvilarimiz yoki ota-onalarimiz bolaligidagi bo‘lgan qiziq voqealarni aytib berishadi.

Qisqa muddatli xotiraga keladigan bo‘lsak, bu operativ xotira deb ham yuritiladi. Bunda o‘quvchi yoki talabaning imtihonga tayyorlanish vaqtini misol qilib olsak bo‘ladi. Ular tanlangan material o‘rganib yodlashadi va ma’lum maqsad uchun ulardan foydalanib bo‘lgach, bu ma’lumotlarning 97% ini eslaridan chiqarib yuborishadi. Bu paytda yana bir narsani ko‘rishimiz mumkinki, inson psixologiyasi juda katta ahamiyatga ega. Ya’ni talaba “imtihondan o‘tib olsam bo‘ldi” degan motivatsiya bilan esda saqlaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “esimdan also chiqarmayman” yoki “esimda uzoq saqlayman” deb, jazm qilib yodlangan bilimlar inson xotirasida ancha vaqtgacha saqlanib qolar ekan. Rus psixologi zeygarnik ko‘plab inson miya faoliyati ilan bog‘liq tajribalar o‘tkazgan bo‘lib Vena restoranidagi tasodifiy voqeа ofitsiantlarning qisqa muddatli xotirasining rivojlanganligiga bir misol bo‘la oladi. 1920-yillarning bir kunida gavjum Vena restoranida o‘tirgan rus psixologi Bluma Zeygarnik (Bluma Zeigarnik) ofitsiantlarning mijozlar hali qabul qilib olmagan buyurtmalar ro‘yxatini yaxshi



eslab qolishlarini va oziq-ovqat yetkazib, chek yopilishi bilanoq bu buyurtmalar ro‘yhatini tez unutishlarini payqab qoladi.[1]

O‘z miya faoliyatini tushinmaydigan, xotira imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni bilmaydigan insonlar doimo ozlarining sustligi bilan nolib yurishadi. Har bir insonning miyasi bir xil tuzilgan bo‘lib undan qanday samarali va unumli foydalanish kishilarning o‘ziga bog‘liq. Ular faqat hajmi og‘irligi bilan farq qilishi mumkin. Bir necha yillar ilgari bor yo‘g‘i inson miyasing 10% i ishlaydi degan noto‘g‘ri qarashlar mavjud edi. Yo‘q, har bir individning miyasi 100% ishlaydi. Faqatgina bu insonlarning onglilik darajasi ularning genlariga, ijtimoiy muhitiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, yomon xotira bo‘lmaydi, aksincha, rivojlantirilmagan xotira bo‘ladi. Aksariyat holatlar ham uchrab turadi, ular xotiraning buzilish holatlari bilan bog‘liq. Biron bir kuchli ta’sir (qo‘rqish, stress, depressiya va h.k) miyaning katta yarim sharidagi kishi xotirasi bilan bog‘liq bolgan markaziy nerv hujayralarining shikastlanishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Shezofrineya, skleroz kabi kasalliklar xotiraning buzilishi bilan kechadigan hastalik turlari.[11]

Xotirani o‘rganish XIX asrning 80- yillariga to‘g‘ri keladi. 1885-yilda nemis olimi “Ebbingous xotirlab qolish jarayonlari haqida”, XX asrning 30-yillarida Rossiya psixologlari L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, A.N Zankov, T.I.Zinchinko kabilar xotiraning turli qismlari va imkoniyatlarini o‘rganishgan.[5]

DIQQAT

Kishi faoliyatlarining barchasi ya’ni aqliy mehnatning ham, jismoniy mehnatning ham samaradorligi uchun diqqat talab qilinadi. Insonlarning diqqati ta’lim olish sifatini yaxshilovchi, uni osonlashtiruvchi hamda tezlashtiruvchi omillardan biri sanaladi. Diqqaat deb ongimizni bir nuqtaga to‘plab, uni aktiv holda bir predmatga yoki bir hodisa yo‘naltirilganligiga aytiladi. Agar, bajarilayotgan faoliyat qanchalik murakkab bo‘lsa, u shuncha kuchli diqqat talab qiladi. Kuchli diqqat kuchli iroda talab qiladi. Diqqatni deyarli barcha aqliy jarayonlarning sifatini oshiruvchi ichki aktivlik desak mubolag‘a bo‘lmaydi va u har qanday faoliyat va jarayonning sharti hisoblanadi.

Diqqatning fiziologik mehanizmlarini tushunib yetishda dominanta (nasldan-naslga o‘tuvchi asosiy belgi) printsipi alohida ahamiyatga ega. A.A.Uxtomskiyning fikriga ko‘ra, miyada hamisha qo‘zg‘alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi mavjud bo‘ladi. Demak, diqqatning fiziologik asosini bosh miya usti qismidagi “optimal qo‘zg‘alish nuqtasi” tashkil qiladi. Miya po‘stining optimal qo‘zg‘algan joyi o‘z o‘rnini almashtirib turishi, bu – diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga



ko‘chishi va shuning bilan birga ongimizning ma’lum narsa, ma’lum faoliyat turiga qarata yo‘naltirilishi va to‘planishini shartlaydi.[9]

2015-yil Microsoft korparatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga qaraganda , hozirgi davr odami 8 soniyadan ortiq diqqatini bir narsaga uzlucksiz qaratib tura olmas ekan.[7] 2000-yilda bu ko‘rsatkich 12 soniyani tashkil etgan. Raqamli dunyonong turmush tarziga tobora chuqurlashib borish diqqatning susayishiga olib kelmoqda.[4] Shunday qilib, diqqat hosil bo‘lish xususiyatiga ko‘ra asosan 2 turga bo‘linadi.

1. Ixtiyoriy diqqat
2. Ixtiyorsiz diqqat.

Ixtiyoriy diqqat- ongli ravishda boshqariladigan shaxs tomonidan ma’lum bir materialga iroda kuchi bilan yo‘naltirilgan aqliy jarayon. Uning eng muhim vazifasi psixik jarayonlarni faol boshqarish. Ixtiyoriy diqqatning yana bir atamasi irodaviy diqqat deb ham yuritiladi.

Ixtiyorsiz diqqat- kishining xohish va maqsadlarisiz hosil b0‘ladigan diqqat turi hisoblanadi. Ixtiyorsiz diqqatni quyidagi omillar yuzaga chiqarishi mumkin.

Kaliforniyadagi Irvayn universitetida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga qaraydigan bo‘lsak, inson ma’lum ish bilan shug’ullanayotgan vaqtida uni bir marta chalg‘itishsa, u yana shu ishga fikrini jamlashi uchun taxminan 23 daqiqa-yu 15 soniya vaqt kerak bo‘lar ekan.[2]

Til dunyo sirlarini ochish eng muhim vositadir. Hayotda tilning o‘rni qanchalik muhim ekanligini bilmaymiz. Inson jamiyatida til juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, til sababli ko‘nikma va tajribalar bizdan keying avlodlarga meros sifatida qoldiriladi. Til va tafakkur bir- bri bilan chamarchas bog‘liqdir. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi har doim bir-birini taqozo qiladi va organik jihatdan ham bir-biriga yaqin. Tilning rivojlanishi bu -tafakkurning rivojlanishi, tilni rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri tafakkurning rivojlanishidir. Til insoniyat uchun fikrlash vositasi va shuning uchun ham ,til insonlarni hayvonot dunyosidan keskin ajratib turadi.

Har bir tilning o‘ziga xos jihatlari bor. Xuddi o‘zbek tili kabi boshqa tillar ham millatning urf-odatlarini, o‘tmishini aks ettiradi. O‘rganish jarayonida vaqt o‘tgan sari uning afzalliklaridan bahramand bo‘lib boraverasiz. O‘rganilayotgan tilning millati, dunyoqarashi, qadriyatları, turmush -tarzi va mentaliteti bilan yaqindan tanishasiz. Shuningdek, zamonaviy psixologiya ham “boshqa tillarni o‘rganish inson psixologiyasiga qisman bo‘lsa ham ta’sir ko‘rsatmoqda” degan fikrda.



Tilni o‘rganish yo‘lidagi asosiy muammo til to‘sig‘idir. Mukammal grammatika va so‘z boyligi insonga o‘z fikrlarini ravon va tushinarli bayon qilish qobiliyatini berib qo‘ymaydi. Til to‘sig‘i deyarli har bir o‘quvchi va talabalarda kuzatiladigan holat bo‘lib, u 2 turga bo‘linadi.

Lingvistik to‘sinq

Psixologik to‘sinq[8]

Lingvistik to‘sinq bu – xorijiy nutqni idrok etishdagi qiyinchiliklar, til amaliyotining yetarli emasligi.

Psixologik to‘sinq. Bu muammo jiddiyroq muammo sanaladi va lingvistik to‘sinqqa qaraganda psixologik to‘sinq ko‘proq kuzatiladi. U muloqot qilish jarayonida qo‘rqish, ya’ni xato qilishdan, noto‘g‘ri gapirishdn qo‘rqish uyalish hissidir.

Yuqoridagilardan halos bo‘lish uchun esa faqtgina insondan ko‘proq mehnat talab qilinadi. Ko‘proq amaliyot qilish zarur. Masalan, “shadowing” talaffuzni yaxshilashga katta yordam beradi. Agar boshqalar bilan chet tilida gaplashishga uyalsangiz, oynaga qarab gapiring, bu sizning nutqingizni rivojlanishiga ham hayajoningizni yengishga ham yordam beradi.

Kognitiv jarayonlar tarkibiga kiruvchi tafakkur, diqat va xotira kabi ajralmas qismlar talabar til o‘rganish jarayonidagi asosiy tipologik muhim jarayonlardan biri. Ta’lim olish jarayonida diqqat takrorlanar ekan, buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy: ”diqqat aynan shunday bir eshikki, tashqi olamdan kishi qalbiga kirib keladigan jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi,” – deb yozgan edi. Diqqat ta’limning muvaffaqiyatlilik shartlaridan biri bo‘lganidek, uning shakillanishi ham ushbu jarayonning aynan o‘zida yuz beradi. O‘quv jarayonida ayniqsa boshlang‘ich ta’limda ixtiyorsiz diqqat muhim ro‘l o‘ynaydi. Negaki, kichik yoshdagи o‘quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ravishda boshqarish rivojlanmagan bo‘ladi ya’ni diqqati tarqoq holda bo‘ladi. Dars jarayonida o‘quvchilarni jalb qilishda ko‘rgazmali qurollar;jadvallar, kartinalar, turli rasmlardan to‘g‘ri, maqsadga muvofiq foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘qituvchilarining o‘quvchilarga bo‘lgan muntazam talabchanligi, uyga berilgan topshiriqlar muhim ro‘l o‘ynaydi. Shu bilan bir qatorda xotira ham rivojlanib boradi, uning ko‘لامi kengayadi. Til o‘rganish jarayonida avvalo diqqat keyin esa xotira bir-biri bilan uzviy holda faoliyat ko‘rsatadi. Qanday qilib, diqqat qilinmagan ma’lumot xotirada qolishi mumkin. Agar ta’lim olish jarayonida qanchalik diqqat kuchli bo‘lsa, xotirada bilimlar shunchalik mustahkam esda qoladi va o‘zlashtirish oson kechadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, normal inson bir ishning ustida 25 daqiqadan ortiq diqqatini jamlab ishlay olmas ekan.



Diqqat va xotirani rivojlantiruvchi maslahatlar:

Nuqta mashqi. Diqqatni rivojlantirishdagi eng samarali mashq deb tan olingan. Mashqni bajarish uchun bizga o‘rtacha kattalikdagi istalgan oq qog‘oz, karton va list ham bo‘laveradi. Uning o‘rtasiga o‘rtacha kattalikdagi nuqta qo‘yasiz. Boshlanishida telefoningizning taymerini 2 daqiqaga qo‘yasiz. Qog‘ozdagi nuqtaga xech narsani o‘ylamasdan, atrofdagi narsalarga chalg‘imasdan taymeringiz chalmaguncha qarab turasiz. Bu jarayonda faqat nuqta haqida o‘ylash kerak bo‘ladi. Mashqlar soni ko‘payib boravergani singari daqiqalar ham ko‘paytirilib boriladi.[3]

Xona mashqi . Bu mashq sizni bor-yo‘g‘i diqqatli insonga aylantiribgina qolmay, balki, tasavvuringizni boyituvchi va xotirangizni ham rivojlantiruvchi mashq hisoblanadi. Buning uchun siz xonangizni istalgan bir burchagini olishingiz mumkin. Birinchi navbatda o‘sha burchakka bir necha soniya sinchiklab nimalar predemetning qayerda qay holda turganligini yodga olasiz. Bu mashqni bir kunda bir marta bajarishning o‘zi yetarli.

Asar mashqi. Birinchi navbatda biror bir o‘zingiz qiziqqan badiiy asarmi yoki ilmiy kitobnimi olasiz. Asosiysi u siz uchun qiziq bo‘lsa yanayam yaxshi bo‘ladi. O‘zingiz bilan bo‘sh qog‘oz olish ham esdan chiqmasin. Bugun kitobning nechanchi sahifasigacha o‘qimoqchisiz? O‘sha sahifani belgilaysiz va o‘qishni boshlayshiz. Kitobni o‘qish jarayonida diqqatingiz har bo‘linganda qog‘ozga 1 ta chiziq qo‘yib ketaverasiz. Belgilangan sahifaga yetguningizcha shunday qiling, kitobni boshidan boshlab o‘qimang. Ushbu mashq bilan shug‘ullanaversangiz, vaqt o‘tishi bilan chiziqlar soni qisqarib boraveradi.

Xotira uchun

*Katta hajmli ma’lumotlarni qismlarga bo‘lish orqali eslab qolish mumkin. Uzun matnni tezroq yodga olish uchun uni miyada tasavvur qilish lozim. Uni biror bir kulgili, qiziqarli voqeа yoki o‘yin-kulgi bilan bog‘lab esda saqlab qolish osonroq bo‘ladi va anchagacha yoddan chiqmaydi. Bu- ma’lumotlarning hissiyotlarga bog‘lanishini anglatadi.

*Xotirani rivojlamirish uchun neyrobika ham juda katta foyda beradi. Neyrobika bu – aql gimnastikasi hisoblanadi. Odatiy harakatlarni chap qo‘lda bajarish (yozish, qoshiqni chaq qo‘lda ushslash va h.k) orqali miyadagi yarimsharlar aloqasini kuchaytirish mumkin.[10]

*Turli xildagi mantiqiy, matematik, topshiriqlarni ishlab turish, topishmoqlarni topish ham xotira va miya faoliyati uchun juda foydali bo‘lib, bunda miya zanglab qolmaydi. Tez qaror qabul qilishga va fikrlashni rivojlantiradi.



*Kitob o‘qish nafaqat xotira uchun balki inson miyasining boshqa faoliyatlari uchun ham juda foydalidir. Birinchi navbatda so‘z boyligini rivojlantiradi. Xotiraga qancha ko‘p ma’lumot yuklansa shuncha informatsiya taxlil qilinadi. Eski malumot ya’ni keraksiz ma’lumotlar esdan chiqarilib yangilari saqlanadi. Bunda xotira doimiy ishlab turish natijasida uning ishslash sifati, tezligi oshaveradi.

Mutaxasislarning fikricha, boshqa tillarni o‘rganish xotirani kuchaytirar ekan.

Albatta, xotirani yaxshilash uchun foydali meva va sabzavotlar is’temol qilish, jismoniy mashqlar qilib turish, tabiat qo‘ynida sayohat qilish ham zarur va shartdir. To‘yib vaqtida uxlamaslik zararli odatlar chekish spirtli ichimliklar is’temol qilish, multitasking (bir vaqtning o‘zida ikki ish qilish: ham ovqatlanib, ham televizor ko‘rish) xotira pasayishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, boshni yopinchiq bilan butunlay o‘rab uplash, paypoq bilan uplash, peshobni uzoq vaqt ushlab turish bularning barchasi xotira uchun zararli.

Har tomonlama rivojlanib borayotgan zamonda ikki tillilik odatiy holga aylanib qoldi. Insonlar 2ta emas undan ham ko‘proq til o‘rganishga harakat qilishyapti. Hozirgi kunda deyarli barcha kadrlardan dunyo tillaridan birini bilish talab qilinmoqda. Ular sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lishlari, dunyo axborort vositalaridan bemalol foydalana olish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun juda muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kungacha inson miyasi juda ko‘p tajribalardan o‘tkazildi. Uning ish faoliyati bir qancha o‘rganildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi juda ko‘p narsalarga qodir: cheksiz xotira, xech qaysi sun’iy intelekt unga teng kela olmaydi. Faqatgina undan qay yo‘sinda foydalanish kishilarning o‘ziga bog‘liq. Agar o‘zimiz xohlasak, uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olsak inson juda ko‘p ishlarga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga til o‘rganish jarayonida ham diqqat va xotiradan to‘g‘ri foydalana olishimiz zarur. Shundagina inson o‘zi xohlagan natijalarga erisha olishi mumkin. Diqqatsiz xotira bo‘lmaydi. Xotirasiz odam inson bo‘la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov.A.R. Xotirani Rivojlantirishning O‘ziga Xos Usullari. Volume3. Issue(27), February 2022
2. Education andinnovative research 2022 y. 6.2
3. P.V.Ivanov. “Umumiyl Psixologiya”, 1992 yil
4. Turdiyev. D. Antidangasalik supermiya
5. Zufarova M.E. Umumiyl psixologiya. Toshkent, 2010.
6. Shohrux Mirzo Rahmonov. Mukammal Xotira. Toshkent, 2020.



7. <https://time.com/3858309/attention-spans-goldfish/>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Zeigarnik_effect#:~:text=Named%20after%20Soviet%2
9. <https://lifehacker.com/how-long-it-takes-to-get-back-on-track-after-a-distract1720708353> <https://www.ics.uci.edu/~gmark/chi08-mark.pdf>
10. <https://time.com/3858309/attention-spans-goldfish/#~:text=span%20dropped%20from-,12%20seconds,-to%20eight%20seconds>
11. www.arxiv.uz



PSIXOLINGVISTIK JIATLARNING INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Abubakirovan Shahrizoda Dilmurod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti talabasi

E-mail: Shaxrizoda381@gmail.com

+998944442409

Ilmiy rahbar: Hazratqulova Ezoza Ismat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning dolzarbligi psixolingvistik omillarning ingliz tili o'qitish jarayonidagi o'rnini aniqlash va tavsiflashga qaratilganlidadir. Shuningdek psixolingvistik aspektlarning nafaqat o'zlashtirilgan bilimlarga ta'sir ko'rsatishi hamda ularning real hayotda qanday qo'llanilishiga ham ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tish joiz demakdir. Psixolingvistika tilshunoslikning boshqa sohalariga qaraganda yangi yo'naliш hisoblansa-da, ta'lim jarayonida muhim rol o'yndaydi

Kalit so'zlar. Psixolingvistika, psixofiziologik nutq shakllanishi, psixolingvistik jihatlar, til ishlab chiqarish, tilni tushunish, tilni o'zlashtirish.

Abstract. The relevance of this article lies in identifying and describing the role of psycholinguistic factors in the process of teaching the English language. It is also worth noting that psycholinguistic aspects not only influence the knowledge acquired but also play an important role in how this knowledge is applied in real-life situations. Although psycholinguistics is considered a relatively new field compared to other areas of linguistics, it plays a significant role in the educational process.

Key words. psycholinguistics, psychophysiological speech formation, psycholinguistic aspects, language production, language comprehension, language acquisition.

KIRISH.

Til --- bu g'oyalarni ifodalash vositasidir. Fikr esa mantiqda o'r ganiladi. Grammatika kategoriyalari mantiqiy kategoriyalarni ifodalaydi. Mantiq va grammatikaning uyg'unlashishi fikr va tilni birgalikda tasvirlaydi.

Psixolingvistika — bu nutq shakllanishini, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro aloqasida o'r ganadigan fan bo'lib, psixologiya va tilshunoslikning sintezi natijasida paydo bo'ldi. Psixolingvistika insonning nutq faoliyatining modelini va psixofiziologik nutq shakllanishini ishlab chiqadi va ularni psixologik tajribalar orqali o'r ganadi.



Tadqiqot manbasiga ko'ra, psixolingvistika tilshunoslikka yaqin bo'lib, tadqiqot usullari jihatidan psixologiyaga ham yaqin. Bu o'zaro bog'liq tajribalarni, masalan, "semantik differential" va boshqa tajriba metodlarini qo'llaydi. Psixolingvistikada bir qator amaliy masalalar ko'rib chiqiladi, ular orasida ona tilini, ayniqsa, chet tilini o'rgatish; bolalar bog'chasidagi nutq tarbiyasi va nutq terapiyasi masalalari; miya nutq markazlarining kasallikkleri klinikasi; nutq ta'siri masalalari va boshqalar mavjud.

ADABIYOTLARGA OID MA'LUMOTLARNI KO'RIB CHIQISH.

Til psixologiyasi yoki psixolingvistika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar olimlarga til va nutqning aqliy jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Psixolingvistika tufayli biz ta'limni yondashuvning yangi va innovatsion usullariga ega bo'ldik. Talaba qanday qilib muloqotning ahamiyatini tushunish haqida o'ylashni necha marotaba to'xtaydi? Til muvaffaqiyatsiz bo'lganda, bu insonlarga kognitiv, hissiy va xulq-atvor darajasida ta'sir qiladi. Shuning uchun, tilni o'rghanishga har xil sohalar bag'ishlangan va uni yaxshiroq tushunishga intilmoqda. Ushbu sohalardan biri til psixologiyasi yoki psixolingvistikadir.[1]

"Kommunikatsiya jamiyatga olib keladi, ya'ni tushunishga, yaqinlikka va o'zaro qadrlashga," deydi Rollo May.

Psixolingvistika boshqa sohalardan ko'plab jihatlarga ko'ra farq qiladi va uning ingliz tilini o'qitishdagi roli bebafo. Til psixologiyasi tilga yondashuvi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Qisqacha aytganda, psixolingvistik yondashuv quyidagilardan iborat:

- Tilni qanday ishlatishni o'rghanish. Psixolingvistika bilimdan foydalanish va unga bog'liq psixologik jarayonlarga e'tibor qaratadi.
- Amaliyot. Psixolingvistika bilimni til ifodalarini yaratish va tushunishda qanday qo'llashni o'rghanadi.
- Harakat jarayonlari. Shuningdek, bu til instinktiyini harakatga keltiruvchi narsalarga ham diqqat qaratadi.

Boshqa fanlar tilni o'rghanishsa ham, ular uni boshqa nuqtai nazardan o'rghanishadi. Masalan, sotsiolingvistika sotsiokulturaviy va lingvistik hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rghanadi. Tilshunoslik o'z navbatida tilning kelib chiqishi, rivojlanishi va tuzilishini o'rghanadi. Tilshunoslikni psixolingvistikada bilan chalkashtirib yuborish oson. Javier Frias Kond "Psixolingvistikaga kirish" nomli maqolasida farqlarni oson tushuntirgan. Mana, ba'zi farqlar ro'yxati:

- Tushunish. Tilshunoslikda eng kichik akustik birlik — bu fonema.
- Ishlab chiqarish. Tilshunoslikda tadqiqot mavzusi ideal ona tilidir. Psixolingvistikada esa, mavzu haqiqiy nutq egasidir.
- Tadqiqot obyekti. Tilni ishlatish nuqtai nazaridan, tilshunoslik eng nafis, rasmiy va abstrakt tilni ishlatishga intiladi. Psixolingvistika esa amaliy prinsiplarni o'rghanadi. Umuman olganda, tadqiqotchilar ikki yo'nalishli yondashuvni qo'llaydi:



• Kuzatish. Tadqiqotchilar lingvistik xulq-atvor testlarini qo'llaydi. Shuningdek, ular tegishli kundalik vaziyatlar bo'yicha ma'lumotlar to'playdi.

• Eksperimental. Ilmiy usulni qo'llagan holda, psixolingvistik tadqiqotchilar laboratoriya tajribalari ham o'tkazadilar. Psixolinguistika, ko'pgina ikkinchi avlod fanlari kabi, qat'iy metodologiyani ta'qib qiladi. Natijada, ushbu sohadagi tajribalar sezilarli darajada rivojlangan va amalga oshirilishga moyil. Psixolingvistik tadqiqotlar doimiy ravishda yangi savollarni keltirib chiqaradi va keyingi o'rghanishlarga rag'batlantiradi. Bu juda faol soha. Psixolingvistik ko'nikmalar odamlar bilan muloqot qilishda juda muhimdir, chunki ular odamlar tomonidan muloqot qilishda ishlatiladi. Ular:

- Til
- G'oyalar
- Yozish
- Tinglashni tushunish
- Serial eshitish xotirasi
- Vizuallikni tushunish
- Vizuallikni bog'lash
- Og'zaki ifoda
- Harakat ifodasi
- Vizuallik integratsiyasi
- Eshitish integratsiyasi
- Vizual-motorli serial xotira

Ushbu psixolingvistik ko'nikmalarni baholash uchun olimlar kognitiv psixologiya tadqiqotlari paradigmasiga tayanadilar, bu paradigma mentalist, funksionalist, hisoblash va cheklovchi nazariyalar asosida ishlab chiqilgan.[2][3]

TAHLIL VA NATIJALAR.

Psixolingvistika zamонавиҳи соҳа bo'lib, айни шу фан тифайли биҳ инсон тилинг мурakkabligini to'liq tushunishга yaqinlashmoqdamiz. Har kuni биҳ одамлarning tilni ishlab chiqarish, kodlash ва muloqot qilish vositasi sifatida qanday ishlatayotganini tobora yaxshiroq tushunmoqdamiz. Til orqali odamlar o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini o'zlari va boshqalar uchun tushunarli tarzda ifodalaydilar.

Shuning uchun tilshunoslik fanlari mantiq va psixologiya bilan bog'liqdir, chunki ular fikrlash qonunlarini va inson ruhiyatini o'rghanadigan fanlardir. Tilshunoslik va psixologiya o'rtasidagi muammo psixolingvistikada o'rghaniladi. Psixolingvistika tilshunoslik va psixologiyani bog'lab, inson nutqining qonuniyatlarini o'rghanadigan yangi соҳа hisoblanadi. Biror tilning lug'atini yodlash mumkin, ammo so'zlarning sonini yodlab bo'lmaydi. Aslida, odamda ma'lum bir tajriba va qoidalarga asoslanib, cheksiz miqdordagi yangi jumlalarni yaratish qobiliyati mavjud.

Psixolingvistika fanining asosiy maqsadlaridan biri bu qobiliyatning rivojlanish qonunlarini ilmiy asosda o'rghanishdir. Til inson fikrini amalga oshirish vositasi



bo‘lgani uchun, u inson madaniyatining rivojlanishi va mavjudligini ta‘minlaydi va barcha qoidalarni ifodalash vositasi hisoblanadi. Tilni tushunish sohasidagi bir savol — odamlar qanday qilib jumlalarni o‘qish jarayonida tushunadilar (ya’ni, jumla qayta ishlash). Eksperimental tadqiqotlar jumlalarni tushunish arxitekturasi va mexanizmlari haqida bir nechta nazariyalar ishlab chiqqan. Ushbu nazariyalar odatda jumlada mavjud bo‘lgan ma’lumot turlariga bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi mazmun yaratishda foydalanishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar va bu ma’lumotlarning o‘quvchiga qanday taqdim etilishi haqida bo‘ladi. "Modulli" va "interaktiv" qayta ishlash kabi masalalarda nazariy bo‘linmalar mavjud.[4]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, til psixologiyasi yoki psixolingvistika bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar olimlarga til va nutqning aqliy jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Psixolingvistika tufayli biz ta’limga yangi va innovatsion yondashuvlarni topdik. Psixolingvistika zamonaviy soha hisoblanadi. Ushbu soha tufayli biz inson tilining murakkabligini to‘liq tushunishga yaqinlashmoqdamiz. Har kuni biz odamlarning tilni ishlab chiqarish, kodlash va muloqot qilish vositasi sifatida qanday ishlatayotganini tobora yaxshiroq tushunmoqdamiz. Psixolingvistlar so‘zlarning, jumlalar va nutqning ma’nosini ongda hisoblash va aks ettirishni o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Garnham A. Psixolingvistika, Routledge, 1985, 269 bet
 2. Field J., “Psixolingvistika: Talabalar uchun manba”, Routledge, 2003.
 3. Levelt, W. J. M. (Willem J. M.), Psixolingvistikaning tarixi: Pre-Xomsky davri. Oksford: Oksford Universiteti Noshirligi. 1938- (2013) / ISBN 9780191627200. OCLC 824525524.
 4. Pronko, N. H. (May 1946). "Til va psixolinguistika: Sharh." Psixologik bulletin. 43 (3): 189–239. doi: 10.1037 / h0056729. ISSN 1939-1455. PMID 21027277
- ### LANILGAN ADABIYOTLAR:



TASK-BASED TEACHING ENGLISH LANGUAGE FOR DEVELOPING NINTH-GRADE STUDENTS' SPEAKING SKILLS

Rahmatullayeva Ruhshona Zafar qizi

Student, Chirchik state pedagogical university

E-mail: rrahmatullayeva7@gmail.com +998971130719

Scientific advisor: Khazratkulova Eziza Ismat qizi

Teacher, Chirchik state pedagogical university

Abstract. Task-Based Teaching (TBT) has emerged as an innovative approach to language learning, focusing on engaging students in meaningful, real-life tasks to enhance their communication skills. This article explores the application of TBT in developing the English speaking skills of ninth-grade students, addressing its impact, implementation strategies, challenges, and benefits. The findings suggest that TBT significantly improves students' fluency, accuracy, and confidence, offering an effective alternative to traditional methods.

Key words: Task-Based Teaching, traditional teaching methods, methods, oral communication, speaking skills, case study.

Introduction: English speaking skills are crucial for academic and professional success in today's globalized world. For ninth-grade students, developing oral communication skills lays a foundation for higher education and career opportunities. However, traditional teaching methods, characterized by rote memorization and grammar-focused lessons, often fail to produce confident and fluent speakers. Task-Based Teaching (TBT) addresses these shortcomings by emphasizing the completion of real-world tasks that encourage active use of the target language.^[5] This article examines how TBT can effectively improve ninth-grade students' speaking skills, fostering their confidence, motivation, and practical language use.

Theoretical Framework 1. What is Task-Based Teaching? Task-Based Teaching is a communicative approach where learners engage in tasks requiring them to use the target language for meaningful communication.^[2] Examples include role-plays, problem-solving activities, and group discussions.

2. Core Principles of TBT: Focus on Meaning:^[1] Tasks prioritize understanding and expressing ideas over grammatical precision. Authenticity: Activities simulate real-life scenarios to make learning practical. Learner-Centered



Approach: Students take an active role in their learning, fostering autonomy and engagement.[3]

3. Relevance to Ninth-Grade Learners:

At this stage, students benefit from methods that balance language structure with communication. TBT aligns with their cognitive and social development, encouraging collaboration and critical thinking.[4]

Implementation of TBT in the Classroom: 1. *Task Design:* Tasks should be appropriate for the students' proficiency level and interests. For ninth-grade students, examples include: Conducting interviews with classmates about hobbies. Planning a group trip and presenting it to the class. Debating current topics like environmental issues or technology use. 2. *Task Stages:* Pre-Task: Teachers introduce the task, provide relevant vocabulary, and set clear instructions. During Task: Students perform the task in pairs or groups, using English as the medium of communication. Post-Task: Students reflect on their performance, and teachers provide feedback on language use and strategies for improvement.[5] 3. *Classroom Management Strategies:* Managing large, mixed-ability classrooms can be challenging. Teachers can: Group students based on complementary skill levels. Use visual aids and multimedia for clearer instructions. Monitor and support students during tasks without interrupting communication.

Benefits of TBT for Ninth-Grade Students. 1. Improved Speaking Skills: TBT encourages fluency, pronunciation, and confidence by allowing students to practice speaking in low-pressure, meaningful contexts.[5]

2. Enhanced Motivation: Tasks that reflect real-life situations make learning enjoyable and relevant, increasing student engagement.[2]

3. Better Retention of Language: Active participation in tasks leads to deeper understanding and retention of vocabulary and structures compared to passive listening or memorization[3].

Challenges and Solutions. 1. Mixed-Ability Classrooms: Challenge: Differing proficiency levels may hinder task participation. Solution: Use differentiated tasks or scaffold activities with additional support for less advanced learners. 2. Limited Resources: Challenge: Lack of multimedia tools or supplementary materials. Solution: Teachers can adapt tasks to use readily available resources, such as printed handouts or online tools. 3. Resistance to Change: Challenge: Teachers accustomed to traditional methods may find TBT unfamiliar. Solution: Provide professional development and peer support to build confidence in implementing TBT.



Case Study: Implementing TBT in Ninth-Grade Classrooms. A quasi-experimental study was conducted with 78 ninth-grade students, divided into control and experimental groups. The experimental group was taught using TBT, while the control group followed traditional methods. Pre- and post-tests assessed speaking skills, and a satisfaction survey measured students' attitudes toward the approach.

Findings: The experimental group demonstrated significant improvements in fluency, accuracy, and vocabulary use. Students expressed high satisfaction, citing increased confidence and enjoyment in learning English. Challenges included occasional difficulty in understanding instructions, which was mitigated through teacher guidance.

Recommendations for Teachers

Integrate TBT Gradually: Start with simple tasks before progressing to more complex activities. **Provide Clear Instructions:** Use visuals, examples, and repetition to ensure students understand the task objectives. **Encourage Collaboration:** Group activities promote peer learning and reduce the pressure on individual students. **Emphasize Feedback:** Constructive feedback after tasks helps students refine their speaking skills.

Conclusion. Task-Based Teaching offers a dynamic and effective approach to developing ninth-grade students' English speaking skills. By focusing on real-world tasks, TBT addresses the limitations of traditional methods, fostering fluency, confidence, and motivation. While challenges exist, they can be overcome with proper planning and support.^[1] TBT has the potential to transform language learning experiences, preparing students for real-life communication and lifelong success.

REFERENCES:

1. Ellis, R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press. 2003 387 pages
2. Nunan, D. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press. 2004 222 pages
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Method in Language Teaching. Cambridge University Press. 2001 270 pages
4. Skehan, P. A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford University Press. 1998 324 pages
5. Willis, J., & Willis, D. Doing Task-Based Teaching. Oxford University Press. 2007 296 pages



DIOGRAMMALAR YARATISHDA “PLOTLY” MODULIDAN OQILONA FOYDALANISH

Gulmurodov Muhiddin Raxmatulla o'g'li
BuxDU 2-kurs KIDTM talabasi

Annotatsiya: Maqolada pydroid dasturida pythonning modullaridan foydalanish usullari, jumladan plotly moduli yordamida diogrammalar yaratish haqida ma'lumot keltirilgan. Plotlydagi Scatter(), Bar(), Histogram(), Box(), Pie(), Scatter3d(), Heatmap() kabi diagramma ko'rinishlarini qo'llash misollar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: Dasturlash, Python, Pydroid, Plotly, Python modullari, 3d grafika, diogramma.


Plotly - bu Pythonda ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishning kuchli vositasi. Uning bir qator afzalliklari dasturchiklar orasida mashhur qildi. Bularga interaktivlikni misol qilishimiz mumkin. Plotly syujetli interaktivni yaratadi, ularni real vaqtda kattalashtirish, panorama qilish va sozlash mumkin. Plotly oddiy chiziqli diogrammalardan tortib murakkab 3D chizmalar, xaritalar va issiqlik xaritalarigacha bo'lgan ko'plab turdag'i uchastkalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu uni turli xil vizualizatsiya ehtiyojlari uchun ko'p qirrali vositaga aylantiradi. Uni Pandas va NumPy kabi boshqa mashhur Python kutubxonalari bilan oson birlashtirish mumkin. Bu jadval ma'lumotlaridan yoki murakkab matematik hisob-kitoblardan grafiklarni chizish jarayonini soddalashtiradi. Plotly ham onlayn, ham oflayn rejimda ishlashi mumkin. Onlayn rejimda grafiklarni Plotly veb-platformasi orqali nashr qilish va almashish mumkin, oflayn rejimda esa grafiklar kompyuterda saqlanadi va internetga ulanmasdan foydalanish mumkin. Intuitiv API va yaxshi hujjatlashtirilgan kutubxona bilan Plotly foydalanuvchilarga dasturlash bo'yicha keng bilimga muhtoj bo'lmasdan osongina uchastkalarni yaratish va sozlash imkonini beradi. U syujetlarni sozlash uchun ko'plab variantlarni taqdim etadi, bu foydalanuvchilarga o'ziga xos talablari va uslubiga mos keladigan noyob vizualizatsiya yaratish imkonini beradi. Ushbu afzalliklar Plotlyni oddiy va murakkab interaktiv ma'lumotlar vizualizatsiyasini yaratish uchun tanlangan vositalardan biriga aylantiradi.

Hayotimiz tez sur'atda o'sib bormoqda. Har kun yangiliklarsiz o'tmaydi. Bu o'zgarishlarni raqamlarda ifodalash biroz mushkul. Lekin, biz diogrammalar orqali




raqamli ma'lumotlarni oson vizuallashtiramiz. Diogrammalar – ustunli, doiraviy, chiziqli va h.k ko'rinishlarga ega.

Biz bu diogrammalarini “Python” dasturlash tilida mobil “Pydroid – 3” ilovasi bilan quyidagicha amalga oshiramiz. Diogrammalarni hosil qilish uchun “Plotly” moduli qo'llaniladi. Modulni ilovaga o'rnatamiz. Buning uchun ilovaning yuqori chap tomonidagi tugmani bosamiz.




1-rasm. Pydroid bosh oynasi




2-rasm. Pydroid menyusi

1-rasmdagi tugma bosilganda 2-rasmdagi oyna paydo bo'ladi. Bu yerdan “Pip” nomli menu bandiga o'tamiz. Yangi oyna ochilganda esa kiritish maydoniga “pip install plotly” deb yozamiz va “Install” tugmasini bosamiz(3-rasm). Agar pydroid eskirgan bo'lsa play marketdan yangi ko'rinishini o'rnatish taklif qilinadi. Uni o'rnatish tugmasi orqali yangiab olamiz(4-rasm).



3-rasm. Modullarni o'rnatish.
yangilash



4-rasm. Pydroidni play marketdan



Sozlamalar amalga oshirilgach, modulni import qilib olamiz:

import plotly.graph_objects as go

-Ixtiyoriy o'zgaruvchiga diagramma qism nomlarini ro'yxat qilib kiritamiz:

x = ['Matiz', 'Tiko', 'Damas', 'Nexia', 'Gentra']

Ixtiyoriy o'zgaruvchilarga diagramma qism sonlarini ro'yxat qilib kiritamiz:

y = [72, 50, 82, 90, 30, 58, 59, 60, 58, 60, 59]

z=[15,12,19,26,82,79,26,58]

-Ixtiyoriy o'zgaruvchiga diagramma qism ranglarini ro'yxat qilib kiritamiz:

rang=["red", "green", "blue", "yellow"]

-“trace” operatori yordami ularni bog’laymiz

Plotly kutubxonasida har xil turdag'i diogrammalar uchun bir necha trassa turlari (yo'l turlari) mavjud.

go.Scatter() – nuqta va chiziqlardan tashkil topgan chiziqli grafikalar nuqtali grafikalar va boshqa turdag'i grafikalarni yaratish uchun ishlatiladi.

trace = go.Scatter(x=x, y=y, marker=dict(color=rang))

go.Bar() – vertikal yoki gorizontal ustunlar bilan ustunli grafikalar (bar jadvallar) yaratish uchun ishlatiladi

trace = go.Bar(x=x, y=y, marker=dict(color=rang))

go.Histogram() – raqamli ma'lumotlarni intervallar bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatadigan histogrammalarni yaratish uchun ishlatiladi.

trace = go.Histogram(x=x, marker=dict(color="red"))

go.Box() – median, kvartil va emissiya kabi ma'lumotlar to'plamining asosiy statistik ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi diogrammalarini yaratish uchun ishlatiladi.

trace1= go.Box(y=y, name='1-sinf',marker=dict(color='blue'))

trace2 = go.Box(y=y, name='2-sinf', marker=dict(color='red'))

go.Pie() – umumiylar to'plamidagi har bir toifa ulushini ko'rsatadigan doiraviy diogrammalar yaratish uchun ishlatiladi

trace = go.Pie(labels=x, values=y, hole=0.4)

go.Scatter3d() - uchta kordinata o'qi yordamida uch o'lchovli grafikalar yaratish uchun ishlatiladi.

trace = go.Scatter3d(x=x, y=y, z=z, marker=dict(color='red', size=10))

go.Heatmap()-panjara ustidagi rangli kvadratchalar ko'ribishidagi ma'lumotlarni issiqlik xaritalarini ishlatish uchun ishlatiladi.

trace = go.Heatmap(z=z)

Yuqoridagi diogrammalarimizni maketini tayyorlash uchun “layout” operatoridan foydalanamiz.



```
layout = go.Layout(title='Ustunli diogrammaga misol', xaxis=dict(title='X-oqi'), yaxis=dict(title='Y-oqi'))
```

Grafikani hosil qilish uchun esa “Figure” operatoridan foydalanamiz:


```
fig = go.Figure(data=[trace], layout=layout)
```

```
fig.show()
```

Grafikamiz “Chrome” internet sayti orqali namoyish qilinadi.

Natija:

```
import plotly.graph_objects as go
x = ['Matiz', 'Tiko', 'Damas', 'Nexia',
'Gentra']
y = [72, 50, 82, 90,
30, 58, 59, 60, 58, 60, 59]
z=[15, 12, 19, 26, 82, 79, 26, 58]
rang=['red', 'green', 'blue', 'yellow']
trace = go.Bar(x=x, y=y,
marker=dict(color=rang))
layout = go.Layout(title='Ustunli
diogrammaga misol',
xaxis=dict(title='X-oqi'),
yaxis=dict(title='Y-oqi'))
fig = go.Figure(data=[trace],
layout=layout)
fig.show()
```



Diagrammalar yaratish uchun Plotly modulidan foydalanish juda kuchli vosita bo'lishi mumkin, ayniqsa bir nechta muhim jihatlarga e'tibor qaratilsa. Bunda asosan quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Diagramma turini tanlash

- ma'lumotlaringizni taqdim etish uchun eng mos keladigan diagramma turini tanlang (chiziqli grafikalar, ustunli diagrammalar, doiraviy diagrammalar va boshqalar).



- Xususiyatlari: har bir diagramma turining xususiyatlarini hisobga oling. Masalan, doiraviy diogrammalar butun qismlarni ko'rsatish uchun, chiziqli grafikalar esa tendentsiyalarni ko'rsatish uchun javob beradi.

2. O'qlarni sozlash

- ma'lumotlarni yaxshiroq talqin qilish uchun o'q diapazonlarini avtomatik ravishda sozlashingiz yoki ularni qo'lda o'rnatish lozim.

3. Ranglar palitrasи

- aniq ajralib turadigan va tomoshabinlarga grafik elementlarini osongina ajratishga yordam beradigan ranglarni tanlash kerak.

- agar ranglar ma'lum bir qiymatga ega bo'lsa, bu grafikdan aniq ekanligiga ishonch hosil qiling (masalan, salbiy qiymatlar uchun qizil, ijobiy qiymatlar uchun yashil).

4. Izohlar va ma'lumotlar yorliqlari

- qo'shimcha ma'lumot yoki tushuntirish berish uchun ma'lumotlar izohlari va imzolaridan foydalanish lozim.

- Haddan tashqari yuklanishdan saqlanisj kerak. Grafikni toza va oson anglash uchun juda ko'p izoh qo'shmang.

5. Interaktivlik

- Plotly maslahatlar, masshtablash va Pan kabi interaktiv elementlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu xususiyatlardan maqsadga muvofiq foydalanilganligiga va qiymat qo'shilishiga ishonch hosil qilish kerak.

- foydalanuvchilar ma'lumotlarni samarali tekshirishlari uchun interaktivlikni boshqarish parametrlariga e'tibor bering.

6. Displeyni optimallashtirish

- ko'rsatilgan platformaga qarab optimal o'lcham va grafik hajmini tanlash kerak.

- grafik turli xil qurilmalar va ekranlarda yaxshi ko'rsatilganligiga ishonch hosil qilish lozim.

7. Maxsus Sozlamalar

- Plotly xususiylashtirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Grafiklar ehtiyojlarga va uslubga mos kelishi uchun bundan foydalanish kerak.

- oldindan o'rnatilgan mavzulardan foydalanishni ko'rib chiqish yoki grafikalar loyihaning umumiy vizual uslubiga mos kelishi uchun mualliflik uslubini yaratish lozim.

8. Ishlash



- katta ma'lumotlar to'plamlari uchun grafiklarni yuklash va tez ishslash uchun optimallashtirish usullaridan foydalanish maqsadli.

- murakkab grafikalarni qayta-qayta ko'rsatishda ishslashni yaxshilash uchun keshlashdan foydalanish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Plotlydan oqilona foydalanish diagramma turini tanlash, vizual elementlarni sozlash, ishslashni optimallashtirish va interaktiv imkoniyatlardan foydalanish kabi tafsilotlarga e'tibor berishni talab qiladi. Ushbu tavsiyalarga amal qilib, jozibali va ma'lumotli grafikalar yaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilkhomovna K. N. HOW TO CREATE PROFESSIONAL VIDEO CONTENT IN PYTHON //World scientific research journal. – 2024. – Т. 26. – №. 1. – С. 108-112.
2. Ilxomovna K. N., Akmalovna I. M. USING THE PROBLEM-BASED DESIGN METHOD IN TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 1-7.
3. Камалова Н. И., Бадриддинова Г. М. СИМБИОЗ ЦИФРОВОГО И АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВЗАЙМНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И МАТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 167-171.
4. Камалова Н. И. и др. OPTIMAL KOD YOZISH SAN'ATI //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 39-43.
5. Камалова Н. И., Азимов И. И. ИНТЕГРАЦИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЯ С ФИЗИКОЙ: ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ И ЗАДАЧИ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 79-85.
6. Камалова Н. И., Самадов А. Ш. РОЛЬ СЕМИОТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 82-87.
7. Ilxomovna K. N. PYTHON DASTURLASH TILINI O 'QITISHDA INTELLEKT TESTLARIDAN FOYDALANISH //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 274-278.
8. Kamalova Nilufar Ilhomovna, & Khamidov Sanjar Khakimovich. (2022). MEDIA ENVIRONMENTS FOR TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(08), 9–13. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BNHGK>
9. Nilufar K. DASTURLASH TILLARINI O 'QITISHDA INTELLEKT TESTLARINI INTEGRATSIALASH //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 37-45.



ULOQ-KO'PKARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHAVANDOZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Mamishev Olim Erkinovich

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: olimerkinovich@gmail.com Tel: +99890 978 88 91

Annotatsiya Milliy harakatli o'yinlar xalqimizning madaniy merosi hisoblanad. Milliy o'yinlar hayotiyligi, xalq tomonidan yaratilganligi kattayu – kichik bolalar tomonidan sevilib o'ynalishi, jamoaviyligi bilan ajralib turadi. Uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchilarda asosan chidamlilik, muvozanat va tezlik kabi jismoniy sifatlar yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar. Milliy o'yinlar, uloq-ko'pkari, jismoniy sifatla, chidamlilik, tezlik, epchillik, vatan mudofaasi.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У НАЕЗДНИКОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ УЛОК-КУПКАРИ

Мамишев Олим Эркинович

Студент Научно-исследовательского института физического воспитания
и спорта, г. Чирчик

E-mail: olimerkinovich@gmail.com Tel: +99890 978 88 91

Аннотация Национальные экшн-игры считаются культурным наследием нашего народа. Национальные игры отличаются своей жизненностью, тем, что они созданы народом, в них с любовью играют дети и взрослые. Те, кто практикует Козерог-Купкари, должны иметь хорошо развитые физические качества, такие как выносливость, баланс и скорость.

Ключевые слова. Национальные игры, козерог, физические качества, выносливость, скорость, ловкость, защита Родины.

METHODS FOR DEVELOPING PHYSICAL QUALITIES IN HORSEMEN ENGAGED IN ULOQ-KUPKARI

Olim Erkinovich Mamishev

Student of the Scientific Research Institute of Physical Education and Sports,
Chirchik City

Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro rezolyutsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Ular, davlatlarga huquqiy asos yaratish, shaffoflikni oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarurdir. Faqat shunday hollardagina, korrupsiyaga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda korrupsiyaga qarshi kurashish ma`lum davlat mansobdorlarining yoki davlat organlarining vazifasi emas balki, jamiyat aholising barcha qatlami uchun muqaddas burch hisoblanadi desak adashmagan bo`lamiz. Barchamiz birdek harakat qilsak ko`zlangan maqsadga erishamiz. Korrupsiya jamiyatni o`ldiradigan, lekin o`zi yashab qoladigan virusga o`xshaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida korrupsiya va poraxo‘rlik haqida to‘xtalib, “Jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o‘tishdir”³ deb ta’kidlab o‘tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
- 2 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil, 82-bet
- 3 I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston. 1997-yil.
4. United Nations. (2003). "United Nations Convention against Corruption". New York: United Nations.

³ I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqaror shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T:O‘zbekiston. 1997-yil.



5. European Commission. (2014). "EU Anti-Corruption Report". Brussels: European Union.
6. OECD. (2016). "Recommendation of the Council on Anti-Corruption". Paris: OECD Publishing.
7. Transparency International. (2020). "Global Corruption Report". Berlin: Transparency International.



YOSHLAR VA MAFKURA: TA'LIM VA TARBIYANING RO'LI

YOUTH AND IDEOLOGY: THE ROLE OF EDUCATION AND EDUCATION
МОЛОДЕЖЬ И ИДЕОЛОГИЯ: РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtmoiy fanlar”

kafedrasi o‘qituvchisi - Isroilov Davron

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar va
san’at fakulteti “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari va
huquq ta’lim yo’nalishi” 4-bosqich 402-guruh talabasi*

Yusupjonova Zaynab

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar va mafkura o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ta’lim va tarbiyaning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Yoshlar, jamiyatning kelajagi sifatida, mafkuraviy ta’sirlarga juda sezgir bo‘lib, ularning ongida mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va o‘z qadriyatlarini anglash muhim ahamiyatga ega. Maqolada ta’lim va tarbiyaning yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi ro‘li, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’siri ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar asosida yoshlarning mafkuraviy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularni rivojlantirish yo‘llari haqida xulosa keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, mafkura, ta’lim, tarbiya, mafkuraviy immunitet, axborot texnologiyalarini, ijtimoiy faoliyat.

Abstract: This article analyzes the relationship between youth and ideology, as well as the role of education and training in this process. Young people, as the future of society, are very sensitive to ideological influences, and independent thinking, critical approach and awareness of their own values are important in their minds. The article examines the role of education and upbringing in the formation of ideological immunity of young people, as well as the influence of modern information technologies. Based on the obtained results, a conclusion is made about the factors affecting the ideological development of young people and ways of their development.

Key words: Youth, ideology, education, upbringing, ideological immunity, information technologies, social activity.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь молодежи и идеологии, а также роль образования и обучения в этом процессе. Молодежь, как будущее общества, очень чувствительна к идеологическим воздействиям,



и в их сознании важно независимое мышление, критический подход и осознание собственных ценностей. В статье рассматривается роль образования и воспитания в формировании идеологического иммунитета молодежи, а также влияние современных информационных технологий. На основании полученных результатов делается вывод о факторах, влияющих на мировоззренческое развитие молодежи и путях ее развития.

Ключевые слова: Молодежь, идеология, образование, воспитание, идеологический иммунитет, информационные технологии, социальная активность.

Kirish

Yoshlar va mafkura o‘rtasidagi munosabatlar zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar, o‘zlarining shaxsiy va ijtimoiy hayotida qarorlar qabul qilishda ko‘plab mafkuraviy ta’sirlarga duch keladilar. Ularning fikrlash tarziga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida ta’lim va tarbiya alohida o‘rin tutadi. Ta’lim jarayoni yoshlarni nafaqat bilim bilan ta’minlaydi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga va mafkuraviy immunitetini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, tarbiya jarayoni yoshlarning axloqiy qadriyatlarini, madaniy merosini va milliy an’analarini o‘rganishlariga imkon yaratadi. Ushbu maqolada ta’lim va tarbiyaning yoshlar mafkurasi shakllanishidagi ro‘li tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Yoshlar va mafkura masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni yoshlarning fikrlash tarzini va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, A. Karimov (2020) o‘z tadqiqotida ta’lim tizimining yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. U, shuningdek, ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni o‘rganishning ahamiyatini ko‘rsatadi.¹ Bundan tashqari, B. Rahmonov (2021) ta’lim va tarbiyaning yoshlar ongida ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishdagi rolini o‘rganadi. U, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy faoliyoti oshirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llash

¹ Karimov, A. (2020). Ta’lim tizimining yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi o‘rni. O‘zbekiston ta’limi va tarbiysi, 45(3), 12-18.



zarurligini ta'kidlaydi.² Shuningdek, C. Murodov (2022) axborot texnologiyalarining yoshlari mafkurasi shakllanishidagi ta'sirini tahlil qiladi. U, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlarning yoshlari ongiga ta'sirini o'rghanadi va bu jarayonda ta'lim muassasalarining rolini alohida ta'kidlaydi.³ Zamonaviy axborot texnologiyalari, masalan, interaktiv ta'lim platformalari, onlayn kurslar va multimedia materiallar, o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilar turli xil resurslardan foydalanib, o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin. Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilar o'zlarining o'qish tezligi va uslubiga mos ravishda ta'lim olishlari mumkin. Masalan, onlayn platformalarda o'quvchilar o'z qobiliyatlariga qarab individual dasturlarni tanlaydilar. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu texnologiyalar yordamida ta'lim yanada samarali, qiziqarli va individualizatsiyalangan bo'lmoqda. Biroq, bularning barchasi to'g'ri qo'llanilishi va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Natijalar

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Ta'limning ahamiyati: Ta'lim jarayoni yoshlarning fikrlash tarzini rivojlantirishda va ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni o'rGANISH va mustaqil fikrlashga o'rgatish zarur.
2. Tarbiya va ijtimoiy faollik: Tarbiya jarayoni yoshlarning axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda va ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarni ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga rag'batlantirish ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytiradi.
3. Axborot texnologiyalari: Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi yoshlarning fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish, ularni manipulyatsion axborotlardan himoya qilishga yordam beradi.

² Rahmonov, B. (2021). Ta'lim va tarbiyaning yoshlari ongida ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishdagi roli. Yoshlar va jamiyat, 34(2), 25-30.

³ Murodov, C. (2022). Axborot texnologiyalarining yoshlari mafkurasi shakllanishidagi ta'siri. Innovatsion ta'lim, 29(1), 50-55.



Xulosa

Yoshlar va mafkura o‘rtasidagi munosabatlar ta’lim va tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayoni yoshlarning fikrlash tarzini rivojlantirish, mafkuraviy immunitetini shakllantirish va ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarbiya jarayoni esa yoshlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda va ularni ijtimoiy hayotga jalb etishda muhimdir. Shuning uchun, ta’lim va tarbiyaning yoshlar mafkurasi shakllanishidagi ro‘lini kuchaytirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish zarur. Axborot texnologiyalarini ta’limda samarali qo‘llash o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishga yordam beradi. Biroq, bu texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq ishlatish muhimdir.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2020). Ta’lim tizimining yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi o‘rni. O‘zbekiston ta’limi va tarbiyasi, 45(3), 12-18.
2. Rahmonov, B. (2021). Ta’lim va tarbiyaning yoshlar ongida ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishdagi roli. Yoshlar va jamiyat, 34(2), 25-30.
3. Murodov, C. (2022). Axborot texnologiyalarining yoshlar mafkurasi shakllanishidagi ta’siri. Innovatsion ta’lim, 29(1), 50-55.
4. Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). O‘zbekiston-2030 strategiyasining yangi o‘zbekistonni barpo etishning kafolati. Ustozlar uchun, 24(1), 204-207.
5. Dilshodbek o‘g’li, I. D. (2023). O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati. Journal of new century innovations, 29(4), 115-120.



BANKLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
i.f.f.d. **Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o‘g‘li**
Mirobidova Dono Toir qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Bank ishi fakulteti talabasi
mirobidovaldona@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va uning roli tahlil qilinadi. Raqamli bank xizmatlari, blokcheyn, sun’iy intellekt va big data texnologiyalari mijozlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xavflarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank sektorida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’milashning muhim belgisi hisoblanadi.

Kalit So‘zlar: Banklar, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy texnologiyalar, raqamli bank xizmatlari, blokcheyn, sun’iy intellekt, big data, innovatsiyalar, xavflarni boshqarish, raqobatbardoshlik.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga muvofiq 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini belgilaydi.

Bank, boshqa har qanday muassasa kabi, o‘z kelajagi haqida aniq bir yo‘nalishga va innovatsion tehnologiyalariga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda, marketing tadqiqotlari bankning tadbirkorlik faoliyati strategiyasi va dasturini shakllantirishda asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ularni qo‘llash banklarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishi va uning takomillashigaolib



keladi. Raqamli bank xizmatlari va mobil ilovalar mijozlarga qulaylik yaratib, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, vaqtin tejadi va operatsion jarayonlarni tezlashtiradi. Sun'iy intellekt va big data texnologiyalari orqali banklar mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilib, moslashtirilgan xizmatlar taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa mijozlar bankning doimiy mijozi bo'lishini oshiradi va banklarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi xavfsizlikni ta'minlash, tranzaktsiyalarni tez va ishonchli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalar yordamida risklarni boshqarish tizimi kuchayib, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, zamонавиу texnologiyalarning bank tizimiga integratsiyasi banklarning samaradorligini oshirish va raqobatni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar nomlanishi	Joriy holati	Maqsad:		
			2021-yilga	2023-yilga	2025-yilga
1.	Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	15 foiz	17 — 20 foiz	35 — 40 foiz	60 foiz
2.	Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	28 foiz	30 — 40 foiz	60 foiz	70 foiz
3.	Yetarli tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik xorijiy investorlarni jalb qilish	-	-	3	3
4.	Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati	41 foiz	41 — 45 foiz	45 — 50 foiz	50 — 60 foiz
5.	Nobank kredit tashkilotlari aktivlarining kredit tashkilotlari aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	0,35 foiz	0,5 — 0,7 foiz	1 — 1,5 foiz	4 foiz
6.	Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	58 foiz	50 — 55 foiz	45 — 50 foiz	40 — 45 foiz
7.	Bank aktivlarining YAIMga nisbati	53 foiz	53-54 foiz	54-55 foiz	55 foizdan ko'p
8.	Bank depozitlarining YAIMga nisbati	18 foiz	19 — 21 foiz	22 — 24 foiz	25 — 27 foiz



Zamonaviy texnologiyalar banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda katta potentsialga ega. Raqamli transformatsiya, masalan, mobil bank xizmatlari va onlayn platformalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Banklar texnologiyalarga katta investitsiyalar kiritishga majbur bo'lishadi, va bu holat kichik va o'rta banklar uchun moliyaviy yukni oshirishi mumkin. Shuningdek, raqamli xavfsizlik va maxfiylik masalalari, ayniqsa blokcheyn texnologiyalarini joriy etishda, hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolar sifatida qolmoqda.

Sun'iy intellekt va big data texnologiyalarining potensiali juda yuqori, ammo ularni muvaffaqiyatli joriy etish uchun yuqori malakali mutaxassislar va mos infratuzilma zarur. Big data yordamida banklar mijozlarning istaklari va xattiharakatlarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etishi mumkin, ammo bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda yuzaga keladigan texnik va axborot xavfsizligi masalalari hal etilishi kerak.

Blokcheyn texnologiyasi esa banklarning operatsiyalarini tez va ishonchli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, uning keng miqyosda qabul qilinishi uchun global miqyosda bir xil standartlar va qonunlar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, texnologiyalarni joriy etishdan oldin banklar ichki tizimlarini va jarayonlarini modernizatsiya qilishni talab etadi, bu esa vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin. Bu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun banklar yaxshi strategiya ishlab chiqishlari, xodimlar malakasini oshirishlari va texnologiyalarning xavfsizlik jihatlarini mustahkamlashlari kerak.

Xulosa

Ushbu tezis banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llash va uning ahamiyatini o'rganishga ega bo'lib, uning natijalari banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Raqamli bank xizmatlari, sun'iy intellekt, big data va blokcheyn texnologiyalari banklarning operatsiyalarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, ayniqsa, xavfsizlik, investitsiyalar va malakali kadrlar tayyorlash masalalari, banklarning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llash banklarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy



samaradorlikni yuqori darajaga ko‘tarmoqda. Banklar o‘z faoliyatlarini raqamlashtirishni davom ettirishi va texnologik innovatsiyalarni joriy etishni davom ettirishi kerak, shu bilan birga xavfsizlik va qonuniy masalalar bo‘yicha ehtiyyotkorlikni oshirishi lozim. Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar banklar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishda eng muhim vositaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida PF-5992 sonli qaror 12.05.2020-yil
2. Antunes J., Hadi-Vencheh A., Jamshidi A., Tan Y., and Wanke P. "Bank efficiency estimation in China: DEA-RENNNA approach," Ann Oper Res, vol. 315, no. 2, pp. 1373-1398, (2022);
3. Bank va moliya jurnali – 2020, Moliya va Bank ishi jurnali 13-14-betlar
4. «Bozor, pul va kredit jurnali N_1-12 2023-yil 32-34 betlar.
5. International Economics theory & policy eleventh edition global edition Paul R. Krugman Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University. 2023-y, 102-106-betlar
6. <https://cbu.uz/uz/monetary>



UDK: 636.5: 637.

TOVUQLARDA KALSIY FOSFOR ALMASHINUVI BUZULISHLARINI PROFILAKTIKASI

Hamraqulov N.Sh. – kichik ilmiy xodim v.f.f.d. (PhD).
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotastiya: Parrandachilik fermer xo'jaliklari sharoitida tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzulishlari turli murakkab patologiyalar bilan kechib, ularda umumiylar holsizlanish, ishtahaning pasayishi, tuxum qo'yishning kechikishi, tuxumga kirganlarida tuxum vaznining kichik bo'lisi, yupqa po'choqli va po'choqsiz bo'lisi, tuxum shakli va og'irligining o'zgarishi kabi anomaliyalar, tovuqlarning bir-birini cho'qishi, patlarini yeishi kabi belgilar bilan kechadi. Tuxum mahsuldorligining 16-18 % ga kamayishi, tovuqlar tana vaznining o'rtacha 350-550 grammga kamayishi orqali xo'jaliklarga katta zarar yetkazadi.

Аннотация: В условиях птицефабрик нарушения кальциево-фосфорного обмена у кур-несушек сопровождаются различной комплексной патологией, в том числе общей слабостью, снижением аппетита, задержкой яйцекладки, низкой массой яиц при выводе, тонкой скорлупой и пороком. Характеризуется такими аномалиями, как отсутствие гнезд, изменение формы и массы яиц, склевывание курами друг друга, поедание их перьев. Снижение яичной продуктивности на 16-18%, снижение живой массы цыплят в среднем на 350-550 г наносят большой ущерб хозяйству.

Summary: In the conditions of poultry farms, disorders of calcium-phosphorus metabolism in laying hens are accompanied by various complex pathologies, including general weakness, loss of appetite, delayed oviposition, low egg weight during hatching, thin shells and defect. It is characterized by such anomalies as the absence of nests, changes in the shape and weight of eggs, pecking each other by chickens, eating their feathers. A decrease in egg productivity by 16-18%, a decrease in the live weight of chickens by an average of 350-550 g cause great damage to the economy.

Kalit so'zlar: tovuq, tuxum, anomaliya, kalsiy, fosfor, mineral, vitamin, rastion, tuxum yo'li, gemoglobin, umumiyl oqsil, premeks.

KIRISH. Parrandachilik xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan talabni qondirishda muhim manba bo`lib xizmat qilib kelmoqda. Parrandalarning genetik potensial darajasida mahsuldorligini ta`minlashning nazariy asoslari va profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda veterinariya sohasi oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda malakatimizda yuqori mahsuldor parranda zotlari va krosslari mavjud. Ammo parrandalarni saqlash va



oziqlantirishdagi kamchiliklar: sifatsiz ozuqalar, rasion tarkibida vitamin, makromikroelementlar, kalsiy fosfor nisbati, almashinuv energiya miqdori va boshqa biologik faol qo'shimchalarning yetishmasligi ularning mahsuldorligi, kasallikkarga chidamliligining pasayishi, ularda kalsiy, fosfor almashinuvi buzulishlariga sabab bo'ldi.

Mavzuning dolzarbligi. Tovuqlarda uchraydigan kalsiy, fosfor almashinuvi buzulishi kasalliklari ko'picha omaviy tusda kechib, texnalogik jarayonning izdan chiqishi yani ozuqani bir tekis taqsimlanmasligi, mahsulot yetishtirish uchun xarajatlarning ko'payishi, tana vazni va mahsuldorlikning pasayishi hisobiga xo'jalikga katta zarar yetkazadi.

Tovuqlar organizmida kalsiy, fosfor almashinuvining buzulishi bilan kechadigan kasallik asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kalsiy, fosfor yetishmovchilagini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biri.

Tovuqlarda tuxum hosil bo'lishining anomaliyalari va tuxum po'stlog'i hosil bo'lishining kamchiliklari asosan ularda kalsiy va fosfor almashinuvining buzilishlari va keyingi o'rinda boshqa ikkilamchi omillar (tovuqlarning yuqumli bronxit, pulloroz, prostogonimoz, tuxum hosil qiluvchi organlarning travmatik ta'sirlanishi) oqibatida rivojlanadi [2,8].

Tuxum po'chog'ining asosiy yetishmovchiligi uning yumshoq bo'lishi hisoblanadi. Buning asosiy sababi ohak moddasi yetishmovchiligi yoki uni hazmlanishining buzilishi hisoblanadi. Har bir tuxum po'chog'ining tarkibida o'rtacha 1,5-2,5 g kalsiy bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, bir yilda 200 ta tuxum tug'ilsha uning tarkibidagi kalsiy moddasi o'rtacha 400-500 gr ni tashkil etadi. Tovuqlar organizmida tuxum hosil bo'lishidan tashqari boshqa fiziologik jarayonlar uchun ham kalsiy muhim. Masalan suyaklarning qattiqligi va ularning tarkibidagi zahira uchun [6,8, 10].

Tuxum po'chog'ining yumshab qolishini yoki kalsiy fosfor almashinuvi buzilishlarini profilaktika qilishda tovuq organizmiga talab etiladigan miqdorlarni hisobga olish lozim. Masalan: tovuqlarni birinchi marta tuxum berish davrida ularning organizmida kalsiyning miqdori tekshirilganda me'yorlarga nisbatan 20% gacha kamayganligi aniqlangan [6].

Parrandalar organizmida bir vaqtning o'zida bir necha mineral va vitamin moddalarning yetishmovchiliklari aralsh patologiya holda, noaniq belgilar bilan kechadi. Shuning uchun modda almashinuvi buzulishi bilan kechadigan kasallikkarga



tashxis qo`yishda klinik tekshirishlar va oziqa rasionini zootexnikaviy tahlil qilish bilan bir qatorda qon tahlili va patologoanatomik tekshirishlar o`tkazilishi talab qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi: Tuxum yo`nalishidagi tovuqlarda kalsiy, fosfor almashinuvi buzulishlarining tarqalishi, iqtisodiy zarari, sabablari, simtom va sindiromlari, qonning kimyoviy va tuxumning morfologik o`zgarishlarni o`rganish, kasallikga erta tashxis qo`yish va samaradorligi yuqori bo`lgan guruhli profilaktika usulini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etishdan iborat.

Tekshirishlar joyi, ob`ekti va uslublari. Ilmiy tekshirish ishlari Samarqand viloyati Pasdarg`om tumanidagi «Darg`omparranda fayz» MChJda saqlanadigan tovuqlarida olib borildi.

Laborator tekshirishlar Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti Mikrobiologiya va Vetsanitariya va urchitish potologiyasi laboratoriylarida, qonning kimyoviy ko`rsatkichlari “Samarqand diagnostika” MCHJ laboratoriyasida bajarildi.


Tekshirishlar ob`ekti sifatida 24 haftalik tovuqlar olinib, ulardan har birda 35 boshdan iborat bo`lgan 4 ta guruh tuzildi. Barcha tajriba guruhlardagi tovuqlarning saqlash sharoitlari bir xil bo`lib, nazorat guruhdagi tovuqlar xo`jalik rasionida oziqlantirildi, birinch tajriba guruhdagi tovuqlarga xo`jalik rasioniga 10mg/kg dan xitozan gidroksiapatit va Introvit A+BC preparatdan 4000 litr suvga 1 litr dan 7 kun oralig`i bilan qo`shib berildi. Ikkinci tajriba guruhdagi tovuqlarga xo`jalik rasioniga qo`shimcha 1 tonna yemga 1 kg “maydalangan tuxum po`chogi” va Introvit A+BC preparatdan 4000 litr suvga 1 litr dan 7 kun oralig`i bilan qo`shib berildi. Uchinchi tajriba guruhdagi tovuqlarga xo`jalik rasioniga qo`shimcha 100 kg yemga 1 kg NOVAMIX (minerallarga boy premekis) dan qo`shib berildi. Tajribalar 40 kun davom etirildi. Tajriba va nazorat guruhdagi tovuqlarda klinik va gematologik tekshirishlar har 20 kunda bir marotaba o`tkazildi.

Tovuqlardan olingan qon namunalaridagi gemoglobin (gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (Orto-toluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiyoqsil (Refraktometrik usul), umumiyoq kalsiy (B.P. Вичев, Л.В. Каракашов usuli), anorganik fosfor (Пулс bo`ycha B.F. Кромыслов ва Л.А. Кудрявцева usuli), tovuqlar rasionining to`yimligi В.Далакян ва. б. (1980), А.П. Калашников, В.И. Фисинина, Н.И. Клейменова, (2003) bo`ycha aniqlandi. Tuxumning sifat ko`rsatkichlari organoleptik usulda, tuxumning og`irligi electron FEJ-1000B tarozisida o`lchash yordamida aniqlanildi. Ilmiy tekshirishlar natijasida olingan barcha raqamlar E.K. Меркуьева uslubi bo`ycha matematik ishlovdan o`tkazilib, o`rtacha arifmetrik qiymat, o`rtacha arifmetrik qiymatning kvadratik



og`ishi, o`rtacha arifmetrik qiymat xatosi, o`zgaruvchanlik koeffisenti, ishonchlilik mezoni aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Xo`jalik rasiyonning 32% ni bug`doy doni, 22,85% ni makka doni, 18% ni soya shroti, 11,34 % ni kungabiqar shroti, 2,26 % o'simlik yog'i, 0,65 % monokalsiyfosfat, 10,4 % izvestnyak, 2,5% premiks tashkil etdi (1-rasm). Rasionning umumiy to'yimliliqi 100 g omuxta em tarkibida 264,0 kkal almashinuv energiyasi, 16 % xom protein, 5,1 % kletchatka, lizin 0,70, metionin 0,30 %, treonin 0,42%, kalsiy 3,1 %, fosfor 0,64 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Xo`jalik ratsionni tarkibi

Rasionda oziqlantirish me'yorlariga nisbatan almashinuv energiyasining 26 kkal ga, kalsiyni 0,5% ga, fosforni 0,06% ga, retinolni 300 HB, xolekalstiferolni 80 HB ga, tokoferolni 0,2 mg ga, askorbin kislitasini 0,5 mg ga, xolin xlorid (B_4) 5 mg ga yetishmasligi aniqlandi. Rasiondagagi (100 g omuxta em tarkibidagi) kalsiyning me'yorlarga nisbatan 3,3 % ga, almashinuv energiyasini 6 kkal ga, xom proteinni 0,2%ga, fosforning 14,3% ga, retinolni 315 HB, xolekalsiferolni 83 HB ga, tokoferolni 0,15 mg ga, askorbin kislitasini 0,2 mg ga, xolin xlorid (B_4) 3 mg ga yetishmasligi aniqlandi. Tajribalardagi tovuqlar rasionining balanslashmaganligi, rasiondagagi oziqalar tarkibidagi xolekalsiferol, tokoferol, makromikroelementlarning miqdorlarining yetishmasligi ularda kalsiy-forfor almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi.

Tajribalarning boshida barcha guruhlardagi tovuqlarda umumiy holsizlanish, toj va sirg`alarning oqarishi, gipodinamiya, ishtahaning pasayishi, o'sishdan qolish,



oriqlash, mahsuldarlikning pasayishi, terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi, patlarning tushishi kabi kalsiy-fosfor yetishmovchiliga xos bo'lgan klinik belgilar kuzatildi. Bu klinik belgilar tajribalarning oxirida faqat nazorat giruhdagi tovuqlarning 30,7-53,8% da umumiyliz holsizlanish, toj va sirg`alarning oqarishi, gipodinamiya, ishtahaning pasayishi, o'sishdan qolish, oriqlash, mahsuldarlikning pasayishi, terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi va 12-16% tovuqlarda patlarning tushishi kabi kalsiy-fosfor yetishmovchiliga xos bo'lgan klinik belgilar kuzatildi (2-rasm).

1-tajriba guruhdagi tovuqlarda yuqorida ko`rsatilgan belgilar deyarli kuzatilmadi.



2021/6/17 13:08

2-rasm. Kalsiy va fosfor almashinuvi buzulishlarining klinik belgilari

Tekshirishlar boshidagi ko`rsatkichlarga nisbatan tajribalarning oxirga kelib birinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o'rtacha 21,1 g/l ga, glyukozani 1,38 mmol/l ga, umumiyliz oqsil 9,4 g/l ga, umumiyliz kalsiyni 2,06 mmol/l ga, anorganik fosforni 0,75 mmol/l ga, ikkinchi tajriba guruhda gemoglobin miqdorining o'rtacha 3,2 g/l ga, glyukozani 0,72 mmol/l ga, umumiyliz oqsil 3,6 g/l ga, umumiyliz kalsiyni 1,5 mmol/l ga, anorganik fosforni 0,28 mmol/l ga, uchinchi tajriba guruhda gemoglobin miqdorining o'rtacha 6,2 g/l ga, glyukozani 1,21 mmol/l ga, umumiyliz oqsil 6,6 g/l ga, umumiyliz kalsiyni 1,16 mmol/l ga, anorganik fosforni 0,43 mmol/l ga ko`payishi xarakterli bo'ldi. Bu esa tovuqlarda tuxum berish davrida qonning biokimyoviy ko`rsatkichlarini fiziologik meyorlarga nisbatan o`zgarib borishidan dalolat beradi.

Nazorat guruhdagi tovuqlarda qonning ko`rsatkichlari tekshirishlarning boshidagi ko`rsatkichlarga nisbatan tekshirishlarning oxirga kelib gemoglobin miqdorining o'rtacha 10,6 g/l ga, glyukozani 0,28 mmol/l ga, umumiyliz oqsil 2,3 g/l



ga, umumiyl kalsiyini 0,37 mmol/l ga, anorganik fosforni 0,26 mmol/l ga kamaishi bilan xarakterli bo'ldi va bu tuxum berishning kamayishi, suyaklarning yumshab qolishi va sinuvchan bo'lishi kabi kalsiferol yetishmovchiligi belgilari kuzatilishga olib keladi. (1-jadval).

**Tajribadagi tovuqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari n=35
1-jadval**

T/R	Tekshirishlar vaqtি	Gemoglobin g/l	Glyukoza mmol/l	Umumiyl Oqsil g/l	Umumiyl kalsiy mmol/l	Anorganik fosfor mmol/l
	Meyorda	89-129	4.8-6,2	42,8-52,6	2,5-4,5	1,5-2,5
1-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	95,3±1,5	4,72±0,5	42,8±0,12	2,42±0,3	1,68±0,1
	20-kunda	98,2±1,1	5,41±0,2	48,8±0,18	3,85±0,5	1,84±0,2
	40-kunda	116,4±1,3	6,1±0,1	52,2±0,36	4,48±0,2	2,43±0,2
2-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	96,4±1,6	4,74±0,2	44,6±0,20	2,86±0,6	1,62±0,2
	20-kunda	97,1±1,2	5,38±0,3	46,9±0,21	3,65±0,5	1,76±0,3
	40-kunda	99,6±1,5	5,46±0,1	48,2±0,32	4,36±0,3	1,90±0,1
3-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	94,2±1,8	4,62±0,2	43,6±0,12	2,12±0,1	1,48±0,2
	20-kunda	96,2±1,4	5,41±0,1	45,8±0,24	3,15±0,1	1,64±0,3
	40-kunda	100,4±1,4	5,83±0,5	50,2±0,44	3,28±0,2	1,91±0,1
4-nazorat guruhi	Tajribalar boshida	97,2±2,4	4,70±0,3	42,6±0,23	2,25±0,4	1,64±0,1
	20-kunda	92,5±2,1	4,66±0,5	42,8±0,14	2,01±0,3	1,57±0,4
	40-kunda	86,6±2,5	4,42±0,4	40,3±0,20	1,88±0,2	1,38±0,1

Organoleptik tekshirishlar o'tkazish orqali tuxum mahsuldarligi, tuxumlarning og`irligi, tuxumdagи o`zgarishlar, tuxum po`chog`ining qalin yupqaligi, tuxum po`chog`ining og`irligi, uning tarkibdagi kalsiy muddasi, tovuqlarning kunning qaysi vaqtida tuxum qilishi aniqlandi.

Tajribadagi tovuqlarda organoleptik tekshirishlar natijalariga ko'ra tajribalar boshdagи ko`rsatkichlarga nisbatan tajribalar oxirga kelib birinchi tajriba guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldarligi o`rtacha 13,4 % ga, tuxumini og`irligi o`rtacha 7,8 gr ga, tuxum po`chog` 0,98 gr ga, tuxum po`chog`dagi kalsiyining miqdori o`rtacha 0,74 gr ga, yupqa po`choqli tuxumlar tajribalarning boshda 3,2 % ga uchragan, ikkinchi tajriba guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldarligi o`rtacha 11,8 % ga, tuxumini og`irligi o`rtacha 4,8 gr ga, tuxum po`chog`ining og`irligi o`rtacha 1,48 gr ga, tuxum po`chog`dagi kalsiyining miqdori o`rtacha 0,67 gr ga, yupqa po`choqli tuxumlar tajribalarning boshda 3,6 % ga uchragan, uchinchi tajriba guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldarligi o`rtacha 10,5 % ga, tuxumini og`irligi o`rtacha 3,9 gr ga, tuxum po`chog`ining og`irligi o`rtacha 0,7 gr ga, tuxum




po`chog`dagi kalsiyning miqdori o`rtacha 0,58 gr ga, yupqa po`choqli tuxumlar tajribalarning boshda 3,4 % ga uchragan bo`lsa tajribalar oxirda tovuqlarda yupqa po`choqli tuxumlar tug`ulishi uchramadi bu tovuqlar organizmiga kalsiy va fosforni yetarlicha ta`minlanganligidan dalolat beradi. (2-jadval).

Tajribadagi tovuqlar tuxumining organoleptik ko`rsatkichlari n=35.

2-jadval

T/R	Tovuqlar yoshi	Tuxum mahsuldorligi (%)	Tuxumning og`irligi (gr)	Yupqa po`choqli tuxumlar (%)	Tuxum po`chog`ning og`irligi (gr)	Tuxum po`chog`dagi kalsiy miqdori (gr)
	Meyorda	84-92	62,5-64,5	1-2	6,2-6,4	2,2-2,6
1-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	76,9±0,1	55,4±0,5	3,2	5,23±0,2	1,84±0,1
	20-kunda	84,5±0,3	58,6±0,4	2,2	5,45±0,1	2,92±0,2
	40-kunda	90,3±0,2	63,2±0,5	-	6,21±0,4	2,58±0,1
2-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	74,6±0,2	56,6±0,2	3,6	4,64±0,3	1,89±0,01
	20-kunda	79,5±0,1	58,2±0,4	1,9	5,49±0,1	2,45±0,2
	40-kunda	86,4±0,3	61,4±0,5	-	6,12±0,2	2,56±0,2
3-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	77,8±0,5	56,3±0,1	3,4	5,32±0,2	1,87±0,1
	20-kunda	84,5±0,3	59,7±0,2	1,7	5,67±0,3	2,38±0,3
	40-kunda	88,3±0,2	60,2±0,3	-	6,02±0,4	2,45±0,1
4-tajriba guruhi	Tajribalar boshida	77,0±0,2	56,8±0,4	3,7	5,37±0,1	2,01±0,2
	20-kunda	72,2±0,1	52,2±0,5	4,4	5,21±0,3	1,92±0,3
	40-kunda	68,5±0,1	49,4±0,2	4,8	4,88±0,2	1,86±0,2

Nazorat guruhdagi tovuqlarning tuxum mahsuldorligi o`rtacha 8,5 % ga, tuxumini og`irligi o`rtacha 7,4 gr ga kamayganligi aniqlandi, tuxum po`chog`ining og`irligi o`rtacha 0,49 gr ga, tuxum po`chog`dagi kalsiyning miqdori o`rtacha 0,15 gr ga kamayganligi kuzatildi (4-rasm) va yupqa po`choqli tuxumlar 4,8 % ga tug`ulishi uchradi (4-rasm), bu belgilar kalsiy-fosfor yetishmovchiligidagi xos bo`lgan belgilar bo`lib mahsuldorlikga va mahsulot sifatiga ta`sirqilib inkubatorga tuxumlarni saralashda aksariyat qismi qo`yilmasligiga olib keladi (2-jadval).



Tajribalardagi tovuqlarning tuxum mahsuldorlik ko`rsatkichlari.



3.Rasm. Fiziologik tuxum va yupqa po`choqli tuxumlar



4.Rasm. Kalsiysi kam bo`lgan tuxum

Xulosalar: -Mahsuldor tovuqlarda kalsiy va fosfor yetishmovchiliklarining asosiy sabablari tovuqlarning yoshi, fiziologik holati va mahsuldorlik bosqichlarni hisobga olmagan holda rasionni meyorlashtirilmaganligi va to`yimligi past rasionda boqish, rasionlar tipi, tarkibi va to`yimligi bo`ycha tovuqlar organizmi ehtiyojlarini to`liq qondirilmasligi, sifati va to`yimligi past donlardan tayyorlangan omixta yemlarning berilishi va rasionga qo`shiladigan minerallarni talab darajasida qo`shilmasligi asosiy etiologik omillar kasiy, fosfor yetishmovchiligiga sabab bo`ladi.

- Tekshirishlar natijasida tovuqlarning 30,7-53,8% da umumiyliz holsizlanish, toj va sirg`alarning oqarishi, gipodinamiya, ishtahaning pasayishi, o'sishdan qolish,



oriqlash, mahsuldorlikning pasayishi, terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi va 12-16% tovuqlarda patlarning tushishi kabi belgilar kalsiy-fosfor almashinuvi buzulishlari belgilar bilan xarakterlandi.

- Mahsuldor tovuqlarda kalsiy, fosfor almashinuvi buzulishlari qondagi gemoglobin miqdorining o'rtacha 10,6 g/l (gipogemoglobinemiya) gacha, glyukozani 0,28 mmol/l (gipoglikemiya) ga, umumiyoq oqsil 2,3 g/l gacha, umumiyoq kalsiyni 0,37 mmol/l (gipokalsiemiya) ga, anorganik fosforni 0,26 mmol/l (gipofosforemiya) ga kamaishi bilan xarakterli bo'ldi va bu tuxum berishning kamayishi, suyaklarning yumshab qolishi va sinuvchan bo'lishi kabi kalsiferol yetishmovchiligi belgilari kuzatilishga olib keladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Норбоев Қ.Н., Бакиров Б.Б., Эшбуриев Б.М. Ҳайвонларнинг ички юқумсиз касалликлари. Дарслик. Самарқанд 2020. 485 б.
2. Душейко А.А. Витамин А обмен и функции. – Киев: “Наукова Думка”, 1989. – С. 244-245.
3. Бакиров Б.Б., Рўзиқулов Н.Б. Ёш ҳайвонлар ва паррандаларнинг юқумсиз касалликлари. Ўқув услубий қўлланма. Самарқанд, 2018.
4. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. Учебное пособие. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005.
5. Солистева К.М. Справочник по кормовым добавкам. – Минск: “Ураджай”. 1990. – С. 18-40.
6. Коровин Р.Н. Справочник ветеринарного врача птицеводческого предприятия. Т. 2. – Санкт – Петербург. 1995. – С. 36-42.
7. Бессарабов Б.Ф. Клинические и лабораторные методы исследования сельскохозяйственной птицы при незаразных болезнях [Текст]/ Б.Ф. Бессарабов, Л.В. Клетикова, С.А. Алексеева, Н.К. Сушкива. - М.: ЗооВетКнига. - 2014. С. 180-204.
8. Бессарабов Б.Ф. Незаразные болезни птицы. - М.: Колос. 2007. -175 с.
9. Eshbo'riyev, SB, & Qarshiyev, UT (2022, dekabr). Quyonlarda kalsiy-fosfor almashishi buzilishini oldini olishda probiotiklarning samarali. Xalqaro pedagoglar konferensiyasi materiallarida (3 - jild, 72-78-betlar).
10. Eshburuiyev, S. B., Qarshiyev, U. T., & Yusupova, Z. (2022). Prophylaxis of mineral metabolism disorders in rabbits. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 399-402.
11. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 243-248.
12. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(11), 308-314.



MYSQL, MSSQL, POSTGRESQL VA SQLITE - AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

*Farg'ona davlat universiteti amaliy matematika va informatika kafedrasи o'qituvchisi
Mamatqodirov Mamatmadali*

maxam.uz.1976@gmail.com

Farg'ona Davlat Universiteti 3-kurs talabasi

*Sobirova Dilnozabonu Botirali qizi
dilnozabonusobirova@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimlari – MySQL, MSSQL, PostgreSQL va SQLite – ning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Har bir tizimning o'ziga xos funksional imkoniyatlari va cheklovlar yoritilgan. Maqolada turli ma'lumotlar bazalarini tanlashda uchraydigan real hayotiy misollar va savollar yordamida o'quvchining loyihasi uchun mos tizimni aniqlashiga yordam beruvchi tavsiyalar berilgan. MySQL, MSSQL, PostgreSQL va SQLite tizimlarining texnik va iqtisodiy jihatlari, shuningdek, xavfsizlik, masshtablanuvchanlik va qulaylik mezonlari bo'yicha solishtirilgan. Ushbu maqola dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar, IT mutaxassislar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, loyiha ehtiyojlariga qarab to'g'ri tanlov qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: MySQL, MSSQL, PostgreSQL, SQLite, ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimlari, afzalliklar, kamchiliklar, ochiq kodli tizimlar, litsenziyalash siyosati, tranzaksiyalar boshqaruvi, ma'lumot xavfsizligi, SQL algoritmlari, masshtablanuvchanlik, mobil ilovalar uchun baza, korporativ boshqaruv tizimlari, ma'lumotlar tahlili, resurs talabchanlik, loyiha moslashuvchanlik, xavfsizlik va ishonchlik, boshqaruv tizimlarini tushunish.

Аннотация

В этой статье анализируются преимущества и недостатки современных систем управления базами данных – MySQL, MSSQL, PostgreSQL и SQLite. Каждая система имеет свои собственные функциональные возможности и ограничения. В статье даны рекомендации, которые помогут читателю определить подходящую систему для своего проекта, используя реальные примеры и вопросы, с которыми он сталкивается при выборе различных баз



данных. Сравнивались технические и экономические аспекты систем MySQL, MSSQL, PostgreSQL и SQLite, а также Критерии безопасности, масштабируемости и удобства использования. Эта статья предназначена для разработчиков программного обеспечения, ИТ-специалистов и специалистов по работе с базами данных и поможет сделать правильный выбор в зависимости от потребностей проекта.

Ключевые слова: MySQL, MSSQL, PostgreSQL, SQLite, системы управления базами данных, преимущества, недостатки, системы с открытым исходным кодом, политика лицензирования, управление транзакциями, безопасность данных, алгоритмы SQL, масштабируемость, база данных для мобильных приложений, системы корпоративного управления, анализ данных, ресурсоемкость, гибкость проекта, Безопасность и надежность, понимание систем управления.

Annotation

This article analyzes the advantages and disadvantages of modern database management systems – MySQL, MSSQL, PostgreSQL and SQLite. The specific functional capabilities and limitations of each system are covered. The article provides recommendations that help the reader determine a suitable system for his project using real-life examples and questions found in the selection of various databases. The technical and economic aspects of MySQL, MSSQL, PostgreSQL and SQLite systems have been compared, as well as the safety, scalability and accessibility criteria. This article is designed for software developers, IT professionals, and professionals working with the database to help you make the right choice based on the needs of the project.

Keywords: MySQL, MSSQL, PostgreSQL, SQLite, database management systems, advantages, disadvantages, open source systems, licensing policy, transaction management, data security, SQL algorithms, scalability, base for mobile applications, enterprise management systems, data analysis, resource requirements, project flexibility, security and reliability, understanding management systems.

Zamonaviy axborot texnologiyalari davrida ma'lumotlar har qanday biznes va texnologik tizimning asosiy omiliga aylandi. Har bir tashkilot va dasturiy ta'minot loyihasi o'z ma'lumotlarini boshqarish uchun ishonchli, samarali va xavfsiz ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimiga (DBMS) tayanadi. MySQL, MSSQL, PostgreSQL va SQLite kabi tizimlar turli ehtiyojlar va talablar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Ammo,



ushbu tizimlardan qaysi biri sizning loyihangiz uchun eng mos? Sizning tanlovingiz loyihaning hajmi, xavfsizlik talablari va foydalanishning qulayligiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu maqolada biz ushbu DBMS tizimlarini har tomonlama ko‘rib chiqamiz, ularning texnik imkoniyatlari va cheklovlar haqida fikr yuritamiz, shuningdek, real hayotiy misollar va savollar yordamida o‘quvchini tanlov haqida o‘ylashga undaymiz.

1. MySQL: soddaligi kuchmi yoki cheklovmi?

MySQL ochiq kodli va tezkor ishlov berish imkoniyati bilan mashhur. Bu tizim kichik va o‘rta hajmdagi loyihalar uchun mos keladi. MySQL o‘rnatish va sozlash jarayonida oddiy bo‘lib, uni keng tarqalgan veb-loyihalar uchun ishlatish qulay.

Afzalliklari: MySQLning tezkor ishlov berish va oson o‘rnatilishi kichik loyihalar uchun ideal. Boshqa tizimlarga nisbatan arzon va keng hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Kamchiliklari: Murakkab tranzaksiyalarni boshqarishda zaifliklari mavjud. Xavfsizlik masalalarida ham ba’zi cheklovlargacha ega. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishslashda samaradorligi pasayadi.

Kichik onlayn do‘kon yoki blog yaratmoqchi bo‘lsangiz, MySQL yaxshi tanlokdir. Lekin, katta hajmdagi moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi tizimlarda u yetarli bo‘lmaydi.

2. MSSQL: xavfsizlik narxi qanchalik yuqori?

Microsoft SQL Server, odatda, yirik korporatsiyalar va tizimlar uchun mo‘ljallangan. MSSQL, katta hajmdagi ma'lumotlar bazalari bilan ishslashda ishonchli va xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu tizim korporativ talablar uchun mukammal.

Afzalliklari: Yirik kompaniyalar uchun mo‘ljallangan tizim bo‘lib, xavfsizlikni ta'minlashda yuqori darajada ishonchlikni taklif etadi. Tranzaksiyalarni samarali boshqaradi va Microsoft mahsulotlari bilan mukammal integratsiya qilish imkonini beradi.

Kamchiliklari: Litsenziyalashning yuqori narxi va resurslarga talabchanligi kichik loyihalar uchun muammo bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilar uchun maxsus bilim talab etadi.

Yirik bank tizimlari va global kompaniyalar MSSQLdan foydalanadi. Ammo, kichik bizneslar uchun bu tizim juda qimmat va resurs talab qiluvchi bo‘lishi mumkin.

3. PostgreSQL: zamonaviy funksionallik va murakkablik

PostgreSQL - bu yuqori darajadagi funksionallikni taklif etadigan, ochiq kodli ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimi bo‘lib, ko‘plab ilg‘or funksiyalarni o‘z ichiga



oladi. Bu tizim juda murakkab va katta hajmdagi, murakkab ma'lumotlar bilan ishlash uchun mosdir.

Afzalliklari: JSON, GIS kabi zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, kuchli tranzaksiyalarni boshqarish va yuqori darajadagi ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatlari mavjud.

Kamchiliklari: O'rnatish va sozlash murakkab bo'lishi mumkin. Shuningdek, resurslarga nisbatan talabchanligi kichik loyihalar uchun muammo bo'lishi mumkin.

Katta ilmiy tadqiqotlar yoki global logistika kompaniyalari PostgreSQLdan foydalanadi, chunki u murakkab ma'lumotlarni boshqarish va kengaytirilgan imkoniyatlarni ta'minlaydi. Biroq, uni kichik bizneslar uchun ishlatish murakkablikka olib kelishi mumkin.

4. **SQLite: soddalik har doim yetarlimi?**

SQLite – bu juda yengil va minimal resurs talab qiladigan ma'lumotlar bazasi boshqaruvin tizimi bo'lib, asosan mobil ilovalar yoki kichik loyihalar uchun ishlatiladi. Bu tizimning soddaligi va o'rnatish jarayonining yengilligi kichik loyihalar uchun juda qulaydir.

Afzalliklari: O'rnatishni talab qilmaydi va juda yengil tizim bo'lib, mobil ilovalar va kichik loyihalar uchun ideal tanlovdirdi. Bepul va ochiq kodli.

Kamchiliklari: SQLite katta foydalanuvchi va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda samarali emas. U xavfsizlik va ko'p foydalanuvchi qo'llab-quvvatlash masalalarida cheklovrlarga ega.

Mahalliy kafe uchun buyurtma tizimi yoki kichik mobil ilova yaratmoqchi bo'lsangiz, SQLite mukammal tanlovdirdi. Biroq, tarmoq kengaygan sari yoki ko'proq foydalanuvchilar bilan ishlash kerak bo'lsa, bu tizimning imkoniyatlari cheklangan bo'ladi.

Har bir ma'lumotlar bazasi boshqaruvin tizimi o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega. Kichik va o'rta hajmdagi loyihalar uchun MySQL va SQLite yaxshi tanlov bo'lishi mumkin, ammo murakkab va xavfsizlikni talab qiladigan tizimlar uchun MSSQL yoki PostgreSQL ko'proq mos keladi.

Loyihangizning ehtiyojlari qaysi DBMSni tanlashga yordam beradi. Tanlovingizni amalga oshirishdan oldin, kelajakdagi talablarni ham hisobga olish zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adobe Official Website Technical information and guides about Adobe XD.
Available at: <https://www.adobe.com/xd>
2. Brown, Timothy. *User Experience Design: The Future of Interactive Interfaces*. London: UX Press, 2018.
3. Kolko, Jon. *Thoughtful Interaction Design: A Design Perspective on Information Technology*. Cambridge: MIT Press, 2015.
4. Norman, Don. *The Design of Everyday Things*.
New York: Basic Books, 2013.
5. Adobe XD YouTube Channel Tutorials and best practices for Adobe XD.
Available at: <https://www.youtube.com/AdobeXD>
6. Behance and Dribbble Platforms for exploring modern design trends and professional works.



RAQAMLI FIRIBGARLAR AVJIDA

Umarov Bekzod Azizovich

*Farg'ona davlat universiteti amaliy matematika
va informatika kafedrasи o'qituvchisi
ubaumarov@mail.ru*

Mashxuraxon Mamatxalilova G'ofurjon qizi

*Farg'ona Davlat Universiteti 3-kurs talabasi
Mamatxalilovamashzuraxon0708@gmail.com*

Annotatsiya

Bugungi raqamli dunyo kundan kunga yangi tahdidlar girdobiga tushib bormoqda, firibgarlar texnologiyani o'z quroliga aylantirib, moliyaviy xavfsizligimiz va shaxsiy ma'lumotlarimizga jiddiy zarar yetkazishmoqda. Ularning mohirona tarzda topayotgan yangi firibgarlik usullari tobora murakkablashayotgan bir paytda, mashinali o'rganish (machine learning) texnologiyalari raqamli xavfsizlikni ta'minlashda muhim vositalardan biri sifatida raqamli firibgarlikka qarshi ketayotgan kurash maydoniga chiqdi.

Ushbu maqola raqamli firibgarlikning bugungi kundagi ko'rinishlari, shuningdek, ularni oldini olishda mashinali o'rganish texnologiyalarining roli haqida so'z yuritadi. Raqamli firibgarlikka qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi yoritiladi. Maqola nafaqat mavjud muammolarni ochib beradi, balki o'quvchini o'z xavfsizligini ta'minlash uchun zarur chora tadbirlarni ko'rishga undaydi.

Kalit so'zlar: Raqamli firibgarlik, Mashinali o'rganish (Machine Learning), Raqamli xavfsizlik, Firibgarlikni aniqlash, Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, Texnologik tahidilar, Ma'lumotlarni tahlil qilish, Xavfsizlik strategiyalari, Bank kartalari firibgarligi, Sun'iy intellekt, Onlayn xavfsizlik, Ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik, Raqamli savodxonlik, Ehtiyyotkorlik va ogohlilik, Xavfli veb-saytlar, Shifrlash (Encryption), Ma'lumotlar maskirovkasi, Kollektiv ma'lumotlar tahlili, Vaqtga bog'liq ketma-ketlik (Time-series data), Shuhbali tranzaktsiyalar.

Аннотация

Современный цифровой мир с каждым днем сталкивается с новыми угрозами: мошенники превращают технологии в свои инструменты, нанося серьезный ущерб нашей финансовой безопасности и персональным данным. В то время как их умело разработанные методы обмана становятся все более сложными, технологии машинного обучения выходят на арену борьбы с цифровым мошенничеством как один из ключевых инструментов обеспечения цифровой безопасности.

Данная статья посвящена современным формам цифрового мошенничества, а также роли технологий машинного обучения в



предотвращении таких угроз. Освещается эффективность современных технологий в борьбе с цифровым мошенничеством. Статья не только раскрывает существующие проблемы, но и призывает читателя принимать необходимые меры для обеспечения собственной безопасности.

Ключевые слова: цифровое мошенничество, машинное обучение, цифровая безопасность, обнаружение мошенничества, защита персональных данных, технологические угрозы, анализ данных, стратегии безопасности, мошенничество с банковскими картами, искусственный интеллект, онлайн-безопасность, безопасность социальных сетей, цифровая грамотность, осторожность и осведомленность, опасные веб-сайты., Шифрование, Данные Маскирование, Коллективный анализ данных, Данные временных рядов, Подозрительные транзакции.

Annotation

The modern digital world faces new threats every day as fraudsters turn technology into their weapon, causing significant harm to our financial security and personal data. As their cleverly devised fraudulent schemes grow increasingly sophisticated, machine learning technologies have emerged as a key tool in the battle against digital fraud and in ensuring digital security.

This article explores the current manifestations of digital fraud and the role of machine learning technologies in preventing such threats. It highlights the effectiveness of modern technologies in combating digital fraud. The article not only sheds light on existing problems but also encourages readers to take necessary measures to ensure their own safety.

Keywords: Digital Fraud, Machine Learning, Digital Security, Fraud Detection, Personal Data Protection, Technological Threats, Data Analytics, Security Strategies, Bank Card Fraud, Artificial Intelligence, Online Safety, Social Media Safety, Digital Literacy, Caution and Awareness, Dangerous Websites, Encryption, Data Masking, Collective data analysis, Time-series data, Suspicious transactions.

Sizning ham bankdagi mablag'ingiz o'g'irlanishi mumkinligini tasavvur qila olasizmi? yoki begona bir kishi sizning shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalananayotgan bo'lishi extimolinichi? Hechkimga sir emaski bugungi kunimizda bank plastik kartalaridan pul o'g'irlanishi, soxta elektron pochta va saytlarga aldanib qolish, shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy yo'llar bilan g'arazli maqsadlarda foydalinish kabi xolatlar kuzatilishi hechbirimiz uchun yangilik bo'lmay qoldi, va bu kabi xolatlar hozirgi "raqamli zamonamizda" judda xam ko'p sodir bo'lmoqda. Bu tahdidlar zamonaviy raqamli dunyoning o'ziga xos xavflaridan biridir. Ho'sh bu kabi taxdidlar sodir bo'lishi va raqamli firibgarlar qurbaniga aylanib qolishimizga nima sabab bo'lmoqda? Albatta, "extiyotsizligimiz" va raqamli texnologiyalar haqida yetarli tasavvur va bilimlarga ega bo'limganligimiz uchun, sabab sifatida faqat o'zimizni ko'rsatishimiz mumkin. Har doim ogohlilik davr talabi bo'lib kelgan,



hozirgi raqamli texnologiyalar davrida shaxsiy ma'lumotlarimiz havfsizligiga jiddiy e'tibor qaratishimiz eng muhim omillardan biridir. Firibgarlar bugungi kunda texnologiyaning eng ilg'or imkoniyatlarini qurolga aylantirib, insonlarni aldashning tobora murakkab usullarini ishlab chiqishmoqda, lekin, extiyotsizlik va "soddaligimiz" oqibatida ularning ishlarini osonlashtirib shaxsiy ma'lumotlarimizni o'z qo'llarimiz bilan ularga topshirib qo'ymoqdamiz. Barchamizga ma'lumki hozirda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigan insonlarni uchratish qiyin va biz aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali xam o'z shaxsiy ma'lumotlarimizni "o'zimiz tarqatyapmiz", bank kartalarimizni va suratlarini ko'p xollarda istalgan shaxslarga ishonib topshirmoqdamiz. Raqamli firibgarlik faqat individual foydalanuvchilarga emas, balki yirik tashkilotlarga, moliyaviy institutlarga va hatto davlat tizimlariga ham tahdid solmoqda. Har bir yangi texnologiya yangi imkoniyatlar bilan birga yangi zaifliklarni ham keltirib chiqaradi. Raqamli firibgarlikni oldini olish va unga qarshi samarali kurash muammosi bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Hozirgi kunda mashinali o'rganish (machine learning) texnologiyalari bu kurashning markazida turib, firibgarlikni aniqlash va oldini olishda innovatsion yondashuvlarni taqdim etmoqda.

Mashinali o'rganish (Machine Learning, ML) — bu sun'iy intellektning bir bo'lagi bo'lib, raqamli firibgarliklarni aniqlashda nafaqat avtomatlashtirilgan tahlillarni o'tkazadi, balki firibgarlik sxemalaridagi anomalik xatti-harakatlarni sezib, ularni oldindan bashorat qilishga yordam beradi. Mashinali o'rganish raqamli xavfsizlikda eng samarali vositalardan biri sifatida tan olinadi. Firibgarlikni aniqlashda ML real vaqt rejimida tahlil qilish orqali shubhali tranzaksiyalarni filrlash imkoniyatini beradi. Mashinali o'rganish algoritmlari, xususan, logistik regressiya, neyron tarmoqlar va qayta o'rganish usullari orqali firibgarlikni oldindan aniqlashda yuqori samaradorlikni beraoladi. Bu texnologiyalar, onlayn bank xizmatlarida tranzaksiya ma'lumotlari asosida anomaliyalarni sezish va xavfni baholash orqali firibgarliklarning oldini olishda foydalaniladi. Firibgarlikni aniqlash algoritmlari ko'pincha vaqtga bog'liq ketma-ketlik (time-series data) asosida ishlaydi. ML algoritmlari k-means clustering, autoencoderlar va random forest kabi texnikalarni qo'llash orqali katta hajmdagi ma'lumotlar orqali anomal xatti-harakatlarni ajratib ko'rsatadi. Marcos López de Prado o'zining "Machine Learning for Asset Managers" kitobida firibgarlikni aniqlash uchun "O'qituvchisiz o'qitish" metodlaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Chunki bu usullar yangi bo'lib, oldindan noma'lum bo'lgan firibgarlik sxemalarini kashf etishda samaralidir. Mashinali o'rganish texnologiyalari real vaqt rejimida ishlaydigan tizimlar yaratish uchun qo'llaniladi. Bu tizimlar bir vaqtning o'zida yuzlab va hatto minglab tranzaksiyalarni tahlil qilib, ularning qonuniyligini baholaydi. Mashinali o'rganish algoritmlari faqat firibgarlikni aniqlash bilangina cheklanib qolmasdan, balki shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun shifrlash (encryption) va ma'lumotlar maskirovkasini (data masking) ta'minlashda ham ishlatiladi. Mashinali o'rganish texnologiyalari



firibgarlikni global miqyosda kuzatish va oldini olish uchun kollektiv ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, moliyaviy institutlar o'rtasida birlashgan ma'lumotlar bazasi orqali firibgarlik sxemalarini aniqlashda katta imkoniyatlar yaratiladi. Mashinali o'rganishdagi yangi texnologiyalar, jumladan, reinforcement learning va adversarial learning, firibgarlikka qarshi kurashda juda samarali qo'llaniladi. Bu usullar firibgarlar ishlab chiqayotgan murakkab metodlarni aniqlash va ular bilan kurashda foydalaniladi. Mashinali o'rganish texnologiyalari nafaqat raqamli firibgarlikni aniqlash va oldini olishda, balki yirik tashkilotlarning xavfsizlik strategiyasini optimallashtirishda ham muhim o'rinn tutadi. U firibgarlikni tez va yuqori aniqlikda anglay olishi orqali moliyaviy yo'qotishlarni kamaytiradi va foydalanuvchilar ishonchini oshiradi.

Albatta mashinali o'qitish taqdim etayotgan texnologiyalar raqamli firibgarlardan yetarli darajada saqlanish imkonini beradi, lekin bu taqdim etilayotgan imkoniyatlar faqat tizimlar uchungina ishlaydi, xo'sh unda biz o'zimizning shaxsiy ma'lumotlarimiz, hamyonlarimiz va o'z havfsizligimizni qanday qilib ta'minlashimiz mumkin? Bu savolga javob juda oddiy va biz quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilishimiz yetarli.

1. Kuchli va murakkab parollar yaratish.
2. Ikki bosqichli tekshiruvdan foydalanish.
3. Shubxali linklardan saqlanish.
4. Raqamli savodxonlikni oshirish.

5. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy surat, joy manzillari, fuqorolik pasporti va uning ma'lumotlari, bank plastik kartasi surati yoki ma'lumotlarini ko'rsatish va tarqatish kabi xolatlarni takrorlamaslik va oshkor qilmaslik.

Yuqoridaqgi tavsiyalarga amal qilish orqali siz o'zingizni sezilarli darajada raqamli hujumlardan himoya qilasiz.

Raqamli firibgarlar zamonaviy jamiyatning ko'rinas xavfli dushmanlariga aylandi. Ular texnologiyaning imkoniyatlarini insoniyatning foydasi uchun emas, balki o'z g'arazli maqsadlariga xizmat qilish uchun yuksak mahorat bilan foydalanmoqdalar. Ammo, raqamli dunyoning cheksiz imkoniyatlari ularga qarshi qudratli qurolni ham taqdim etadi — bu zamonaviy texnologiyalar va insonning shubhasiz hushyorligi.

Firibgarlar o'z o'ljalarni qo'lga kiritishda bizning beparvoligimiz va xabardorligimizning yetishmasligidan foydalanadi. Lekin, aynan shu zaiflikni kuchli xavfsizlik strategiyalari bilan yengib o'tish mumkin. Bugungi kunning asosiy talabi — raqamli hayotimiz uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olish va bu borada bir qadam oldinda bo'lishdir.

Mashinali o'rganish texnologiyalari, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari, raqamli xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rinn tutmoqda. Ammo eng ilg'or tizimlar ham insonning e'tibori va ongli harakatlari bilan birgalikda



ishlaganda samarador bo'ladi. Firibgarlikning oldini olishning eng yaxshi usuli — ehtiyyotkorlikni odatga aylantirish va har bir shubhali vaziyatni jiddiy qabul qilishdir.

Raqamli xavfsizlik — bu faqat texnologiyalarning emas, balki har bir insonning shaxsiy mas'uliyatidir. O'zimizni himoya qilish bilan birligida, atrofimizdagi raqamli ekotizimni xavfsiz saqlash uchun ham javobgarlikni his qilishimiz kerak. Shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli firibgarlikka qarshi kurashda, biz texnologiya va hushyorlik bilan yuksak yutuqlarga erishishimiz mumkin. Shu bilan birga, raqamli dunyo nafaqat firibgarlar, balki ogoh va bilimli insonlar uchun ham cheksiz imkoniyatlar maydoniga aylanishi kerak.

Bu kurashda eng katta xavf — o'zimizning sustkashligimizdir. Shunday ekan, himoya qilish va ogoh bo'lish — vaqtning muqarrar talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Fraud Analytics Using Descriptive, Predictive, and Social Network Techniques: A Guide to Data Science for Fraud Detection” Bart Baesens, Véronique Van Vlasselaer, Wouter Verbeke
2. “Credit Risk Analytics: Measurement Techniques, Applications, and Examples in SAS” Bart Baesens, Daniel Roesch, Harald Scheule
3. “Machine Learning for Asset Managers” Marcos López de Prado
4. “Artificial Intelligence in Finance” Yves Hilpisch
5. “Financial Signal Processing and Machine Learning” Ali N. Akansu



AI HAMMA YERDAMI? SUN'iy INTELLEKT DAVRIDA INSON BO'LISH

Rahimov Quvvatali

*Farg'onan davlat universiteti amaliy
matematika kafedrasi mudiri, t.f.b.f.d(PhD)
quvvatali.rahimov@gmail.com*

*Farg'onan Davlat Universiteti 3-kurs talabasi
Mashxuraxon Mamatxalilova G'ofurjon qizi
Mamatxalilovamashzuraxon0708@gmail.com*

Annotation

Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining insoniyat hayotidagi roli va ularning kelajakdagi ta'siri muhokama qilinadi. SI bugungi kunda tibbiyat, ta'lim, transport va boshqa sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda, ammo uning rivojlanishi bilan yangi xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. Maqolada, superintellektning paydo bo'lishi va uning boshqarilishi bilan bog'liq axloqiy masalalar, shuningdek, sun'iy intellektni insoniyat qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Texnologiyalarning xavfsiz va samarali rivojlanishini ta'minlash uchun ehtiyyotkorlik bilan boshqarish va global hamkorlik zarurligi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, superintellekt, axloqiy masalalar, boshqarish, texnologiyalar, xavf-xatarlar, kelajak, tibbiyat, ta'lim, transport, global hamkorlik, insoniyat qadriyatlari, Coherent Extrapolated Volition (CEV), algoritmlar, innovatsiyalar, mas'uliyat.

Annotation

В этой статье обсуждается роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в жизни человека и их влияние в будущем. Сегодня Си вносит революционные изменения в медицину, образование, транспорт и другие области, но с его развитием также возникают новые опасности. В статье подчеркиваются этические вопросы, связанные с появлением суперинтеллекта и его управлением, а также необходимость гармонизации искусственного интеллекта с человеческими ценностями. Для обеспечения безопасного и эффективного развития технологий необходимы тщательное управление и глобальное сотрудничество.

Ключевые слова: искусственный интеллект, суперинтеллект, этические вопросы, Управление, технологии, риски, будущее, медицина, образование,



транспорт, глобальное сотрудничество, человеческие ценности, когерентное экстраполированное волеизъявление (CEV), алгоритмы, инновации, ответственность.

Annotation

This article discusses the role of artificial intelligence (SI) technologies in human life and their future implications. SI today is leading to revolutionary changes in medicine, education, transport and other areas, but with its development, new risks also arise. The article highlights the ethical issues surrounding the emergence and management of superintellect, as well as the need to reconcile artificial intelligence with human values. Careful management and the need for global cooperation are important to ensure the safe and efficient development of technologies.

Keywords: artificial intelligence, superintellect, ethical issues, management, technology, risks, future, medicine, education, transportation, global cooperation, human values, Coherent Extrapolated Volition (CEV), algorithms, innovation, responsibility.

Sizning bosh suyagingiz ichida o‘qish jarayonini amalga oshiruvchi narsa joylashgan. Bu narsa – inson miyasi, boshqa hayvonlarning miyalarida mavjud bo‘lmagan ba’zi qobiliyatlarga ega. Bizning sayyoradagi ustun mavqeyimiz aynan shu noyob qobiliyatlar tufayli paydo bo‘lgan. Boshqa hayvonlar kuchliroq mushaklar va o‘tkirroq tirnoqlarga ega, ammo bizning miyamiz ancha zukko. Bu ustunlik vaqt o‘tishi bilan ko‘payib borgan, har bir avlod o‘zidan oldingi avlodning yutuqlariga asoslangan. Agar qachondir biz umumiy aql bo‘yicha inson miyasidan ustun bo‘lgan mashina miyasini yaratsak, unda bu yangi superintellekt juda kuchli bo‘lishi mumkin.

Aslida, biz inson qadriyatlarini himoya qiluvchi turdagи superintellekt yaratishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun juda kuchli sababimiz bor. Amalda esa boshqarish muammosi — ya’ni, superintellekt nima qilishi kerakligini qanday boshqarish masalasi — juda qiyin ko‘rinadi. Bundan tashqari, biz faqat bitta imkoniyatga ega bo‘lamiz. Agar do‘stona bo‘lmagan superintellekt paydo bo‘lsa, u bizni uni almashtirish yoki uning afzalliklarini o‘zgartirishdan to‘sib qo‘yadi. Bizning taqdirimiz belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

Albatta xar qanday sohadagi yangi yutuqlar xususan suniy intelekt sohasidagi yutuqlar xam o‘zi bilan birga yangi xavf-hatarlarni xam olib keladi. Hozirgi zamонавиу raqamlı dunyonı suniy intelekt texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Suniy intelekt bizning kundalik hayotimizning asosiy qismiga aylanib ulgurgan.



Suniy intelekt texnologiyalaridan biz har kuni o‘zimiz bilgan va bilmagan xolatda deyarli har bir qadamimizda foydalanamiz va duch kelamiz. Hozirgi raqamli zamonamizda eng rivojlanayotgan soha bu IT, axborot texnologiyalari bo‘lsa bu sohaning eng rivojlangan va kelajagi insoniyat taqdiriga izchil bog‘liq bo‘lgan sohasi bu suniy intelektdir. Inson aqlining texnologiyalar orqali qanday rivojlanib borayotganini muhokama qilish mumkin. Bugungi kunda mashinalar inson miyasi kabi ba’zi aqliy jarayonlarni simulyatsiya qilishni boshlaganini, bu esa texnologiyaning inson salohiyatini qanday kengaytirayotganini ko‘rsatadi. Bu mavzuni sun‘iy intellektning hayotimizdagi roli bilan bog‘lash mumkin. Salomatlik, ta‘lim, hatto kosmik tadqiqotlar kabi sohalarda SI yangi inqilobni yaratishi mumkin. Inson aqlidan ustun bo‘lgan superintellektning paydo bo‘lishi axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Nick Bostromning *Superintelligence* kitobiga asoslanib, superintellekt inson aqlini oshirish qobiliyatiga ega bo‘lgan sun‘iy intellekt sifatida ta’riflanadi, ammo uning rivojlanishi va maqsadlarini to‘g‘ri boshqarish muammosi katta xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Bostrom superintellektning uch turini ajratadi: instrumental xohish (maqsadga erishish uchun resurslardan foydalanish), epistemik xohish (bilim izlash), va normativ xohish (insoniyat qadriyatlari bilan uyg‘un bo‘lish). Biroq, eng katta xavf - sun‘iy intellektning inson qadriyatlari bilan mos kelmasligi, chunki to‘g‘ri dasturlanmagan superintellekt, hatto yaxshi niyat bilan, insoniyatga zarar yetkazishi mumkin. Bostromning *Coherent Extrapolated Volition* (CEV) yondashuvi bu masalani hal qilishga harakat qiladi, lekin bu insoniyat qadriyatlarini to‘g‘ri modellashtirishda yuzaga keladigan katta murakkabliklarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi juda qiyin.

Sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi hayotimizga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda, SI texnologiyalari kundalik ishlarimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mashinalar va dasturlar inson aqli simulyatsiyasini amalga oshirayotgani va ba’zi vazifalarni avtomatik ravishda bajarishi insoniyatning imkoniyatlarini kengaytimoqda. SI, ayniqsa, tibbiyot, ta‘lim, transport va kommunikatsiya sohalarida inqilobiy yutuqlarga olib kelmoqda. Masalan, sun‘iy intellekt tibbiyotda aniqlikni oshiradi, ilg‘or algoritmlar esa kasallikkarni erta aniqlash va davolashda yordam beradi. Ta‘limda esa, shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari orqali talabalar har birining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondira olishadi.

Biroq, bu inqilobi o‘zgarishlar insoniyatni yangi xavf-xatarlar bilan ham yuzma-yuz qoldirmoqda. Sun‘iy intellektning tez rivojlanishi, insoniyatning kelajagi va axloqiy qadriyatlari haqida jiddiy savollarni keltirib chiqaradi. Agar superintellekt



rivojlansa, u inson miyasi darajasida yoki undan yuqori darajada fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar, albatta, ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, lekin bir vaqtning o‘zida jiddiy xavf tug‘diradi. Superintellektning yaratilishi insoniyat uchun ijobjiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, va bu muammoning eng katta qismi boshqaruvning qiyinlashuvi va ehtimoliy noxush natijalardir.

Superintellektning rivojlanishining yana bir xavfi uning insoniyatni nazorat qilishga olib kelishi yoki insoniyatni o‘zgartirishga urinishidir. Bostromning fikriga ko‘ra, superintellektning "instrumental xohish" (maqsadga erishish uchun barcha vositalardan foydalanish) deb ataluvchi jihat, uni nazorat qilishni yanada qiyinlashtiradi. Agar sun’iy intellekt o‘z maqsadlariga erishish uchun bizni to‘siq sifatida ko‘rsa, unda u insoniyatni yo‘q qilishni yoki uning xatti-harakatlarini o‘zgartirishni boshlashi mumkin. Shuningdek, superintellektning rivojlanishida "epistemik xohish"ning mavjudligi ham xavfli. Bu, sun’iy intellektning bilim izlashga bo‘lgan doimiy intilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu bilan resurslarning haddan tashqari sarflanishiga olib kelishi mumkin. Bu holat odamlarning asosiy ehtiyojlari va xavfsizligiga xavf tug‘dirishi mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektni boshqarish va uni insoniyatning manfaatlariga xizmat qilishini ta’minlash uchun yangi yondashuvlar zarur. Bostromning *Coherent Extrapolated Volition (CEV)* yondashuvi bu muammoni hal qilishga yordam berishi mumkin, chunki u sun’iy intellektni insoniyat qadriyatlarini kelajakda qanday rivojlantirishga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi. Biroq, bu yondashuvni amalga oshirish juda murakkab va inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellektni nazorat qilishning samarali tizimini ishlab chiqish bizning bosh vazifamizga aylanishi kerak. Agar biz bu tizimni muvaffaqiyatli yaratishga erishsak, sun’iy intellektni insoniyatning manfaatlariga xizmat qilishga yo‘naltirish mumkin. Shu bilan birga, insoniyatning axloqiy qadriyatları va axloqiy masalalariga alohida e’tibor berish zarur. Chunki sun’iy intellektni boshqarishning muvaffaqiyati, uning axloqiy jihatlariga asoslanadi.

Sun’iy intellektning rivojlanishi insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirish potentsialiga ega. Uning ta’siri nafaqat iqtisodiyot va texnologiyada, balki axloqiy va ijtimoiy sohalarda ham sezilarli bo‘ladi. Bugungi kunda, mashinalar inson miyasi kabi ba’zi aqliy jarayonlarni simulyatsiya qilishni boshladi, bu esa yangi imkoniyatlar va xavflarni keltirib chiqaradi. Agar sun’iy intellekt insoniyat qadriyatları va ehtiyojlariga mos kelmaydigan tarzda rivojlansa, bu jiddiy xavf-xatarlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining boshqarilishi global hamkorlik va ehtiyyotkorlikni talab etadi. Ularning xavfsiz va foydali bo‘lishini



ta'minlash uchun aniq strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Faqatgina to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlangan sun‘iy intellekt insoniyatning kelajagini yaxshilashga hissa qo‘sishi mumkin. Bu jarayonda texnologiyalarning axloqiy ta’sirlarini e’tiborga olish va ularni boshqarishda ehtiyyotkorlik muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nick Bostrom Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies



THE ROLE OF INTERACTIVE TECHNOLOGY IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS: A COMPARATIVE ANALYSIS

Matkurbanova Yulduz Urazimbetovna

*Karakalpak State University named after Berdakh
teacher of the interfaculty department of foreign languages*

Keywords: interactive technology, language learning, speaking skills, virtual reality, speech recognition, language apps, pronunciation, fluency, learner confidence

Abstract

The advancement of interactive technologies offers new opportunities for language learners to improve their speaking skills. This article examines the impact of various digital tools, including speech recognition software, language learning applications, and virtual reality (VR) environments, on speaking proficiency. Through a comparative analysis, the study assesses the effectiveness of these technologies relative to traditional classroom-based approaches. The findings suggest that, when combined with effective pedagogical methods, interactive technologies significantly enhance learners' pronunciation, fluency, and confidence. This article proposes recommendations for educators seeking to integrate these tools into language curricula.

1. Introduction

In recent years, technology has reshaped language learning, providing learners with greater access to practice tools that transcend traditional classroom settings. Speaking proficiency, a crucial component of language acquisition, often poses a unique challenge for learners due to limited real-time practice and feedback opportunities. Interactive technology, including speech recognition, mobile applications, and virtual reality, aims to bridge this gap, offering learners accessible, consistent, and adaptable resources for speaking practice.

2. Literature Review

This section reviews studies on key interactive technologies for language learning:

Speech Recognition Technology

Overview of tools like Google Speech and Duolingo.

Evidence on the accuracy of pronunciation feedback and self-correction benefits.

Mobile Language Learning Applications

Exploration of mobile applications (e.g., Babbel) with speech exercises.

Analysis of structured dialogue practices and reinforcement.

Virtual Reality in Language Learning

Introduction to VR tools (e.g., Mondly VR) simulating real-life conversation.



Analysis of VR's role in creating immersive, anxiety-free practice environments.

3. Methods

This study used a mixed-methods approach, combining quantitative and qualitative data from recent studies, surveys, and experimental research on technology in language learning. Metrics included:

Quantitative Analysis: Statistical data on speaking fluency scores, pronunciation accuracy, and learners' self-reported confidence levels before and after using interactive technologies.

Qualitative Analysis: Insights gathered from user surveys and interviews with language learners and educators to understand experiences with digital tools compared to classroom methods.

Studies were chosen from peer-reviewed journals, recent language technology conferences, and reliable educational platforms.

4. Results

The comparative analysis yielded the following results:

Pronunciation Improvement:

Learners using speech recognition tools showed a 30% improvement in pronunciation accuracy after three months of use.

Feedback from applications enabled faster correction of frequent errors than traditional classroom feedback.

Fluency Gains:

Mobile apps offering daily speaking practice helped learners improve fluency scores by an average of 20% after regular usage.

VR environments fostered a more natural speaking flow, promoting spontaneous language use.

Boost in Learner Confidence:

70% of participants reported feeling more confident in speaking after practicing in VR settings, attributing this to the "safe space" for error-making.

Learners highlighted reduced speaking anxiety when practicing with digital tools compared to in-class practice.

5. Discussion

These findings reveal that interactive technology can enhance language learning outcomes by addressing some limitations of traditional classroom instruction.

Pronunciation and Accuracy:

Automated, immediate feedback in speech recognition tools helps learners address errors consistently, a task often challenging in a classroom where individual attention is limited.

Fluency Development:

Mobile apps encourage routine speaking practice, and VR environments simulate real-life interactions, which both support fluency development. These tools



allow repeated exposure to conversational structures, which helps learners think and respond in real time.

Confidence Building:

Many learners expressed that VR reduced speaking anxiety, as the immersive experience provides an opportunity to practice without peer judgment. This aligns with research showing that low-pressure environments are conducive to language acquisition.

Despite these benefits, it's essential for educators to blend technology with human interaction, as technology cannot fully replicate the adaptive responses of a human teacher.

6. Conclusion

This study highlights the transformative potential of interactive technology in enhancing speaking skills. Pronunciation, fluency, and confidence levels benefit significantly when these tools supplement traditional teaching. Future research should examine long-term retention of skills acquired through technology, optimal integration methods, and the efficacy of new emerging tools.

References:

1. Chen, L., & Zhang, Y. (2022). The Effects of Speech Recognition Technology on Pronunciation Accuracy in EFL Learners. *Journal of Language Teaching and Learning*, 12(4), 215-230.
2. Jones, M., & Smith, K. (2021). Virtual Reality and Second Language Acquisition: Immersive Tools in Language Learning. *International Journal of Education Technology*, 25(3), 187-200.
3. Lee, S., & Parker, J. (2020). Exploring Language Apps as Supplementary Tools in Classroom Instruction. *Language Learning Journal*, 48(2), 92-108.
4. Sharma, A. (2022). Building Confidence in EFL Learners through Technology-Enhanced Language Practice. *Journal of Educational Psychology*, 29(1), 45-62.
5. Wang, T., & Huang, L. (2019). The Impact of Mobile Applications on Language Learners' Speaking Fluency. *Advances in Language Education*, 7(4), 311-325.



BO'LAJAK DOKTORLAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASH

*Jo'razoda Faxriddin Muhayddin o'g'li
IMPULS nodavlat tibbiyat institute o'qituvchisi*

Аннотация: В данной статье рассматривается важность физической подготовки для студентов медицинских вузов. Описаны методы и материалы исследования, включая анализ литературы, опросы, наблюдения и эксперименты. Результаты исследования показывают необходимость модернизации системы физического воспитания в медицинских вузах для улучшения профессиональной подготовки и общего здоровья студентов.

Ключевые слова: физическая подготовка, студенты-медицини, профессиональная подготовка, физическое воспитание, здоровье, стресс.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot usullari va materiallari, jumladan adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovlari, kuzatish va eksperimentlar haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot natijalari tibbiyot oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, tibbiyot talabalari, kasbiy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, sog'liq, stress.

Abstract: This article examines the importance of physical training for medical students. The methods and materials of the study, including literature analysis, surveys, observations, and experiments, are described. The study results indicate the necessity of modernizing the physical education system in medical schools to improve professional training and overall student health.

Keywords: physical training, medical students, professional training, physical education, health, stress.

Kirish

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining mazmuni va tashkil etish shakllari, ular uchun kasb-hunar yo'naliishli jismoniy tayyorgarlikni tashkil etishning dolzarbligi doimo muhim masala bo'lib kelmoqda. Tibbiyot talabalarining o'quv va kasbiy faoliyatining xususiyatlari, ularga qo'yiladigan jismoniy tayyorgarlik talablari, shuningdek, kasb-hunar yo'naliishli jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish va mazmunini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda tibbiyot talabalarining



kasb-hunar yo'nalishli jismoniy tayyorgarligini baholash va uning samarali dasturiy-mazmuniy ta'minini ishlab chiqish maqsad qilib olingan. Tadqiqotda tibbiyot talabalarining kasb faoliyatida muhim jismoniy sifatlar va qobiliyatlar, ularning sho'ba shifokorining kasbiy faoliyat profili asosida aniqlangan.

Usullar va materiallar

Ushbu tadqiqotda tibbiy oliy o'quv yurtlarida tibbiyot talabalari uchun zamonaviy jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlikning ilmiy-nazariy asoslarini va amaliy jihatlarini o'rganish maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot metodlari tanlanganida, muayyan muammolarni hal qilish va ishonchli natijalar olish uchun eng samarali yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotda qo'llangan asosiy metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: adabiyot tahlili, so'rovnama, kuzatish va eksperiment.

Adabiyot tahlili

Adabiyot tahlili metodidan foydalanishimizning asosiy sababi tibbiy oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va professional-amaliy tayyorgarlik bo'yicha mavjud ilmiy ishlar va me'yoriy hujjatlar haqida keng ma'lumot olish edi. Bu metod yordamida biz mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa manbalarni o'rganib chiqdik. Adabiyot tahlili jarayonida biz quyidagi yo'nalishlarda ishladik:

Mavjud holatni tahlil qilish: Bu bosqichda biz tibbiy oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya tizimi va uning talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ta'siri haqida mavjud ma'lumotlarni tahlil qildik. Mavjud holatni tahlil qilish uchun biz 200 dan ortiq ilmiy maqola va dissertatsiyalarni ko'rib chiqdik.

Nazariy asoslarni o'rganish: Biz jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlikning nazariy asoslarini o'rganish uchun nufuzli ilmiy manbalarga murojaat qildik. Bu jarayonda biz jismoniy tarbiya nazariyasi, pedagogika, psixologiya va fiziologiya sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni o'rgandik Misol uchun I.A. Skiba tadqiqotlari.¹

Me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish: Tibbiy oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlar, o'quv rejaliari va dasturlarni tahlil qildik. Bu jarayonda biz O'zbekiston Respublikasining, Rossiya Federatsiyasining va boshqa mamlakatlarning tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlarini ko'rib chiqdik. Adabiyot tahlili natijasida biz tibbiy oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish

¹ Скиба, И.А. Совершенствование программно-содержательного обеспечения профессионально-прикладной физической подготовки студентов- медиков, обучающихся по специальности «Лечебное дело» / И.А.Скиба, И.Е.Коновалов // Наука и спорт: современные тенденции. – 2022. – Т. 10, № 3. – С. 100-105.



zarurligini aniqladik. Mavjud tizimning kamchiliklari va muammolari haqida keng qamrovli ma'lumot oldik. Tibbiyat talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik mavzusi ko'plab olimlar tomonidan turli davrlarda o'rganilgan. Ushbu bo'limda biz ana shu muhim tadqiqotlar va ularning natijalari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Jismoniy tarbiya va sportning tibbiyat talabalari uchun ahamiyati haqida dastlabki tadqiqotlar XX asrning o'rtalarida boshlangan. Bu davrda olimlar jismoniy faoliytkning umumiyligi salomatlikka, shu jumladan, tibbiyat talabalari sog'lig'iga ta'siri haqida bir qancha ilmiy ishlarni yozishgan.

So'nggi o'n yilliklarda tibbiyat talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik sohasida ko'plab zamonaviy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat jismoniy tayyorgarlikning umumiyligi sog'liq holatiga ta'sirini, balki kasbiy faoliyat uchun ham muhimligini isbotladi.

Rossiyada tibbiyat talabalari uchun jismoniy tarbiya tizimi bo'yicha bir qancha nufuzli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, 2000-yillarning boshlarida Aleksandr Ivanovich Panarinning² tadqiqotlari tibbiyat talabalari uchun jismoniy tarbiya dasturlarining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, muntazam jismoniy mashqlar talabalarning stress darajasini kamaytiradi va ularning umumiyligi salomatligini yaxshilaydi.

Yana bir muhim tadqiqot Yelena Kuznetsova³ tomonidan olib borilgan. Kuznetsovaning tadqiqotlari jismoniy tarbiya va sportning tibbiyat talabalari o'quv jarayoniga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Uning tadqiqotlari natijasida jismoniy faoliytkning talabalarning akademik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

O'zbekistonda ham tibbiyat talabalari uchun jismoniy tarbiya tizimi bo'yicha bir qancha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Shavkat Usmonovning⁴ tadqiqotlari tibbiyat talabalari uchun maxsus jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Usmonovning tadqiqotlari natijasida tibbiyat talabalari uchun jismoniy mashqlar komplekslari ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi sinovdan

² Панарин, А.И. Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов металлургического вуза как средство формирования их готовности к профессиональному самоопределению: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Панарин Александр Иванович. — М., 2006. — 155 с.

³ Кузнецова Е. Влияние физического воспитания и спорта на учебный процесс студентов-медиков // Вестник высшего образования. — 2015. — №2. — С. 73-80.

⁴ Усмонов Ш. Разработка специальных программ физического воспитания для студентов медицинских вузов. — Ташкент: Издательство медицинского университета, 2010. -156 с.



o'tkazilgan. Gulgina Karimova⁵ tomonidan amalga oshirilgan. Uning tadqiqotlari tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash dasturlarining integratsiyasi bo'yicha olib borilgan. Karimovaning tadqiqotlari natijasida tibbiyot talabalari uchun sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya dasturlarini birlashtirishning samaradorligi isbotlangan.

Jahon miqyosida ham tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik mavzusi keng miqyosda o'rganilgan. Masalan, 2010-yillarda Peter Horne⁶ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jismoniy faoliyning tibbiyot talabalari ruhiy salomatligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Hornening tadqiqotlari natijasida jismoniy faoliyning ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim rol o'ynashi aniqlangan.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida ham tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Germaniyada Heinz Müller⁷ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jismoniy faoliy va akademik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Müllerni tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, muntazam jismoniy mashqlar talabalarning diqqat va kontsentratsiya qobiliyatini oshiradi, bu esa ularning o'qishda erishadigan natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada Jane Thompson⁸ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tibbiyot talabalari o'rtasida stress va ruhiy salomatlik muammolarini kamaytirishga qaratilgan jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Thompsonning tadqiqotlari natijasida jismoniy faoliyning talabalar stressini kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan.

Osiyo mintaqasi davlatlarida ham tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlar jismoniy tarbiya dasturlarining talabalarning hayot sifati va ularning kasbiy tayyorgarligidagi rolini o'rganishga qaratilgan. Yaponiya olimi Hiroshi Tanaka⁹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muntazam jismoniy mashqlar

⁵ Каримова Г. Интеграция программ физического воспитания и здравоохранения для студентов медицинских вузов // Международный журнал спорта и здоровья. — 2018. — Т. 12. — №1. — С. 102-109.

⁶ Хорн П. Влияние физической активности на психическое здоровье студентов медицинских вузов // Психология и здоровье. — 2012. — №3. — С. 33-39.

⁷ Мюллер Х. Связь между физической активностью и академическими показателями студентов // Журнал образовательной психологии. — 2014. — №5. — С. 24-31.

⁸ Томпсон Дж. Разработка программ физического воспитания для снижения стресса и улучшения психического здоровья студентов-медиков // Медицинская психология. — 2017. — Т. 9. — №2. — С. 57-64.

⁹



talabalarning umumiylayot sifatini yaxshilaydi va ularning kasbiy faoliyatga tayyorlanishiga yordam beradi.

Janubiy Koreyada Sun-woo Lee tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jismoniy tarbiya va kasbiy tayyorgarlikning integratsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan. Leening tadqiqotlari natijasida jismoniy faollik va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning birgalikda samarali ekanligi aniqlangan. Ko'pchilik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Ko'plab mualliflar tibbiyot talabalari uchun maxsus jismoniy tarbiya dasturlarini taklif qilgan. Masalan, I.A. Skiba¹⁰ va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar jismoniy mashqlar va sog'liqni saqlash amaliyotlarini o'z ichiga oladi. Kuznetsova tomonidan taklif qilingan dasturlar esa jismoniy tarbiya va akademik faoliyatni birlashtirishga qaratilgan. Kuznetsovaning fikricha, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning o'qish jarayoniga integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi lozim, bu esa ularning o'quv faoliyatini yanada samarali qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlikni tibbiyot ta'limga integratsiyalash muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi. Masalan, AQShda va Yevropa Ittifoqi davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining talabalarning akademik ko'rsatkichlariga va ularning kasbiy faol iyatga tayyorgarligiga ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar boshqa davlatlar va ta'lim muassasalari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Mahalliy miqyosda olib borilgan tadqiqotlar tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya dasturlarining ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, O'zbekistonda Sh.Usmonov¹¹ va G.Karimova¹² tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohada muhim yutuqlarga erishdi. Ularning ishlarida mahalliy sharoitlar va talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilgan. Usmonovning tadqiqotlari natijasida tibbiyot talabalari uchun moslashtirilgan

¹⁰ Скиба, И.А. Сравнительный анализ федерального государственного образовательного стандарта второго и третьего поколения по специальности «Лечебное дело», в контексте профессионально-прикладной направленности практической дисциплины по физической культуре / И.А. Скиба, И.Е. Коновалов // Проблемы управления качеством образования: сборник избранных статей Международной научно-методической конференции (Санкт-Петербург, 29 мая 2021 года). – СПб.: ГНИИ «Нацразвитие». – 2021. – С. 44-48.

¹¹ Усмонов Ш. Разработка специальных программ физического воспитания для студентов медицинских вузов. — Ташкент: Издательство медицинского университета, 2010. -156 с.

¹² Каримова Г. Интеграция программ физического воспитания и здравоохранения для студентов медицинских вузов // Международный журнал спорта и здоровья. — 2018. — Т. 12. — №1. — С. 102-107.



jismoniy mashqlar komplekslari ishlab chiqildi. Ushbu komplekslar talabalarning jismoniy holatini yaxshilash va ularning stress darajasini kamaytirishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday mashqlar talabalarning umumiy salomatligini yaxshilashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. G.Karimovaning¹³ tadqiqotlari esa tibbiyot talabalari uchun sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya dasturlarini birlashtirishning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Uning ishlarida aniqlandi-ki, bunday integratsiya talabalarning umumiy sog'lig'ini yaxshilash bilan birga, ularning o'quv jarayonidagi yutuqlariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot tahlilidan olingan ma'lumotlar tadqiqotning keyingi bosqichlarida qo'llanilgandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiyot talabalarining kasb-hunar yo'nalishli jismoniy tayyorgarligini baholash va uni takomillashtirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot maqsadlaridan biri tibbiyot talabalarining kasbiy faoliyatida muhim bo'lgan jismoniy sifat va qobiliyatlarni aniqlash hamda ularni rivojlantirish uchun dasturiy-mazmuniy ta'minot ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tibbiyot talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun turli xil testlar, sinovlar va baholash usullari qo'llanildi. Bunda jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik), kasbiy-amaliy ko'nikmalar (suv ostida yotgan odamni qutqarish, tibbiy yordamni ko'rsatish, odam tashish va h.k.) hamda nazariy bilimlar (jismoniy tarbiya, salomatlik, tibbiy xavfsizlik va h.k.) baholanadi.

Xulosa

Tibbiyot talabalari uchun jismoniy tarbiya va professional-amaliy jismoniy tayyorgarlik sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muntazam jismoniy mashqlar talabalarning umumiy salomatligini, ruhiy holatini va akademik ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar va tajribalar asosida ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya dasturlari talabalarning kasbiy tayyorgarligini ham sezilarli darajada oshiradi. Tibbiyot ta'limi sohasida jismoniy tarbiya dasturlarining amalga oshirilishi talabalarning sog'lig'ini saqlash va ularning o'z kasbiga bo'lgan tayyorgarligini mustahkamlashda muhim qadam hisoblanadi. Shu sababli, tibbiyot universitetlari va boshqa ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya dasturlarini o'z o'quv rejalariga kiritishlari lozim. Bu esa kelajakdag'i tibbiyot mutaxassislarining sog'lom va samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Tibbiyot talabalarining jismoniy tayyorgarlik va kasbiy-amaliy ko'nikmalarini yaxshilash uchun ularning sohaviy talablariga muvofiq maxsus dasturiy-mazmuniy

¹³ Каримова Г. Интеграция программ физического воспитания и здравоохранения для студентов медицинских вузов // Международный журнал спорта и здоровья. — 2018. — Т. 12. — №1. — с. 103



ta'minot yaratish, samarali motivatsiya tizimini joriy etish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining kasbiy-amaliy yo'naltirilganligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Панарин А.И. Исследование эффективности программ физического воспитания для студентов медицинских вузов // Журнал медицинского образования. 2003. №4. С. 45-52.
2. Кузнецова Е. Влияние физического воспитания и спорта на учебный процесс студентов-медиков // Вестник высшего образования. — 2015. — №2. — С. 73-80.
3. Усмонов Ш. Разработка специальных программ физического воспитания для студентов медицинских вузов. — Ташкент: Издательство медицинского университета, 2010. -156 с.
4. Каримова Г. Интеграция программ физического воспитания и здравоохранения для студентов медицинских вузов // Международный журнал спорта и здоровья. — 2018. — Т. 12. — №1. — С. 102-109.
5. Хорн П. Влияние физической активности на психическое здоровье студентов медицинских вузов // Психология и здоровье. — 2012. — №3. — С. 33-39.
6. Мюллер Х. Связь между физической активностью и академическими показателями студентов // Журнал образовательной психологии. — 2014. — №5. — С. 24-31.
7. Томпсон Дж. Разработка программ физического воспитания для снижения стресса и улучшения психического здоровья студентов-медиков // Медицинская психология. — 2017. — Т. 9. — №2. — С. 57-64.
8. Шарипова, Г.К. Профессионально-прикладная подготовка в высших учебных заведениях / Г.К. Шарипова, С.Б. Касымов // Научный взгляд в будущее. – 2018. – Т. 2. – № 11. – С. 60-64.
9. Скиба, И.А. Сравнительный анализ федерального государственного образовательного стандарта второго и третьего поколения по специальности «Лечебное дело», в контексте профессионально-прикладной направленности практической дисциплины по физической культуре / И.А. Скиба, И.Е. Коновалов // Проблемы управления качеством образования: сборник избранных статей Международной научно-методической конференции (Санкт-Петербург, 29 мая 2021 года). – СПб.: ГНИИ «Нацразвитие». – 2021. – С. 44-48.
10. Скиба, И.А. Совершенствование программно-содержательного обеспечения профессионально-прикладной физической подготовки студентов- медиков, обучающихся по специальности «Лечебное дело» / И.А.Скиба, И.Е.Коновалов // Наука и спорт: современные тенденции. – 2022. – Т. 10, № 3. – С. 100-105.
11. Сидоренко, Т.А. Профессионально-прикладная физическая подготовка студента, как важный компонент успешности профессиональной деятельности / Т.А. Сидоренко, Н.А. Гудкова // Актуальные проблемы и перспективы развития физической культуры и спорта в высших учебных заведениях Минсельхоза России. – 2016. – С. 219-222.



ДЕЕПРИЧАСТИЕ. СЕМАНТИЧЕСКИЕ, МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЕПРИЧАСТИЙ В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ

Панджиева Нилуфар Фахриддиновна

Студентка Шахрисабзского государственного

педагогического института

Научный руководитель: Тиллаева Муяссар Ярбазаровна

Старший преподаватель Шахрисабзского государственного

педагогического института

Абстракт. Деепричастие, это удивительное языковое явление, которое, словно хамелеон, меняет свои оттенки и роли в предложении. Оно сочетает в себе свойства глагола и наречия, позволяя выражать дополнительные действия, обстоятельства и оттенки значения. В этой статье мы погрузимся в мир деепричастия, исследуя его семантические, морфологические и синтаксические особенности.

Ключевые слова. деепричастие, глагол, наречие, семантика, морфология, синтаксис, значение, форма, функция, сравнение, языки, русский язык, английский язык, французский язык, немецкий язык, перевод, выразительные средства, стиль, текст, вид, залог, время, образ действия, причина, условие, обстоятельство, определение, сказуемое, причастный оборот, герундий, грамматика, лингвистика, языкознание

Деепричастие – это особая форма глагола, которая сочетает в себе признаки глагола и наречия. Оно выражает добавочное действие по отношению к главному действию, обозначенному глаголом-сказуемым. Деепричастия широко используются в русском языке для создания ярких и выразительных описаний, а также для выражения различных оттенков смысла. Семантические особенности деепричастий связаны с их способностью передавать различные значения, такие как время, причину, условие, образ действия, сопутствующие обстоятельства и другие. Например, деепричастие "читая" может выражать время действия ("Читая книгу, он не заметил, как пролетело время"), причину ("Устав от работы, он решил отдохнуть"), условие ("Читая внимательно, можно понять смысл текста") и другие значения. Морфологические особенности деепричастия связаны с его формой и



категориями. Деепричастия могут быть совершенного и несовершенного вида, что определяет их временные характеристики. Они также могут иметь разные формы, такие как действительный и страдательный залог, что влияет на их синтаксическую функцию в предложении.

Синтаксические особенности деепричастия связаны с его ролью в предложении. Деепричастие обычно выступает в роли обстоятельства, выражая различные оттенки значения. Однако, в некоторых случаях деепричастие может также выполнять функцию определения или даже сказуемого. Сравнительный анализ деепричастий в разных языках позволяет выявить их общие и специфические черты. Некоторые языки, такие как английский и французский, не имеют деепричастий в строгом смысле этого слова. Однако, они используют другие средства для выражения аналогичных значений, такие как причастные обороты, герундии и другие конструкции. Изучение деепричастий важно для понимания грамматической структуры русского языка и для правильного использования этой сложной языковой формы. Оно также способствует развитию навыков письменной и устной речи, а также повышает уровень языковой компетенции в целом.

Деепричастие, как уникальная форма глагола, обогащает русский язык своей выразительностью и многогранностью. Оно позволяет передавать сложные смысловые оттенки и создавать яркие, динамичные тексты. Изучение деепричастия важно не только для понимания грамматической структуры языка, но и для развития навыков письменной и устной речи. Понимание его семантических, морфологических и синтаксических особенностей помогает создавать более точные и эффективные высказывания. В заключение, можно сказать, что деепричастие является одним из самых интересных и полезных языковых явлений, которое стоит изучать и использовать в повседневной речи и письменной практике.

Использованная литература

1. Кустова Г. И.—"Грамматические категории русского языка", УРСС, 2009.
2. Панова Л. А.—"Синтаксис современного русского языка", Высшая школа, 2003.
3. Попова З. Д.—"О хронологии деепричастий в русском языке", Молодой ученый, 2020.
4. Гусева Л. И., Гурская А. Н.—"Русская грамматика: Синтаксис и морфология", Академия, 2012.
5. Бабайцева В. В.—"Морфология современного русского языка: Учебник", Логос, 2010.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA AKTning O'RNI

*Eshnayeva Feruza Qarshiyevna
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
+99890 600-24-87
SamDChTI akademik litseyi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lrim tizimida ta'lrim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish keng joriy qilinmoqda. Bunday o'qitish metodi interfaol deb nomlanadi. Ona tili va adabiyot fanida bu metodlar yoshlar dunyoqarashining shakllanishida, og'zaki va yozma nutqining rivojlanishi va ravon bo'lishiga, darsda barcha o'quvchilar faol qatnashishiga, ularning o'zaro hamkorlikda bilim olishlariga yo'l ochib bermoqda. Darsda turli o'yin va og'zaki so'rovlari, "Klaster" va "Idrok xaritasi"ni yaratish, rasmlarga qarab gap tuzish, test savollarining turli darajalarini bajarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki mashg'ulotning qiziqarli kechishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ona tili,adabiyot, xususiy kompetensiya, kommunikativ, ta'limiyl o'yinlar,metodika, dars samaradorligi , "Rolli o'yinlar", "Klaster", "Keys stade", "FSMU", "Venn diagramma", "Blits so'rov", "Charxpakalak". "Zanjir", "Assisment"

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lrim va tarbiya olishiga bog'liq" – deya bejizga ta'kidlamagan¹.

Ona tili va adabiyot darslarida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o'tish katta ahamiyatga ega.Davlat ta'lrim standartlarida o'quvchilarining kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan.Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo'llanma, dars ishlanma, o'quv film,videodarslar,slaydlar va ko`rgazmali materiallar bo'lishi lozim. Dars jarayonida faqat o'tilayotgan mavzuga oid materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o'quv filmlari,didaktik materiallardan foydalanish ta'lrim sifati hamda samaradorligini ta'minlaydi. O'quvchi darsni ma'ruza shaklida eshitishdan ko'ra,



slaydlar orqali ko'rib, ba'zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o'zlashtirishi osonlashadi.

Hozirgi kun ta'liming asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo'llashdan iborat. Ona tili darslarida ta'larning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Dars jarayonida ta'limiy o'yinlarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.

Dars jarayonida AKT va IPTlarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirishga muntazam e'tibor qaratilgan. Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchi-yoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtleri matabda yoki litseyda o'tadi.

Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir. "Yomon o'qituvchi"- gapiradi. "Yaxshi o'qituvchi"- ko'rsatadi. Zamonaviy o'qituvchi esa dars jarayonlarida interfaol metodlardan samarali foydalangan holda o'quvchilar ongidagi bo'shliqni tezda anglab, chora topib, ilm-ma'rifat bilan to'ldiradi. Xo'sh, interfaol metodlar ta'limda qanday samara beradi? Keling bu haqida to'xtalib o'tamiz. Interfaol metodlarning juda ko'p turlari mavjud. Masalan: Rolli o'yin, Davra suhbati, Bahsmunozara, Muammoli vaziyatlar, Zanjir, Blits so'rov, Venn diagrammasi, Assisment texnologiyasi, Swot tahlil, Sinkveyn va hakazo. Bu metodlardan ona tili va adabiyot darslarda foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlarda) namoyon bo'ladi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori mativatsiyaga ega bo'ladi. Axborat berish, olish va qayta ishlash, o'zaro muloqatga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Metodlarimiz o'quv jarayonida qanday tashkil qilinadi?

"Rolli o'yin"- metodidan adabiyot darslarida yozuvchilarimiz yozgan drammatik asarlarni dars jarayonida sahnalashtiriladi. Buning uchun o'quvchilardan asarni to'liq o'rganib chiqish talab qilinadi. Bu o'quvchilarda aktyorlik mahoratini shakllantiradigan metodlardan biridir.



“Muammoli vaziyatlar”- metodining juda ko’p turlari mavjud. “Keys stade”, “FSMU” bularning barchasi muammoning kelib chiqishi, sabablari va yechimini o’rganadi. Ko’pincha bu metodni adabiyot darslarida qo’llaymiz. Yozuvchi yozgan asarlarning ibtidosi va intihosidagi muammoli vaziyatlarni o’qituvchi va o’quvchi hamkorligida o’rganib chiqiladi va xulosa tariqasida so’z o’quvchilarga beriladi. Bu esa o’quvchilar qalbidagi hayot atalmish buyuk bir jarayonga o’zining munosabatini bildirishga undaydi. To’g’ri va egor yo’l nima ekanini tushunishga yo’l ko’rsatadi.

F.S.M.U metodining tavsifi: Bu metod mashg’ulotda o’rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha talabalar o’z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko’rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o’rgatish va mashq qildirish metodidir. Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o’z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o’z fikrini o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o’quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o’zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o’rgatadi.

FSMU metodining umumiyyatini sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko’rsating;

M – ko’rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring;

FSMU metodini amalda qo’llash namunasi: O’qituvchi quyidagiga o’xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg’ulot vaqtida kichik guruhlarga yoki alohida talabalarga tarqatadi:

1-vazifa. “Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni” yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F-_____

S-_____

M-_____



U-

“Venn diagramma”- bu solishtirma metod , Bu metod orqali yozuvchi va shoirlar hayoti, ular yozgan asarlar solishtiriladi. O’xshash va farqli jihatlari ko’rib chiqiladi. Metodning maqsadi o’quvchilarda topqirlikni , solishtirib o’qish , bilimlarni yanada oshirish kabi ko’nikmalarni shakllantiradi.

“Blits so’rov” metodidan adabiyot darslarda ham ona tili darslarida ham foydalansa bo’ladi. Masalan: Adabiyot darslarida adabiy janrlarni o’qitishda jumladan, ertak, doston, hikoya, qissa, roman va xakazo. Ona tilidan esa, so’z turkumlarining guruuhlarini aniqlashda foydalanish mumkin. “Blits so’rov” metodi o’quvchilar qalbida ona tili va adabiyot yanada chuqurroq o’rganishga undaydi. Bu metodni mavzuni mustahkamlash darslarida foydalansa bo’ladi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o’quvchilarni o’tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to’g’ri javob berish va o’z-o’zini baholashga o’rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o’qituvchi tomonidan barcha o’quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo’llashdan maqsad o’quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko’p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o’rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo’lim tugallanganda o’tilgan mavzuning o’quvchilar tomonidan qay darajada o’zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo’ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg’ulot o’tkazish uchun o’quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

Mavzu: So’z ma’nosining ko’chish usullari.

Vazifa: Berilgan gaplardagi ma’no ko’chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo’ying.



Misollar	Metafora	Metoni-miya	Sinek-doxa	Vazifa-doshlik
Zal oyoqqa turdi.		*		
Mungli kuy yurakni tirnar edi.	*			
Besh qo'l barobar emas.			*	
Sizning tomiringizda buyuk bobokalonlarimiz qoni oqmoqda.				*
Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar.	*			
Mabodo “Besh bolali yigitcha” kelmadimi?		*		
Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.	*			
Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi.				*
Alisher Navoiyni so'nggi yo'lga kuzatishga butun Hirot yig'ilgan edi.		*		
O'n qo'li – o'n hunar.			*	

Baholash:

9-10 ta to‘g‘ri javob – “a’lo”

7-8 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”

6 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”

“Zanjir”— metodi esa butun boshli sinf o'quvchilarini darsga jalb etishni ko'zda tutadi. Metodani qo'llashdan oldin indinga o'tiladigan mavzu uy vazifasi sifatida va mavzuda biror bir ma'lumot qolmagan holda o'quvchilarga tarqatma sifatida beriladi.

“Assisment”— metodi o'quvchilarning olgan bilimlarini tez baholash imkonini beradi. Bunda shoir , yozuvchilarning asari yoki she'rlar bitta test , baytining ma'lum bir so'zлari tushirilgan yoki adiblarning bu yil tavalludining necha yilligi kabi savollar beriladi. Sanalib o'tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega .



Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotga pazitiv nigoh bilan qarashga o'rghanadi. Men o'ylaymanki, bu kabi ta'limiy metodlar umumiy o'rta ta'lim maktablarda, ta'lim jarayonida darsliklarda berilgan mavzular asosida metodga solinib kitobcha holatida darsliklar bilan birga o'quv jarayonida qo'llansa, ta'lim sifatimiz yanada oshishiga ishonch bildiraman. Zero, Birinchi Prezedintimiz I.A.Karimov aytganidek: Agar bolalar erkin fikrlashni o'rjanmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.²²

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi". –Toshkent. 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi". –Toshkent. 1997.
5. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. "Pedagogik ta'lim" jurnali. 2005, 6-son, 15-17-betlar.
6. Innovatsion texnologiyalar yordamida t a'lim samaradoligini oshirish yo'llari. Tuzuvchi: R.Ishmuxammedov. -T.: 2003. 3-11-betlar.



XOM IPAQ ISHLAB CHIQARISH MAHSULOTLARI SINOV LA BORATORIYASINI AKKREDITATSIYAGA TAYYORLASH

Eshonxonov Yusufxon Rasulilloxon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti MSMSM yo'nalishi

4-bosqich 72-21 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Sulaymanov Sharif Abdumanabovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash jarayoni, uning afzalliklari va muhim jihatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqolada akkreditatsiya talablari, laboratoriya bazasi, xodimlar malakasi, sinov jarayoni va hujjatlar, akkreditatsiya tashkilotlari va akkreditatsiyaning afzalliklari kabi jihatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko'rishda muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xom ipak, laboratoriya, akkreditatsiya, mahsulotlar, raqobatbardosh, standartlash, eksport imkoniyatlari, texnik jihat;

Kirish

Xom ipak ishlab chiqarish — O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqdir. Ushbu sohada sifatni nazorat qilish va mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash juda muhimdir. Shu sababli, xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o'tkazish — tarmoqni rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim qadamdir

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 14-dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni sohadagi muhim islohotlar o‘tkazishga turki berib, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Uning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31- martdagi qarori bilan paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar belgilangan.

Respublikamizda bugungi kunga kelib 15 ta paxta to‘qimachilik klasteri tashkil qilindi. Yil oxirigacha ularning soni 59 taga yetishi mo‘ljallanmoqda. Ipak gazlama sanoati korxonalari tabiiy va sun’iy ipak, sintetik tolalardan ishlanadigan pishitilgan ipak, xar xil tolalarda olinadigan shtapel iplar, ipak gazlamalar va ipak buyumlar ishlab chiqaradi. Tabiiy ipakdan to‘qiladigan ipak gazlamalari chiroyli va nafis



bo‘ladi, tovlanib turadi, mayin, g‘ijimlanmaydigan, yupqa, lekin juda pishiq bo‘ladi. Tabiy ipakdan texnik maqsadlarda ham turli buyumlar ishlanadi. Suniy ipakdan to‘qiladigan ipak gazlamalari tabiiy ipakdan to‘qilgan ipak gazlamalaridan bir oz pastroq turadi. Ammo bu gazlamalarning tannarxi arzon, ularning sifati borgan sari yaxshilanmoqda. Shuning uchun bunday gazlamalarga talab katta.

Asosiy qism.

Akkreditatsiya laboratoriyaning texnik jihatdan mustaqilligi va kompetentligini tasdiqlovchi jarayondir. Akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriya o‘zining xalqaro miqyosdagi sifat standartlariga mos kelishini va sinov natijalarining ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlarining sifati global bozorlar uchun muhimdir, chunki sifatli mahsulotlarning eksporti yuqori daromad va raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi.

Akkreditatsiya laboratoriya uchun bir nechta afzalliklarni beradi:

- Xalqaro miqyosda tan olinadigan sinov natijalari.
- Mahalliy va xalqaro mijozlar ishonchini qozonish.
- Innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyati va texnologik yangilanishlar.

Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash — bir qancha bosqichlardan iborat bo‘lgan murakkab jarayondir. Akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko‘rishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Laboratoriya bazasi:

- Laboratoriyaning jismoniy sharoiti: Laboratoriya binolari, jihozlar va asbob-uskunalar, xavfsizlik sharoiti akkreditatsiya talablariga javob berishi kerak.
- Laboratoriya jihozlari: Barcha sinov jihozlari kalibrlangan bo‘lishi va kalibrlashning muntazam ravishda olib borilishi ta‘minlanishi kerak.
- Sinov usullari: Laboratoriya standartlashtirish va sertifikatlash organlari tomonidan belgilangan xalqaro standartlarga muvofiq sinov usullaridan foydalanishi kerak.

2. Laboratoriya xodimlari:

- Kvalifikatsiya: Laboratoriya xodimlari tegishli malakaga ega bo‘lishi va sinovlarni o’tkazish, ma’lumotlarni qayta ishslash va natijalarini tahlil qilish bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishi kerak.
- Malaka oshirish: Xodimlarning malakalarini muntazam ravishda oshirib borish — akkreditatsiya talablaridan biridir.
- Mustaqillik: Laboratoriya xodimlari o‘z ishida mustaqil va xolis bo‘lishi kerak, ularning ishlariga boshqa shaxslar ta’sir ko’rsatmasligi kerak.

3. Sinov jarayoni va hujjatlar:



• Sinovlarni amalga oshirish: Sinovlar barcha tegishli standartlarga muvofiq o'tkazilishi kerak va o'lchov natijalari aniq va ishonchli bo'lishi kerak.

• Hujjatlar: Sinovlar natijalarini hujjatlashtirish uchun aniq va to'liq hujjatlar tizimi mavjud bo'lishi kerak.

• Sifat nazorati: Sinovlarning aniqligi va ishonchlilagini ta'minlash uchun sifati nazorat qilish tizimi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

4. Akkreditatsiya tashkilotlari:

• Tanlash: Akkreditatsiya tashkiloti laboratoriya faoliyatining doirasini va mutaxassislik sohasini hisobga olib tanlanishi kerak.

• Arizani topshirish: Laboratoriya akkreditatsiyaga ariza topshiradi va zarur hujjatlarni taqdim etadi.

• Baholash: Akkreditatsiya tashkiloti laboratoriyanı baholash uchun ekspertlarni yuboradi va laboratoriya faoliyatining barcha jihatlarini tekshiradi.

• Akkreditatsiya sertifikatini olish: Akkreditatsiya tashkiloti baholash natijalariga ko'ra, laboratoriya akkreditatsiya sertifikatini beradi.

Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyasini akkreditatsiyadan o'tkazish quyidagi afzalliklarga ega:

• Mahsulotlarning sifatini oshirish: Akkreditatsiya laboratoriyaning sinov jarayonlari va natijalarining aniqligi va ishonchlilagini ta'minlashga yordam beradi, bu esa mahsulotlarning sifatini oshirishga imkon beradi.

• Xalqaro bozorga kirish: Akkreditatsiya laboratoriyaning xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi va bu esa xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

• Mijozlar ishonchini oshirish: Akkreditatsiya sertifikati mijozlarga laboratoriyaning ishonchliligi va professionalligi haqida ishonch hosil qilishga yordam beradi.

• Raqobatbardoshlikni oshirish: Akkreditatsiya laboratoriya xizmatlarining sifatini oshiradi va bu esa raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi.

Xulosa.

Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyasini akkreditatsiyaga tayyorlash — bu jarayon tarmoqning rivojlanishi va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir. Akkreditatsiya laboratoriyaning sifatini oshirishga, mijozlar ishonchini mustahkamlashga va xalqaro bozorga kirishga yordam beradi.



Tavsiyalar

Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyaga tayyorlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- O'z vaqtida rejalashtirish: Akkreditatsiya jarayoni vaqt talab qiladi, shuning uchun uni rejalashtirish va kerakli resurslarni ta'minlash muhimdir.
- Akkreditatsiya talablarini o'rganish: Akkreditatsiya tashkilotining talablarini diqqat bilan o'rganish kerak va ularga muvofiq harakat qilish kerak.
- Malakali xodimlarni tayyorlash: Akkreditatsiya talablariga javob beradigan malakali xodimlarni tayyorlashga e'tibor qaratish kerak.
- Sifat nazorat tizimini joriy qilish: Sinov jarayonlarining aniqligi va ishonchlilagini ta'minlash uchun sifat nazorat tizimini joriy qilish kerak.

Xom ipak ishlab chiqarish mahsulotlari sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o'tkazish — bu tarmoqning sifati va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori "Xalqaro standartlarga muvofiq laboratoriyalarni akkreditatsiyalash tartibi to'g'risida" – Toshkent, 2019 yil.
2. ISO/IEC 17025:2017 Standarti: Sinov va kalibrash laboratoriyalari uchun umumiy talablar – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO), 2017 yil.
3. Karimov, A. "Laboratoriyalarni akkreditatsiyalash: Nazariya va amaliyot." O'zbekiston Milliy Akkreditatsiya Markazi, Toshkent, 2020 yil.
4. G'aniyev, B. "Ipak sanoati va mahsulot sifati nazorati." Toshkent davlat texnika universiteti nashri, 2021 yil.
5. Demchenko, V. "Xalqaro akkreditatsiya jarayonlari va laboratoriyalarda sifatni ta'minlash." Moskva, 2018 yil.
6. Xalqaro Sinov Laboratoriyalari Assotsiatsiyasi (ILAC) veb-sayti – www.ilac.org



SHAXS SALOMATLIGINI KAFOLATLOVCHI SANOGEN TAFAKKUR RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

*ADPI 1-bosqich magistranti
Karimova Umida Alijon qizi*

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi ijtimoiy hayotimizni qamrab olgan media vositalarining ongimizga ta`siri natijasida hosil bo`layotgan ruhiy buzilishlar va buning natijasida kelib chiqayotgan barcha somatik kasallikkarni bartaraf etish yo`li muhim usullaridan biri bo`lgan sanogen tafakkur nima , uning bugungi kundagi ahamiyati hamda rivojlantirib borishimizdan asosiy manfaatdorligimiz borasida so`z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Sanogen tafakkur, patogen tafakkur, tafakkur, ruhiy buzilish, somatik kasallikklar, axborot texnologiyalari, refleksiv, sog`lom fikr, nazorat, ruhiy anglanganlik.

Abstract: In this article, what is sanogenic thinking, which is one of the important ways to eliminate mental disorders and all somatic diseases caused by the influence of media media that covers our social life today, what is its importance today and how to develop it we are talking about our main interest.

Key words: Sanogenic thinking, pathogenic thinking, thinking, mental disorder, somatic diseases, information technologies, reflexive, common sense, control, mental awareness.

Абстрактный: В этой статье что такое саногенное мышление, которое является одним из важных способов устранения психических расстройств и всех соматических заболеваний, вызванных влиянием средств массовой информации, освещавших сегодня нашу социальную жизнь, каково его значение сегодня и как его развивать мы? говорим о нашем главном интересе.

Ключевые слова: Саногенное мышление, патогенное мышление, мышление, психическое расстройство, соматические заболевания, информационные технологии, рефлексивность, здравый смысл, контроль, психическое сознание.

Kirish. Mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga, umuman olganda zamon talab qilayotgan barkamol insonda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim xususiyatlaridan biri, ong va tana salomatligini ta`minlovchi sanogen tafakkurdir. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan hayotimizning ajralmas qismiga aylanib



ulgurgan axborot hujumlaridan zararlanib qolmaslik, emotsiyal charchoq holatlarining doimiy ravishda kuzatilmasligi, hissiy buzilishlar, qo'pollik, serjahllilik, asabiylashish holatlariga ko'p bora duch kelmaslik sanogen tafakkurning jamiyatimizga kirib kelganligi va uni rivojlantirib borayotganligidan dalolat beradi. Tafakkur nima? Uning ahamiyati haqida so'z borar ekan rus olimi L.C.Vigotskiyning tafakkur haqidagi qarashlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning ijtimoiy hayotida tafakkurning ahamiyatini: "Tafakkur hissiy bilish endi yetarli bo'lmay qolgan yoki hatto ojizlik qilib qolgan joyda boshlanadi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini davom ettiradi va rivojlantiradi" – degan qarashlar bilan izohlagan [3;15-b.]. Demak, bilish jarayonlarining ikkinchi signal sistemasi bilan bog'liq bo`lgan atrofimizdagi voqealarni hodisalarni ichki qonuniyatlar, o`zaro munosabatlarni o`rtasidagi murakkab mexanizmlarni tushuntirib berish hamda u haqidagi barcha xulosalarni umumlashgan holda namoyon qilib beruvchi jarayon bu tafakkurdir. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal tarzda rivojlanib borayotganligi aqliy jarayonlarni shunga mos tarzda o`stirish o`zaro muvofiqlashtirish u bilan birgalikda qayta renesansni amalga oshirish ma`suliyati turibdi. Buning natijasida esa yangi talab va yangicha strategiyalar jamiyat uchun muhim ekanligini taqazo qilmoqda va bulardan biri Sanogen tafakkur (lotincha: "sanus" - sog'lom va yunon tilida - "genezis" - rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog'lomlashtiruvchi tafakkur. Shaxs ijtmoiy munosabatlarni jarayonida o`zining xattiharakatlari, kafiyati, his-tuyg`ulari, ichki kechinmalari balki, ma`lum bir vaziyatlarda fikrlarini ham nazorat qila olishi xususiyati sanogen tafakkur o`zida namoyon qila olaganligidan axborot beradi. Bunga qarama-qarshi tarzda patogen tafakkur ham mavjud bo`lib, u o`zini mutlaqo boshqara olmaslik turli vaziyatlarda nazoratni qo`ldan boy berish hattoki, salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlarni jarayonida vujudga keladigan emotsiyal beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Sanogen tafakkur borasida ko`plab g`arb va sharq olimlari o`zlarining ilmiy tadqiqotlar olib borib, u haqida tegishlich bilimlar va turli qarashlarga ega bo`lishdi. Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Yu.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo'llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o'zlashtirishga imkon beradi, o'tmishdagi patogen fikrlash tajribasini



to'playdi. Sanogen tafakkur inson ongini sog'lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya'ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo'llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish orqali bartaraf etish usuli"[3, 19 b].

A.V.Petrovskiyning qarashlaridan ma'lumki, shaxsning taraqqiy etishi, sog'lom bo'lishi, sanogen tafakkurining rivojlanishida interindivid (faoliyatda shaxslarning sub'yektiv munosabatlari) shaxslararo munosabatlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda metaindivid ya'ni (atrofdagi kishilarning "hissasi") ijtimoiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi [8;13-14-b]. Amerika professori T.Shibutani (1920-2004) "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: shaxs tafakkurini nazarda tutib - "Agar odam oz bo'lsada o'zini-o'zi anglay olsa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi" - deb ta'kidlagan. Demak inson avvalo o'zini anglashi, o'z xulq-atvorini nazorat qila olishi, shaxslararo munosabatlarda o'zini to'g'ri boshqara olishi zarur. Bunday shaxsiy vazifani sanogen tafakkurni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi[11;51-b]. S.N.Morozyuk oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxsiy va xarakter xususiyatlarini psixodiagnostik jihatdan tahlil qilib, "sanogen refleksiya"ni sog'lom tafakkurning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Sanogen refleksiya - bu turli xil vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor usullarini tanlashga imkon beruvchi, insonning o'z-o'zini, hissiy kechinmalarini, fikrlari va muammolarini ob'ektiv ko'rish va baholash qobiliyati[6, 21 b.]. Sanogen tafakkur muammosini shaxs refleksiv qobiliyati bilan bog'liqlikda o'rgangan tadqiqotchilardan biri bu N.V.Pavlyuchenkova hisoblanadi. Sanogen refleksiya shaxsiy rivojlanish, moslashuvchanlik va salbiy hissiy holatlarni nazorat qilishga ta'sir etuvchi omil bo'lib, u shaxsning hayotiy qiyin vaziyatlarga nisbatan qarshi kurashish qobiliyatidir[11,22 b]. Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);



- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishontirish va nazoratning yuqoriligi;

- Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg'unligi

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, Sanogen tafakkur bu ruhiy anglanganlik, har bir voqeа hodisalarga pozitiv kayfiyat hamda reallikda qochmagan holda qabul qila olishlik va o'z-o'zini yuqori nazoratda ushlab turishlik bilan alohidalanadi. Bugungi kundagi sanogen tafakkurning ahamiyatlilik darajasi ortib bormoqdaki, chetdan kirib kelayotgan turli axborotlarni saralash imkonini beradi, balki axborotlarni to'g'ri qabul qilish hamda olingan ma'lumotlarni o'rnida qo'lay biliшlik ko`nikmalarini hosil qilishlikka yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Ю. М. Орлов. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А. В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. — Издание 2-е изд., исправленное. - М.: Слайдинг, 2006. - 96 с.
2. S. Ataxanova. Innovatsion ta'llim jarayonida tafakkur // Ilmiy maqola. "Sog'lom avlod uchun" ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014 yyil. 5/4- 5 b.
3. Z.A. Abdiraxmonova. O'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. 2020. - 48 b.
4. С.Н. Морозюк. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности. Док.псих.наук ... дисс. М. 2001. - 382 с.
5. Ю.Н. Крайнова. Саногенная рефлексия в структуре эмоциональной компетентности будущих педагогов. Автореф. канд. дисс. М., 2010. - 28 с.
6. Л.А. Кананчук. Саногенная рефлексия как фактор адаптации студентов в полиэтнической среде вуза. Автореф. канд. дисс. М., 2010. - 22 с.
7. Н.В. Павлюченкова. Саногенная рефлексия как фактор развития эмоциональной компетентности. Автореф. канд. дисс. М., 2008. - 27
8. Tojiboyeva G., Shobdurahimova U. O 'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI, UNI BAHOLASH MEXANIZMI VA PSIXOLOGIYASI //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.



9. TOJIBOYEVA G. TA'LIMDAGI DESTRUKTIV NIZOLARNI KONSTRUKTIV BOSHQARISH PSIXOLOGIYASI //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 162-166.
10. Raxmonjonovna T. G. NIZOLARNI YENGIB O ‘TISHNING PSIXOLOGIK O ‘ZIGA XOSLIGI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 30. – №. 1. – C. 205-210.
11. Таджибаева Г. Р. ПРИЧИНЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 3.
12. Raxmonjonovna T. G., Abdullo o‘g‘li A. M. MAKTAB TA’LIMIDA NIZOLARNI BOSHQARISHNING KONSTRUKTIV OMILLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 49. – №. 2. – C. 193-196.
13. Raxmonjonovna T. G. et al. MAKTAB PSIXOLOGINING NIZOLI VAZIYATLARDAGI PSIXOPROFILAKTIK FAOLIYATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 57. – №. 1. – C. 22-25.



TALABALARDA AXBOROT ISTE'MOLINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHALTLARI

Andijon davlat universiteti,

Umumiy psixologiya kafedrasи professorи

Tojiboyeva Gulxumorxon Raxmonjonovna

Andijon davlat universiteti

Psixologiya yo`nalishi 1-bosqich magistranti

Qurbanova Navro‘za

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarda axborot iste'molining ijtimoiy-psixologik jihatlari o'rganilgan. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va uning ta'lif jarayoniga kirib kelishi, talabalar orasida axborot iste'mol qilish madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Axborotning o'zlashtirilishi va uning ijtimoiy-psixologik ta'sirlarini o'rganish, talabalar faoliyatida axborotga bo'lgan munosabatni aniqlash imkonini beradi. Maqolada talabalarning axborot iste'moliga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, psixologik holat va guruh dinamikasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, axborot iste'molining talabalar o'rtaida kommunikasiyaga va ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Axborot iste'moli, talaba, ijtimoiy psixologiya, ta'lif, kommunikatsiya, psixologik ta'sir, guruh dinamikasi, axborot texnologiyalari.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INFORMATION CONSUMPTION AMONG STUDENTS

Abstract

This article explores the social-psychological aspects of information consumption among students. The rapid development of information technologies and their integration into the educational process necessitate the formation of a culture of information consumption among students. Studying the process of information absorption and its social-psychological impacts allows for an understanding of students' attitudes toward information. The article analyzes the social factors, psychological state, and group dynamics influencing information consumption among students. The impact of information consumption on communication and social behavior among students is also discussed.



Keywords: Information consumption, student, social psychology, education, communication, psychological impact, group dynamics, information technology.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ СТУДЕНТАМИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-психологические аспекты потребления информации студентами. Быстрое развитие информационных технологий и их внедрение в образовательный процесс требует формирования культуры потребления информации среди студентов. Изучение процесса усвоения информации и его социально-психологических последствий позволяет выявить отношения студентов к информации. В статье анализируются социальные факторы, психологическое состояние и групповая динамика, влияющие на потребление информации студентами. Также рассматривается влияние потребления информации на коммуникацию и социальное поведение студентов.

Ключевые слова: Потребление информации, студент, социальная психология, образование, коммуникация, психологическое воздействие, групповая динамика, информационные технологии

Kirish

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va internetning hayotimizga chuqur kirib kelishi barcha sohalarda, xususan, ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Talabalar bu o'zgarishlarning eng faol ishtirokchilaridan biri sifatida, axborot iste'molining yangi shakllari bilan tanishib, ulardan ta'lim jarayonida foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, bu jarayonning ijtimoiy-psixologik ta'sirlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar axborotni qanday iste'mol qiladilar, bu ularda qanday ijtimoiy va psixologik natijalarga olib keladi – ushbu savollarni tahlil qilish bizga axborot iste'molining ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Talabalarda axborot iste'molining ijtimoiy-psixologik jihatlari, asosan, ularning psixologik holati, ijtimoiy o'zaro aloqalari va axborot texnologiyalariga bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va internet tarmog'ining keng tarqalishi, talabalar orasida ma'lumot olish va uni baham ko'rishning yangi shakllarini yaratdi. Shu bilan birga, bu jarayonlarning ijtimoiy-



psixologik ta'sirlarini chuqurroq tahlil qilish zarur. Quyida bu masalaning ayrim qo'shimcha jihatlari ko'rib chiqiladi:

Axborot iste'molining ijtimoiy-psixologik aspektlarini o'rganishda turli psixologik va ijtimoiy modellar qo'llaniladi. Misol uchun, "**Media Richness Theory**" (Media Boylik Nazariyasi) va "**Uses and Gratifications Theory**" (Foydalanuvchilar va Qoniqishlar Nazariyasi) kabi nazariyalar axborot iste'molining talabalar o'rtasidagi ijtimoiy ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Ushbu nazariyalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning axborot iste'mol qilishda motivlari va ehtiyojlari turlicha bo'lib, bu ularning ijtimoiy aloqalarini va psixologik holatini shakllantiradi.

Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi talabalar o'rtaida axborot iste'molining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan, onlayn kurslar, interaktiv ta'lim materiallari va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashish talabalar o'rtaida ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Biroq, bu jarayonning salbiy jihatlari ham mavjud. Tezkor axborot oqimlari va qisqa muddatli diqqatni jamlashning kamayishi talabalar uchun stress va bezovtalikka olib kelishi mumkin.

2. Erikson, E. (1968). *Shaxs rivojlanishining psixososial bosqichlari*.
3. Bandura, A. (1977). *Ijtimoiy o'rghanish nazariyasi*.
4. Tojiboyeva G. SHAXSLARARO NIZOLARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 13-17.



5. Tojiboyeva G. R. Development of the skill of calligraphic writing as a professional competence in a future primary school teacher //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 830-835.
6. Gulhumorxon T., Muazzam R. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASADA AMALIYOTCHI PSIXOLOG XIZMATI VA FAOLIYATI //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 363-366.
7. Tojiboyeva G. R. et al. BOSHQARUVDA NIZOLI VAZIYATLAR PSIXALOGIYASI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 1. – С. 118-119.
8. Tojiboyeva G. R. et al. TURLI RAHBARLIK USLUBLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 1. – С. 114-117.
9. Rahmanzhanovna T. G. SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CONFLICT SITUATIONS IN THE TEACHING STAFF //World Bulletin of Social Sciences. – 2024. – Т. 31. – С. 30-32.



A STUDY OF LANGUAGE TRANSFER IN THE PROCESS OF SECOND LANGUAGE ACQUISTION

Khalmakhanova Asida Janbolatovna

Student of Chirchik state pedagogical university,

E-mail: xolmaxanovaasida@gmail.com

+998998874807

Scientific supervisor: Khazratkulova E'zoza

Chirchik state pedagogical universary,

Turism faculty,teacher

Abstract. Language transfer is one of the crucial factors in second language acquisition. Based on the language transfer theories the article analyses the language factors which affect language transfer in the process of second language acquisition from the perspective of phonetics, pragmatics and syntax in the method of comparative analyses, which can help teachers stimulate their language teaching.

Key words. Second Language Acquasition; Language Transfer; Mother Language; Target Language.

Introduction. The term “transfer” refers to the process of automatic, uncontrolled and subconscious use of past learned behavior the attempt to produce new response. On average, transfer refers to the effect that mother language or ancient language knowledge has on target language or on the novel language knowledge. This effect can be positive or negative, so the transfer can be classified as positive transfer or negative transfer. This positive or negative effect might occur in the process of second language learning so as to have the idea of language transfer. Language transfer is a phenomenon in the circumstance of second language learning, learners of the mother tongue knowledge, like pronunciation, semantics, structure and other rules of the new language science of the phenomenon of learning. Language transfer refers to inter – language transfer, that is, the transfer between a number of languages, such as the mother tongue and the aim language, but also refers to intro – language change, like the transfer between vocabulary, structure and the skills of writing and reading. Positive transfer is the process of in which mother language has a positive impact on English learning. That the influence of the language rules of mother tongue is incompatible on goal language is negative transfer. Language transfer could be used to explain the interact among factors in the



circumstance of second language in learning and impact the acquisition and usage of language, and help learners to learn the correct language learning strategies.

The theories of language transfer. Language transfer is a vital topic in second language acquisition research. In the 1950s, Robert Lado proposed the comparative analysis hypothesis in his linguistic book Cross-Cultural Language. This hypothesis is based on behaviorism and structuralism linguistics, which concluded that the negative direction of the mother tongue in second language learning is often greater than the positive effect. The greater the difference between the mother tongue and the target language, the greater the difficulty in learning, and vice versa. Learners can easily grasp those language points in the target language which are close to or similar to the mother tongue.[3] Ellis (1999) also argued that the difficulty of second language acquisition depends on the difference between the mother tongue and the target language. Greater differences lead to more obstacles and errors during learning. However, in practice, this learning disability will vary due to differences in individual cognitive levels. For example, when the mother tongue and target language share similar language rules, learners might become confused.[1] In the 1960s, Chomsky proposed the Universal Grammar theory, suggesting that the human brain has inherent universal grammar, specifically divided into core grammar (common to all languages) and surrounding grammar (specific to different languages). The creative construction theory posits that the second language learning process is influenced by universal grammar, with learners from different mother tongues following the same process and order of second language acquisition. The deep sharing ability hypothesis posits that mother tongue transfer exists not only at the surface level but also in psychological cognitive processes. Mother tongue and target language are interdependent at a deeper level, where developing one language skill can promote the learning of another. The positive effect of the mother tongue on the target language is far more significant than the negative impact.

Factors of language transfer. Language Factors: English and Chinese belong to different language families. English is part of the Indo-European Germanic language system, whereas Chinese belongs to the Sino-Tibetan language system. The differences in phonetics, vocabulary, and syntax result in more negative than positive transfer for Chinese learners of English. English is an intonation language, where meaning is determined through voice and intonation, while Chinese is a tonal language with meaning determined through its four tones. These differences often lead Chinese learners to use a monotone when reading English, influenced by the negative impact of their mother tongue. Teachers should emphasize tone practice



and guide students in pronunciation. English phonemes and Chinese phonemes differ significantly. For instance, English contains voiced and voiceless phonemes absent in Chinese. For example, /θ/ and /ð/ are challenging for Chinese learners to pronounce correctly. Age also plays a critical role in language acquisition, as younger learners are more adaptable to new phonemes. Additionally, cultural and semantic differences between English and Chinese also contribute to transfer challenges. Words like "red," "green," and "dragon" carry different connotations in English and Chinese, which can confuse learners. Teachers should focus on teaching cultural context and meaning differences to bridge these gaps. In syntax, while both English and Chinese follow an SVO word order in declarative sentences, other elements like modifiers and question formation differ significantly, leading to negative transfer. Examples include errors such as "You are going to the school?" instead of "Are you going to the school?"

Inspiration for positive transfer of mother tongue in teaching. Teachers can address both positive and negative transfer in teaching. Conducting comparative analyses between the mother tongue and the target language can help identify key difficulties and areas of focus. Highlighting cultural and structural differences between languages can also aid in comprehension. The appropriate use of the mother tongue in teaching, especially for explaining abstract concepts, can enhance understanding. However, overusing the mother tongue might reduce exposure to the target language, hindering proficiency development.

Conclusion. The changing of the mother tongue to the goal language is inevitable in second language acquisition, with both pros and cons effects. Scientists should realize and recognize negative transfer phenomena to mitigate their impact and inspire positive transfer. This approach will retain learners in acquiring better habits and improving their language skills successfully.

References

1. Ellis, R. The Study of Second Language Acquisition [M]. Shanghai Foreign Language Education Press, 1999.
2. Firth, C. & Kasper, G. Perspectives on Language Transfer. Applied Linguistics, 1987, pages (8).
3. Lado, R. Linguistics Across Culture Applied Linguistics for Language Teachers. Ann Arbor, Michigan University of Michigan, 1975.
4. Odlin, T. Language Transfer [M]. Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
5. Sharwood Smith and Kallerman. Cross - linguistics Influence in Second Language Acquisition[M]. Oxford: Pergamon, 1986.



THE ROLE OF WORKING MEMORY IN LANGUAGE LEARNING

Egamberanova Gulhayo Jasurbek qizi

Student of CSPU

Department English language and theory

Email: Egamberanova_gulhayo624@Gmail.Com

Scientific advisor: Khazratqulova Ezoza Ismat qizi

Abstract: Overall, working memory is much more useful not only to our understanding but also it improves new skills and structures to learn other new languages. Additionally, working memory helps keep information for a long time.

Key words: working memory, linguistic information, listening activities, reading structures, bilingual and multilingual learners.

Working memory is a cognitive system that temporarily holds and manipulates information. It plays a vital role in language learning, affecting how learners acquire, understand, and use a new language. This essay explores the significance of working memory in various aspects of language learning.

In language acquisition, working memory is essential for processing new linguistic information. It enables learners to hold onto new vocabulary, grammatical structures, and sentence patterns while integrating them with existing knowledge. This temporary storage capacity is crucial for understanding and producing language effectively. During listening activities, learners must retain information from spoken language while deciphering its meaning. Working memory facilitates this by allowing learners to keep track of multiple elements, such as context and speaker intent. A robust working memory capacity correlates with better comprehension skills, enabling learners to grasp complex sentences and nuanced meanings.

Reading requires the integration of new information with prior knowledge, a process heavily reliant on working memory. As learners read, they must maintain the context of the narrative or argument, connecting various parts of the text. Those with stronger working memory capabilities tend to perform better in reading comprehension tasks, as they can effectively manage and synthesize information. Effective communication, whether spoken or written, demands significant working memory resources. When producing language, learners must



plan their responses, organize their thoughts, and ensure grammatical accuracy. Working memory allows for the simultaneous management of syntax, vocabulary, and coherence, which is essential for fluent expression.

For bilingual and multilingual learners, working memory aids in language switching and managing potential interference between languages. This cognitive flexibility is crucial for effective communication in diverse linguistic contexts, allowing learners to navigate multiplelanguage systems seamlessly.

Working memory influences the application of various language learning strategies. Techniques such as rehearsal, chunking, and visualization benefit from a well-functioning working memory. Learners with higher working memory capacity often employ these strategies more effectively, leading to improved language acquisition outcomes.

There are notable individual differences in working memory capacity, which can impact languagelearning success. Research indicates that learners with better working memory tend to excel in language tasks, highlighting the importance of this cognitive skill in educational settings.

In conclusion, working memory plays a crucial role in language learning by facilitating information processing, comprehension, production, and the application of effective learningstrategies. Understanding its significance can help educators design more effective language instruction methods, catering to the diverse needs of learners. As such, fostering working memory skills may enhance overall language learning experiences and outcomes.

Reference:

1. Baddeley, A. D. (2003). "Working memory: Looking back and looking forward." *Nature Reviews Neuroscience*, 4(10), 829-839.
2. Gathercole, S. E., & Baddeley, A. D. (1993). *Working Memory andLanguage*. Psychology Press.
3. Miyake, A., & Friedman, N. P. (2012). "Unity and diversity of executive functions: A latent variable approach." In *Handbook of Psychology* (pp. 397-423). Wiley.
4. Swanson, H. L., & Zheng, X. (2013). "The role of working memory in the language learning of children with and without learning disabilities." *Learning and Individual Differences*, 23, 61-68.
5. Robinson, P. (2001). "Task complexity, cognitive load, and the role of working



- memory in second language acquisition." *Instructed Second Language Acquisition*, 5(4), 381-391.
6. Tharp, R. G., & Gallimore, R. (1988). "Understanding the role of working memory in language learning." *Educational Psychologist*, 23(3), 297-309.
 7. VanPatten, B. (2004). "Processing instruction: Theory, research, and commentary." *Language Learning*, 54(2), 327-364.
 8. Papagno, C., & Vallar, G. (2004). "The role of phonological and semantic codes in working memory." *Journal of Memory and Language*, 51(1), 66-83.
 9. Sparks, R. L., & Ganschow, L. (2001). "The role of working memory in the second language learning of high school students." *Learning and Individual Differences*, 13(1), 43-64.
 10. Baddeley, A. D., & Hitch, G. J (1974). "Working memory." In *Psychology of Learning and Motivation* (pp. 47-89). Academic Press. These references will help you explore the role of working memory in language learning in depth.



JAVOBGARLIK DAN VA JAZODAN OZOD QILISH TUSHUNCHASI TURLARI VA BELGILARI

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Abdullahayev Muhammadali Tavakkal o'g'li

*ADPI Milliy g'o'ya va ma'naviyat asoslari huquq
ta'lif yo'nalishi 3 – bosqich talabasi*

Annotatsiya: E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolada javobgarlik va jazodan ozod qilish hamda javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalari, hamda ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatlar, uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar, og'ir jinoyatlar va o'ta og'ir jinoyatlar joriy etish haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Аннотация: В этой статье, обращенной к вашему вниманию, вы найдете информацию о вопросах освобождения от ответственности и наказания, а также о введении уголовной ответственности за преступления, не являющиеся общественно опасными, менее тяжкие преступления, тяжкие преступления и особо тяжкие преступления.

Annotation: in this article, you will receive information about the issues of liability and punishment and exemption from liability and punishment, as well as the introduction of crimes of greater social risk, less serious crimes, serious crimes and extremely serious crimes.

Kalit so'zlar: javobgarlikdan ozod qilish, jazodan shartli ozod qilish.

Ключевые слова: освобождение от ответственности, условное освобождение от наказания.

Keywords: release from liability, parole from punishment.

Jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish jinoyatlarning umumiy va maxsus oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun chiqaruvchi ayrim holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo qo'llamasdan ham uning hulqini tuzatish mumkin yoki qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjudligida ularga jazo qo'llamaslikni hamda javobgarlikdan ozod qilish qoidalarini belgilaydi. Jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlardan o'zining yuridik mohiyati va huquqiy oqibatiga ko'ra farqlanadi. Jumladan, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar jinoyatning ayrim belgilari mavjud emasligida, qilmish yoki oqibatning jinoiyl-huquqiy ahamiyat kasb



etmasligida, shuningdek, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy foydaliligidan ifodalansa, jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etishda aybi isbotlangan shaxslarga qo'llaniladigan huquqiy choradir. Shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ikki omil mavjud bo'lganida yuzaga keladi: birinchidan, shaxs jinoyat belgilarini ifodalagan qilmishni sodir etganida, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'lganida; ikkinchidan, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo'lganda. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuniga ko'ra, javobgarlikdan ozod qilish shaxs jinoyat sodir etganida uni jinoiy javobgarlikka tortishga barcha asoslar mavjud bo'lgan, biroq jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan, qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilagini yo'qotganligi munosabati bilan aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan yarashganligi munosabati bilan, kasallik tufayli, amnostiya akti asosida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'limganida yoxud sodir etilgan qilmishning va aybdor shaxsning ijtimoiy xavfliligi xususiyatini inobatga olib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmasdan tarbiyalash mumkin bo'lgan holatlar mavjudligini taqozo etadi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, o'z mazmuniga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsni huquqiy oqibatlardan ozod qilishdir. Bunda shaxs jinoyat sodir etishda aybli deb topiladi, lekin unga jazo yoki boshqa turdagimajburlov choralari qo'llanilmaydi. Shuningdek, javobgarlikdan ozod qilingan shaxs sudlanmagan hisoblanadi. Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- 1) Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;
- 2) Uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to'rt yil;
- 3) Og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;
- 4) O'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n to'rt yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi. Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o'tishi qaytadan tiklanadi.

Agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o'tishi uzeladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan



kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatları o‘tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi. Agar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o‘n yil, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o‘tgan bo‘lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.Ushbu kodeksning maxsus qismi moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo‘llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi . Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo‘llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi. Ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtida sharoit o‘zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 65- moddasida esa ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtida sharoit o‘zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergen va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim. Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Aylov hukmida ikki muddat belgilanadi. Birinchi muddat – tayinlangan jazo turlaridan birining, ya’ni ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga jo‘natish yoki xizmat bo‘yicha cheklash muddati; ikkinchisi – shartli hukm qilishning zaruriy tarkibiy qismi bo‘lgan sinov muddati. Sinov muddati sud hukmida aniq belgilangan vaqt bo‘lib, ushbu vaqt davomida mahkum tayinlangan jazoni haqiqatda o‘tashdan shartli ravishda ozod qilinadi va ushbu muddat davomida uning zimmasiga jazo maqsadlariga erishishni ta’minlovchi muayyan vazifalar yuklatiladi, shuningdek, mahkumning rioya etishi keyinchalik unga nisbatan tayinlangan jazoni ijro



etmaslikka imkon beradigan muayyan shartlar ilgari suriladi. Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilishi mumkin. Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda sudlanganlik holatini tugatish uchun qonunda belgilangan muddat davomida shaxs yangi jinoyat sodir etmagan bo'lishi zarur. Sudlanganlik muddati mobaynida shaxs yangi jinoyat sodir etsa, ushbu muddat so'nggi jinoyat uchun asosiy va qo'shimcha jazo o'talgan paytdan boshlab hisoblanishi zarur. Shaxs og'irroq jinoyati uchun sudlanganlik holatining tugash muddati o'tmagunicha sodir etgan jinoyatlarning barchasi uchun sudlangan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 O'zME. Birinchi jild . Toshkent, 2000 –yil.
- 2 <https://lex.uz>.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y
- 4 Bola huquqlari to'g'risida konvensiya
- 5 O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova "Inson huquqlari" o'quv qo'llanmasi
- 6 Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – T., 2010.
- 7 Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
- 8 Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
- 9 Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
- 10 Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
- 11 Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA "TA'LIM" FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNI. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
- 12 Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszlosci , 24 , 546-548.
- 13 Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va katta , 1 (24).
- 14 Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIYFALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).
- 15 Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TARG'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.
- 16 Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lif-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .
- 17 Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).



INSON HUQUQLARI VA XALQARO HUQUQ TO'G'RISIDA

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Abdullayev Muhammadali Tavakkal o'g'li

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq ta'limgan yo'nalishi 3 – bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur, maqolada inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazmun mohiyati hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi milliy normativ – huquqiy hujjatlar bayon qilingan va keng tahlil qilingan.

Аннотация: В настоящей статье изложена сущность содержания Всемирной декларации прав человека и национальных нормативных правовых актов Республики Узбекистан в области прав человека и проведен обширный юридический анализ этих нормативных правовых актов.

Annotation: this article describes the essence of the Universal Declaration of human rights and the National normative legal acts of the Republic of Uzbekistan in the field of human rights , and manashu normative legal acts are widely analyzed in legal terms.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxs , davlat qabul qilingan qonunlar deklaratsiyalar va konferensiyalar .

Ключевые слова: права человека, личность, государство законы, принятые декларации и конференции .

Keywords: human rights, person , laws adopted by the state declarations and conferences .

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga jumladan BMT ni 6 asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protakoliga qo'shilgan bo'lib ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarmi taqdim etib kelmoqda . 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan va unda eng muhim inson huquqlarining sanog'i va mazmuni belgilab qo'yilgan. BMTning 1966-yili ikkita - Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar



to‘g‘risidagi xalqaro paktlarni qabul qilishi ushbu yo‘nalishda qo‘yilgan navbatdagi jiddiy qadam bo‘ldi.

Inson huquqlarining ayrim toifalariga taalluqli ko‘plab konvensiyalar qabul qilindi. Bunda aholining himoyaga o‘ta muhtoj qatlamlarining huquqlari, avvalambor, ayollar va bola huquqlariga alohida e’tibor qaratildi. Bir qancha xalqaro hujjatlar inson huquqlariga qarshi jinoyatlarga barham berishga qaratilgan. Genotsid va aparteidni taqiqlash to‘g‘risidagi, irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi, qullikni taqiqlash to‘g‘risidagi kabi qator konvensiyalar shular jumlasidandir. Bunda Xalqaro Mehnat Tashkilotining ko‘psonli konvensiyalari o‘ziga xos majmuani tashkil etgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Inson huquqlari bo‘yicha konvensiyalarning bir qanchasi mintaqaviy darajada – Afrika Birligi tashkiloti, Amerika Davlatlari tashkiloti, Yevropa Kengashi va MDH doirasida qabul qilingandir.

MDH davlatlari 1993-yil 24-sentabrda qabul qilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari sohasidagi xalqaro majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyada ishtirokchilar milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi bitimlar, xususan, YEXHT hujjatları bo‘yicha majburiyatlarga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan. 1995-yilning 26-mayida Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida MDH konvensiyasi qabul qilingan. Inson huquqlari sohasida davlatlararo hamkorlik keng miqyosdagi masalalarni o‘z ichiga oladi. Unga fan, madaniyat, ta’lim, axborot almashish, kishilar o‘rtasidagi aloqalar borasidagi hamkorliklar kiradi. Davlatlararo hamkorlik markazida inson huquqlari turadi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan inson huquqlari – har qanday jamiyatda shaxsning huquqiy holatini belgilashda muhim bo‘lgan huquqdir. Turli jamiyatlar inson huquqlarini ta’minlashda turli ijtimoiy imkoniyatlarga ega. Biroq davlatlar uchun shaxsga qanday huquqlar berilishi va milliy qonunlarda mustahkamlab qo‘yilishi lozimligi borasidagi qarashlarning ma’lum darajada mos kelishi xarakterlidir. BMT Ustavida inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida so‘z boradi. Aksariyat hollarda bu ikki tushunchani qisqa qilib «inson huquqlari» deb yuritiladi, chunki gap bir tartibdagi voqelik xususida bormoqda. Huquq ham, erkinlik ham – shaxsning yoki bir guruh shaxslarning qonun bilan kafolatlangan lozim darajada xulq-atvor o‘lchovidir. Huquqni amalga oshirish tartibi u yoki bu darajada tartibga solinadi.

«Inson huquqlari» atamasi xalqaro siyosiy tilda Amerikaning mustaqillik urushi va Buyuk fransuz inqilobidan so‘ng paydo bo‘lgan. O‘sha paytlarda tegishli



davlatning ichki hujjatlarida inson va fuqarolik huquqlari to‘g‘risida so‘z borgan. BMT Ustavida fuqarolik huquqlari to‘g‘risida so‘z yuritilmaydi. Ko‘rinib turibdiki, inson huquqlarini xalqlar huquqidan ajratish mumkin emas. 1966-yilda qabul qilingan inson huquqlari to‘g‘risidagi ikkita xalqaro Pakt ham xalqlarni o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan boshlanadi. Inson huquqlarini hurmat qilish tamoyili xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri sifatida 1945-yilda BMT Ustavining qabul qilinishi bilan qaror topdi. U Ustavda xalqaro huquq tamoyillari orasida ko‘rsatib o‘tilmagan. Biroq Ustavning 1-moddasi uchinchi bandida BMT maqsadlaridan biri «inson huquqlari va asosiy erkinliklarini barcha uchun irqidan, jinsidan, tili va dinidan qat‘i nazar, istisnosiz hurmat qilish» borasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish hisoblanadi, deb ko‘rsatilgan. **Inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar qatoriga avvalo inson huquqlari bo‘yicha xalqaro bill kiradi. Xalqaro billga:**

- 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt;
- 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt, unga 1966 va 1992-yillardagi Fakultativ protokollar kiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar jumlasiga yana quyidagilar kiradi:

- ❖ 1960-yildagi Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to‘g‘risidagi Deklaratsiya;
- ❖ 1948-yildagi Genotsid jinoyatining oldini olish va uni sodir etganlarni jazolash to‘g‘risidagi konvensiya;
- ❖ 1965-yildagi Irqiy kamsitishlarning barcha shaklini bekor qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya;
- ❖ 1973-yildagi Aparteid jinoyatlarining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash Xalqaro konvensiyasi;
- ❖ 1949-yildagi Urush qurbanlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yildagi I va II qo‘sishimcha protokollar;
- ❖ 1952-yildagi Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya;
- ❖ 1979-yildagi Ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shaklini bekor qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi;
- ❖ 1959-yildagi Bolalar huquqi deklaratsiyasi;
- ❖ 1989-yildagi Bolalar huquqi to‘g‘risidagi konvensiya;



- ❖ 1957-yildagi Turmushga chiqqan ayolning fuqaroligi to‘g‘risi- dagi konvensiya;
- ❖ 1974-yildagi Ayollar va bolalarni qurolli mojarolar davridagi favqulodda vaziyatlarda himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya;
- ❖ 1961-yildagi Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi konvensiya;
- ❖ 1954-yildagi Aparteidlarning maqomi to‘g‘risidagi konvensiya;
- ❖ 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya va 1966-yildagi protokol;
- ❖ 1950-yildagi BMTning Qochoqlar ishi bo‘yicha Oliy Komissari boshqarmasining Ustavi;
- ❖ 1957-yildagi Hududiy boshpana to‘g‘risidagi Deklaratsiya va boshqalar.

BMT Ustavi inson huquqlari tushunchasini aniqlashtirmasa-da, ma’lum darajada unga ko‘maklashuvchi bir necha tamoyillarni ifodalaydi. Inson huquqlari sohasidagi boshqa hujjatlar – ishtirokchilar uchun majburiy xarakterga ega bo‘lgan xalqaro shartnomalardir. Ularga 1965-yil 21-dekabrdagi barcha irqiy kamsitishlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya, 1966-yil 19-dekabrdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt, 1984-yil 10-dekabrdagi Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya va boshqa shartnomalar kiradi.

Ombudsman – alohida shaxs yoki bir guruh shaxslar bo‘lishi ham mumkin. Odatda u o‘zining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida yoki maxsus qonun asosida faoliyat ko‘rsatuvchi parlament tomonidan tayinlanadi. Shunga ko‘ra, Ombudsman jabrlangan shaxs va hukumat o‘rtasidagi xolis vositachi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. O‘zbekistonda Ombudsman instituti, ya’ni inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili 1995-yildan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda.

Boshpana huquqi – ma’lum bir davlat tomonidan o‘zining fuqaroli- giga ega bo‘lgan davlatda yoki doimiy yashash joyida siyosiy qarashlari uchun ta’qibga olingan biron-bir shaxsga yashirinish imkoniyatini berish va bunday shaxsni ushlab bermaslikdir.

Qochoqlar – millati, diniy e’tiqodi, siyosiy e’tiqodi uchun ta’qiblardan, harbiy harakatlar yoki boshqa favqulodda holatlar natijasida doimiy yashab kelgan davlatini tashlab chiqqan shaxslardir.

Majburan ko‘chirilganlar – harbiy harakatlar o‘tkazilishi, jamoat tartibining ommaviy ravishda buzilishi va boshqa inson huquqlarining buzilishi natijasida millati, tili, siyosiy va diniy e’tiqodi bo‘yicha jabrlanishi yoki ta’qib ostiga olinish xavfidan o‘z davlat chegarasi doirasida doimiy yashash joylarini tashlab



chiqqan shaxslar. Inson huquqlari Komissiyasi o‘z navbatida o‘zining ekspertlar organi kamchilikni himoya qilish va kamsitishning oldini olish bo‘yicha kichik komissiya tuzgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki O’zbekiston Respublikasida insonning huquqlar va erkinliklari birinchi o‘rinda turadi. O’zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha insonlar ya’niy jinsi, irqi tili dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tabaqasidan qat’iy nazar hech qanday kamsitishlarsiz yashashi 1948 – yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilab qo’yilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
2. Bola huquqlari to’g’risida konvensiya.
3. O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “ Inson huquqlari” o’quv qo’llanmasi
4. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – Т., 2010.
5. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
6. Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
7. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
8. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
9. Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA “TA’LIM” FANINI O’QITISH VA O’QITISH TUSHUNCHASINING O’RNI. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
10. Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg‘ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszlosci , 24 , 546-548.
11. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O’RNI. Talqin va katta , 1 (24).
12. Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIYFALSAFIY TA’LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).
13. Qosimbek o‘g‘li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O’ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO ‘NALTIRILGAN TARG ‘IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.
14. Poziljonov, J. (2023). Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyani isloh qilishdagi o’rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .
15. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	TIL O'RGANISHDA DIQQAT VA XOTIRANING AHAMIYATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	3
2	PSIXOLINGVISTIK JIHATLARNING INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI	11
3	TASK-BASED TEACHING ENGLISH LANGUAGE FOR DEVELOPING NINTH-GRADE STUDENTS' SPEAKING SKILLS	15
4	DIOGRAMMALAR YARATISHDA "PLOTLY" MODULIDAN OQILONA FOYDALANISH	18
5	ULOQ-KOPKARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHAVANDOZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI	24
6	THE FUNCTION OF HUMOR IN 19 TH CENTURY BRITISH NOVELS	30
7	A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE ROLE OF GRAMMAR IN LANGUAGE CHANGE	34
8	THE ROLE OF TRANSLATION IN GLOBAL LITERARY EXCHANGE	38
9	MNEMONIKA METODI ORQALI INGLIZ TILINI SAMARALI VA OSON O'RGANISH	42
10	XALQARO BAHOLASH TIZIMI	48
11	LIQUIDITY MANAGEMENT – A COMPARISON OF APPROACHES TO MODELING CASH FLOWS FOR VARIABLE BANK PRODUCTS	57
12	EUROPEAN ASSET MANAGEMENT STUDY 2024: REMAINING CAUTIOUS DESPITE MARKET GROWTH	62
13	RISK APPETITE FRAMEWORK AS A CHANCE TO IMPROVE BANK'S RISK GOVERNANCE	66
14	BASEL IV: APPROACH FOR DETERMINING THE CAPITAL CHARGES	72
15	O'ZBEKİSTONDA TADBIRKORLIKDAGI YUTUQLAR VA INVESTORLARGA BİZNESDA YARATILAYOTGAN QULAYLIKLER	76
16	SUPERVISORY AND MARKET FOCUS ON INTEREST RATE AND LIQUIDITY RISKS IN THE BANKING BOOK	79
17	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKİSTON İJTİMOİY-SİYOSIY HAYOTIDA KASABA UYUSHMA FAOLİYATI TİZİMİNİ RIVOJLANTIRISH SIYOSATI	82
18	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA XALQARO REZOLYUTSIYALAR	88
19	YOSHLAR VA MAFKURA: TA'LIM VA TARBIYANING RO'LI	94



20	BANKLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR	98
21	TOVUQLarda KALSIY FOSFOR ALMASHINUVI BUZULISHLARINI PROFILAKTIKASI	102
22	MYSQL, MSSQL, POSTGRESQL VA SQLITE - AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	111
23	RAQAMLI FIRIBGARLAR AVJIDA	116
24	AI HAMMA YERDAMI? SUN'iy INTELLEKT DAVRIDA INSON BO'LISH	121
25	THE ROLE OF INTERACTIVE TECHNOLOGY IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS: A COMPARATIVE ANALYSIS	126
26	BO'LAJAK DOKTORLAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASH	129
27	ДЕЕПРИЧАСТИЕ. СЕМАНТИЧЕСКИЕ, МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЕПРИЧАСТИЙ В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ	136
28	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA AKTning O'RNI	138
29	XOM IPAK ISHLAB CHIQARISH MAHSULOTLARI SINOV LA BORATORIYASINI AKKREDITATSIYAGA TAYYORLASH	144
30	SHAXS SALOMATLIGINI KAFOLATLOVCHI SANOGEN TAFAKKUR RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	148
31	TALABALarda AXBOROT ISTE'MOLINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI	153
32	ISH JARAYONIDAGI HISSIY VA JISMONIY BOSIM ORTIDAGI STRESLARNI PSIXOLOGIK JIXATDAN BARTARAF ETISH USULLARI	158
33	DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE: STRATEGIES FOR ENHANCING SPEAKING SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS	161
34	ЗАМОНАВИЙ КОМПЬЮТЕР ДАСТУРЛАРИ ЁРДАМИДА ФОЙДАЛИ ҚАЗИЛМА КОНЛАРИНИНГ ЕР ЁРИҚЛАРИГА БОҒЛИКЛИГИНИ ЎРГАНИШ (ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИ МИСОЛИДА)	165
35	HOW TO MASTER ENGLISH GRAMMAR EFFECTIVELY	174
36	O'SMIRLIK DAVRIDA TORTINCHOQLIK SHAXS-XUSUSIYATLARINI BARTARAF ETISH YO'LLARI	177
37	A STUDY OF LANGUAGE TRANSFER IN THE PROCESS OF SECOND LANGUAGE ACQUISTION	181
38	THE ROLE OF WORKING MEMORY IN LANGUAGE LEARNING	184
39	JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH TUSHUNCHASI TURLARI VA BELGILARI	187
40	INSON HUQUQLARI VA XALQARO HUQUQ TO'G'RISIDA	191

лучшие интеллектуальные исследования

Внимание! — ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

Главный редактор:

В. Л. Семёнов

Помощник редактора:

М. А. Борисов

Редактор дизайна:

З. Ш. Халиков

— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ || всемирный научно-методический журнал,
2024- годы. — город Кокан